

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

# ONA TILI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING  
7-SINFI UCHUN DARSLIK

To'ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi  
tomonidan tasdiqlangan*

UO'K 811.512.133(075.3)

KBK 82.2 O'zb (ya72)

O-58

N. MAHMUDOV, A. NURMONOV, A. SOBIROV,  
D. NABIYEVA, A. MIRZAAHMEDOV

O-58      Ona tili [Matn] / N. Mahmudov [va boshq.]. – Toshkent:  
«Ma’naviyat», 217. – 160 b.

ISBN 978-9943-04-324-4

*Aziz o‘quvchilar!*

Donishmandlar: «Til – dilning kaliti», – deb bejiz aytmagانلار. Hayotda har bir insonning qalbiga yo‘l topish vositasi til ekanini Siz ham yaxshi bilasiz, albatta. Modomiki, shunday ekan, ona tilini mukammal o‘rganmoqning foydasи nechog‘lik katta ekani ayondir.

Siz 7-sinfda 6-sinf «Ona tili» darsligidan olgan bilimlaringizni boyitasiz, yana yangi-yangi ma‘lumotlar olasiz, o‘rgangan nazariy bilimlaringizni bir-biridan qiziq mashqlarga tatbiq etib, amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanasiz.

7-sinf «Ona tili» darsligi mustaqil fikrlashingiz, to‘g‘ri xulosalar chiqara olishingiz, so‘z boyligingizning oshishi, to‘g‘ri talaffuz va puxta imlo sohibi bo‘lishingiz yo‘lida Sizga hamroh va yordamchi bo‘la oladi.

*Aziz o‘quvchilar!*

Ona tilingizning sir-asrorlarini chuqur o‘rganish boshqa fanlar eshigini oson va dadil ochishingizda muhim omil bo‘lishini his qilgan holda uni mehr bilan o‘rganing.

Bu yo‘lda Sizlarga sabot va g‘ayrat tilaymiz.

UO'K 811.512.133(075.3)  
KBK 82.2 O'zb (ya72)

### Shartli belgilari



- javob bering.
- bilib oling.
- eslab qoling.
- ✓ – o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar uchun mashqlar.
- ♦ – tajriba uchun mo‘ljallangan mashqlar.

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari  
hisobidan ijara uchun chop etildi.**

ISBN 978-9943-04-324-4

© «Ma’naviyat», 2011

# KIRISH

## TIL VA NUTQ

### *Savol va topshiriqlar*

1. Til deb nimaga aytildi?
2. Nutq haqida bilganlaringizni gapirib bering.
3. O'zbek tili nima uchun bizga ona tili sanaladi? Shu haqda bahslashing.

Matnni o'qing. Dunyodagi tillar va ular orasida o'zbek tilining  
tutg'on o'rni haqida bahslashing.

Alisherning qalbiga kirmoqchiday, tikilib qarardi tog'asi. Ushbu shoirlari yuksak tuyg'ular, teran fikrlar ila to'la ajib she'rlar urutmishlar. Bizning turkigo'y shoirlar ham ularga ergashib, shesh'rlar ijod qilishni odad qilib olmishlar. Turkiston o'lkanlari vodiylari, sahrolari keng, tog'lari buyuk, aholisi turk — o'bekdur. O'zimizga xos odatlarimiz, an'analarimiz, qo'shiq-imiz, kuylarimiz, dostonlarimiz, ertaklarimiz bor. Bular — shokisiz boyligimiz. Ayniqsa, tilimiz go'zal, shirin va rangli. Iyun, o'z yo'lingni topsang bas! (Oybek)

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobidan olingen o'zing. Undagi asosiy g'oya haqida so'zlang.

Sharq olamida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyo shahridida jumoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kabi etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi. Shu shaxs uoda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar qo'llaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillardan davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki o'zimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

Misol uchun tilimizdagи mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo.

Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, qulooqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasıdır.

**3-mashq. Gaplarni ko'chiring. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning ahamiyati haqida bahs uyshtiring.**

Tilimiz boy. Har qanday ma'no ifodasiga bir necha so'z topiladi. Faqat bu so'zlarni topish va dadil devon tiliga kiritish kerak...

Til haqidagi qonun bizga nima uchun kerak? G'ururimizni namoyish qilish uchunmi? Izzat-nafsimizni qondirishimiz uchunmi?

Yo'q! Bizga til haqidagi qonun o'zligimizni saqlab qolish uchun, tilimizni yo'qotib qo'ymaslik uchun, o'zbek degan xalqning yo'q bo'lib ketmasligi uchun kerak. (*E. Vohidov*)

**4-mashq. Uyga vazifa. «O'zbegim deb keng jahonga Ne uchun madh etmayin!» (*E. Vohidov*) mavzusida matn tuzing. Unda olg'a surilgan g'oya haqida suhbatlashing.**

# TAKRORLASH

## FONETIKA BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

### *Savol va topshiriqlar*

1. Fonetika nimalar haqida ma’lumot beradi?
2. Unli tovushlar deb nimaga aytildi?
3. Undosh tovushlar qanday hosil bo‘ladi?
4. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra undoshlar qanday turlarga bo‘linadi?
5. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undoshlar necha xil bo‘ladi?
6. Jarangli undoshlar qaysilar?
7. Jarangsiz undoshlar deb nimaga aytildi?

*Gaplarni ko‘chiring. Birinchi va ikkinchi gaplardagi unli tovushlarni ajratib, ularga tavsif bering. Ilm o‘rganishning foydali tomonlari to‘g‘risida bahslashing.*

1. Bilim mehnat bilan, tilak g‘ayrat bilan go‘zal. 2. Odamni katta gavda emas, aql yuksaltiradi. 3. Inson ilm-u hunari va aql-idroki bilan har qanday qushdan baland parvoz qiladi. 4. Bilimdonlikning sir-u asrori g‘ayrat hamda matonat bilan o‘qish va o‘rganishdadir. 5. Bobolarning ulug‘vor ishlarini ijodiy rivojlantira olsang, sen baxtiyorsan. (*R. Usmonov*)

◆ *Matnni o‘qing. Undosh tovushlarni aniqlab, jadvalga joylashtiring.*

Bulbullar bu yerda ko‘p bo‘lar ekan. Goho ularning yoqimli, yangroq tovushlari havoni to‘ldirib yuboradi.

Bulbulni tinglashni sevaman. Kuylari qalbimda allaqanday yoqimli hislarni chayqatib yuboradi...

Bulbulning sayrashi – dunyoning eng baland lazzati. Bulbulning maqomlari, kuylari to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz emish... Bulbul jonivor qushlarning asili... (*Oybek*)

Lab undoshlari	Til undoshlari	Bo‘g‘iz undoshi
Til oldi	Til o‘rta	Til orqa Chuqr til orqa

7-mashq. Matnni ko‘chiring. Undosh tovushlarni topib, ularni izohlang.

Seni ona dedim,  
Ko‘zim o‘ngida  
Mushfiq u qiyofang bo‘ldi namoyon.  
Parcha et qoshida bedor bir diyda,  
Sadoqati cheksiz, mehri bepoyon. (A. Oripov)

8-mashq. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib, maqollarni ko‘chiring va ularda ilgari surilgan g‘oya haqida fikrlashing.

1. Eling senga cho‘...sa qo‘l, Unga do...m sodiq bo‘l. 2. Yurt boshiga ish tu...sa, er yigit ...ozir bo‘lar. 3. Xalq bor yerda ...aqlik bor. 4. El boqsa, bax...ing kular, el bo...masa, taxting qular. 5. Xalq...a suyansang, bo‘l...rsan, Xalqdan ch...qsang, so‘larsan. 6. B...rlikda baraka bor. 7. Baxt kaliti me...natda. 8. Olt...n olma, du... ol. 9. Salomatl...k – tum...n boyl...k.

9-mashq. Uyga vazifa. «Assalom, maktab!» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatalgan tovushlarni izohlang.

## IMLO BO‘YICHA OTILGANLARNI TAKRORLASH

### Savol va topshiriqlar

1. Orfografiya nimani o‘rgatadi?
2. Unlilar imlosi deganda nimani tushunasiz?
3. Undosh tovushlar imlosi haqida so‘zlab bering.
4. Asos va qo‘srimchalar imlosi haqida nimalarni bilasiz?
5. Qo‘sib va ajratib yoziladigan so‘zlarga misollar keltiring.
6. Chiziqcha qaysi o‘rinlarda ishlataladi?
7. Bosh harflarning ishlatalish o‘rinlari haqida so‘zlab bering.

✓ 10-mashq. Quyidagi so‘zlarni ko‘chirib yozing. Aytilishi va imlosidagi farqlarni izohlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Saxovat, xiyla, mehr-muruvvat, mudofaa, hilpiramoq, xilmoxil, hayotbaxsh, manfaatdorlik, maqtanchoqlik, xususiy-lashtirish, mutaxassis, mahliyo, mo‘tabar, taqsimot, izardirob, tabiat, navo, firma, tadbirkor, bunyodkorlik, donishmand, iste’dod, ijodkor.

**11-mashq.** «H» va «x» harfi ishtirok etgan so‘zlarga o‘ntadan misol toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

N a m u n a:

Jaholat, suhbat, hikmat, har dam, rayhon, havas, himoya, zahmat, jahon, dehqon; xizmat, xotira, xalqparvarlik, taxt, poytaxt, dasturxon, oshxona, faxr, xitob, saxovat.

Xalqparvarlik va vatanparvarlik yoshlarning asosiy fazilati bo‘lmog‘i darkor.

**12-mashq.** Xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, matnni ko‘chiring. So‘zlarning imlosini tushuntiring. Matndagi g‘oyani tahlil qiling.

G‘azapdan o‘zingni asra, chunki g‘azab tufayli inson o‘z ishlarini, ezgu maxsatlarini unitadi.

Mol-dunyoga xirs qo‘yma, ochko‘z bo‘lma. Ezgu ishni ko‘z-ko‘z qilma. Maxtanchog‘ bo‘lma.

O‘z ruxing bilan ziddiyatga tushmasliyning birdan bir yo‘li foydali mehnatdir. (*«Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal» kitobidan*)

**13-mashq.** *Uyga vazifa.* Rasm asosida «Kuz saxovati» mavzusida matn tuzing. Uni imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozing.



## QO'SHIMCHALAR VA ULARNING IMLOSI BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

### *Savol va topshiriqlar*

1. Qo'shimchalar deb nimaga aytildi?
2. So'z yasovchi qo'shimchalarga misollar keltiring.
3. Shakl yasovchi qo'shimchalar deb nimaga aytildi?
4. *Olindi, erkin* so'zlari tarkibida kelgan qo'shimchalarning nimasi bilan bir-biridan farqlanishini aytинг.

14-mashq. Qavs ichida berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring va ularni izohlang. O'zingiz yashayotgan viloyatning go'-zalliklari haqida gapirib bering.

Bu olam (-ga, -da, -ni) men kezma (-kan, -di, -gan) yurt kam qoldi, — deb davom etdi Bobur o'y (-li, -chan, -siz) ohangda. —Ne-ne go'zal maskanlarni zabit etmadni (-ng, -m, -si)! Lekin hech yerda undek latofatlig' bir viloyat (-ning, -ni, -i) ko'rmadim. (X. Sultonov)

◆ 15-mashq. Quyidagi qo'shimchalarni jadvalga joylashtiring va ularni so'zlarga qo'shib, gap ichida keltiring.

-ta, -tadan, -tacha, -nchi, -ov, -ovlon, -ala, -ni, -ning, -la, -i, -y, -ar, -im, -ga, -ka, -qa, -dan, -nch, -inch

So'z yasovchi qo'shimchalar	Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar	Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar

16-mashq. Tagiga chizilgan qo'shimchalarning turini aniqlang va gaplarni ko'chiring, ilm haqida aytilan maqollarni toping.

Ilm-hunardan bahramand bo'lgan kishi barkamol insondir. O'qimishli, bilimdon, madaniyatli odam bilan johil, nodon, savodsiz o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Bu yorug' dunyoning go'zalligi, boyligi, betakror saxovati ilm-hunar peshvolarining borligi, adabiyot va san'atga rag'bat tufaylidir. «Olim bo'lsang, olam seniki», — deydi xalqimiz. (G'. Salomov)

17-mashq. *Uyga vazifa.* -oy, -loq, -cha, -choq, -li, -ning, -siz, -gacha, -guncha qo'shimchalarini so'zlarga qo'shib ko'ring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

N a m u n a: Tursunoy bilan bir sinfda o'qiyimiz.

## LEKSIKOLOGIYA BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

### *Savol va topshiriqlar*

1. *Meva, daryo, oy so'zlarini ko'chma ma'noda qo'llab gaplar tuzing.*
2. Atamalar deb nimaga aytildi?
3. Shevaga xos so'zlarga misollar keltiring.
4. Eskirgan so'zlar deb qanday so'zlarga aytildi?
5. O'zbek tiliga nima sababdan boshqa tillardan so'zlar o'zlashgan?  
Shu haqda o'z fikringizni bildiring.

18-mashq. Ko'chma ma'noda ishlatalgan so'zlarni topib, ularni izohlang.  
Siz ham o'z nutqingizda ko'chma ma'nodagi so'zlardan foydalanasisizmi?

1. Eski buloqning ko'zi ochildi. (*Sh. Rashidov*) 2. Soqchi ota-onam borligiga ishonmadi, shekilli, gapni aylantiraverdi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Qavm-qarindosh bir dasturxon boshida gurungni quyuq qildik. (*N. Normatov*) 4. Kemtik oy cho'qqilar orasidan mo'ralaydi. (*A. Narziqulov*) 5. Osmonda yulduzlar ko'p. Somon yo'li osmonning u tarafidan bu tarafiga kumush soyday oqadi. (*K. Qodirov*)

6. Tunov kun biznikida  
Bo'ldi kattakon hashar.  
Ko'chib keldi deyman-ov  
Hasharga butun shahar...  
Hashar rosa qizidi. (*Abdurahmon Akbar*)

19-mashq. O'zingiz o'qiyotgan tarix, algebra, adabiyot, geografiya, zoologiya fanlariga oid atamalarga misollar keltiring va ularni izohlang.

20-mashq. Nuqtalar o'rniiga quyida berilgan ma'nodosh so'zlardan moslini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Akmal aka ikkalamiz qoldik. Chigirkalarning chirillashini, muallaq turib qanot ... so'fito'rg'ayning issiqdan ... vijir-vijir demasa, atrof ... edi. Akmal aka xurjunga ... qo'yib birpas cho'zildi. Men ... o'tiribman. (*N. Fozilov*)

S o ' z l a r: ko'kda, osmonda, samoda, fazoda; silkitayotgan, qoqayotgan; shikoyat qilib, nolib; sayrashini, chug'urlashini; tinch, jimjit, osuda; boshini, kallasini; qoshida, oldida, yonida.

21-mashq. *Uyga vazifa. Muarrix* (tarixchi), *mutarjim* (tarjimon), *shuarlo* (shoirlar), *handasa* (geometriya) so'zlarini qatnashtirib gaplar tuzing.

N a m u n a:

Muhammad al-Xorazmiyning handasa ilmiga oid yozgan asarlari hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

## FE'L SO'Z TURKUMI BO'YICHA Q'TILGANI ARNI TAKRORLASH

### *Savol va topshiriqlar*

1. Fe'llarning grammatic xususiyatlari haqida so'zlab bering.
2. -ma, emas, yo'q vositalari yordamida bo'lishsiz fe'lllar yasang.
3. Fe'l nisbatlarini yasovchi qo'shimchalar qaysilar?
4. Fe'l mayllari qanday hosil qilinadi?
5. *Yugurmoq, ekmoq, qaramoq* fe'lllarini uch zamon shakllari bilan o'zgartiring.
6. Harakat nomiga xos belgilarni aytинг.
7. Ravishdosh yasovchi qo'shimchalarni sanang.
8. Sifatdoshlarga misollar aytинг.
9. Sodda, qo'shma, juft fe'llarga misollar keltiring.

22-mashq. Matnni o'qing, fe'llarni topib, ularning mayl, nisbat, zamon shakllarini belgilang. Oxirgi gap bo'yicha bahslashing.

... Alisher o'rtog'inining aytganini eshitmadni, shekilli:

— Ov qilmoq, merganlik — ermak narsa, lekin eng zo'r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko'p sirlarini maktab o'r-gatadi.

Suhbatning bunday keskin o'zgarganidan shoshib, bir on jim qolgan bolalarning kattarog'i:

— Kim o'rgatdi senga bu gaplarni? — deb so'radi Alisherga tik qarab.

— Bilaman-da, otam hamisha: «Olim odam xor bo'l-maydi», — deydlar. (*Oybek*)

23-mashq. Ajratib ko'rsatilgan qo'shimchalarga ta'rif bering.

Hayitvoy o'rtog'imnikiga kirmadim. Murodxonlarnikiga qamib yurdim. Shu o'rtog'im juda yaxshi-da! Lekin sizlab gapiradi, men ham sizlayman. Keyin-chi, otalarini «dada» deb chaqirishadi.

Murodxonga: — Jon o'rtoq, bedanalarni qo'yib yuboraylik, onalarining oldiga borishsin, bizni duo qilishadi, — degandim, darrov rozi bo'lib, uylaridan katta qaychi olib chiqdi. (*X. To'xtaboyev*)

♦ 24-mashq. Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turini aniqlab, jadvalga joylashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Berdi-qo'ydi, sotib olmoq, sotmoq, yuzlanmoq, o'lchamoq, qaltiramoq, irg'ishlamoq, qo'zilamoq, uyqusiramoq, ko'karmoq, burmoq, qo'l urmoq, xatlamoq, kulmoq, javob bermoq, nazar solmoq, olib chiqmoq, aytdi-qo'ydi, sindi-qoldi.

Sodda fe'llar

Qo'shma fe'llar

Juft fe'llar

25-mashq. *Uyga vazifa.* Boshqotirmani yeching. Maqoldagi fe'l shakllariga izoh bering. Undagi fikrga qo'shilasizmi?

- 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14

1, 2, 3, 4, 5 — rangli, nodir metall nomi.

6, 7, 8, 9 — meva nomi.

10, 11 — hafta boshlanuvchi kun nomining birinchi bo'g'ini.

12 — alifbodagi 14-harf.

13, 14 — qizil so'zining ma'nodoshi.

## OT, SIFAT SO'Z TURKUMLARI BO'YICHA OT'LIGANLARNI TAKRORLASH

### *Savol va topshiriqlar*

1. Otlarda kelishik qo'shimchalari qanday ishlataladi?
2. Otlarda egalik qo'shimchalari va ularning imlosi haqida so'zlab bering.
3. Otlar qanday yasaladi?

4. Otlarning ma’no guruuhlariga misollar keltiring.
5. Qo’shma, juft, takroriy otlar va ularning imlosi haqida gapiring.
6. Asliy va nisbiy sifatlar haqida so‘zlab bering.
7. Sifat darajalariga misollar keltiring.
8. Sifatlar otlashganda qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kela oladi?

**26-mashq.** *Gaplarni o‘qing.* Yasama otlarni aniqlab, ularning yasalishini tushuntiring. O‘zbekistonni nima uchun «serquyosh o‘lka» deymiz? Shu haqdagi fikrlaringizni aytib bering.

Iqbolxonning ish stolidagi mitti guldondasov uqidan ochilmay qolgan atirgulning ikki dona g‘unchasi turar edi. (*S. Zunnunova*)

O‘zbekiston – go‘zal diyor,  
Saodatga mehnati yor.  
O‘zgacha bir hikmati bor,  
Halollikka aytar alyor!

(*Yo‘ldosh Sulaymon*)

**27-mashq.** *Gapiarni ko‘chiring.* Sifatlarning ma’no guruuhlarini va gapdagi vazifasini aniqlang. Yaxshilik va yomonlik haqida bilganlaringizni gapirib bering.

1. Yaxshi so‘z bilan ilon inidan chiqar. 2. Do‘siti nodondan dushmani ziyrak yaxshi. 3. Qomati baland bo‘lgan har kishining qimmati ham baland emas. 4. Yomon kishilarga hamroh bo‘lsang, qozonga o‘xshab qorasini yuqtiradi. 5. Nodonga pand aytsang, qafasga shamol yuborgan bilan teng bo‘ladi. (*Sa’diy hikmatlaridan*) 6. Bek dono, botir, sheryurak bo‘lishi lozim. Uning bilimli, zakovatlari, mulohazakor bo‘lishi taqozo etiladi. Ochiq yuzlilik bekning yaxshi fazilatlaridan biri. (*Yusuf Xos Hojib*)

**28-mashq.** *Uyga vazifa.* «Sog‘ tanda sog‘lom aql» mavzusida matn tuzing. Unda qo‘llangan ot va sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlariga e’tibor bering.

## SON VA RAVISH SO‘Z TURKUMLARI BO‘YICHA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

### *Savol va topshiriqlar*

1. Sonlarga egalik va kelishik qo‘sishchalarini qo‘sib ko‘ring.
2. Sodda, qo‘shma va juft sonlarga misollar aytинг.
3. Sonlarning imlosi haqida so‘zlang.
4. Ravishning qanday ma’no turlari bor?
5. Ravishlarning yasalishi haqida so‘zlang.
6. Sodda, qo‘shma, juft va takroriy ravishlarga misollar keltiring.

✓ 29-mashiq. Matnni o‘qing. Sonlarning ma’no turlarini aniqlang.

Muhammad al-Xorazmiy 873-yilda Xorazmda tavallud topgan. U algebra va geometriya, geografiya kabi fanlarning rivojiga munosib hissa qo‘shtigan.

Muhammad al-Xorazmiyning «Al-jabr» kitobi uch bo‘limdan iborat. Unda oltmishdan ortiq murakkab masalalarni tenglama yordamida yechish yo’llari ko‘rsatilgan.

Asar 1145-yili R. Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. «Al-jabr» so‘zi «algebra», Al-Xorazmiy esa «algoritm» deb atalgan. (S. Ahmedov)

30-mashiq. Gaplarni ko‘chiring, ravishlarni aniqlab, ularga izoh bering. Kamtarlik haqida fikrlashing.

1. Dushmaningiz bilan tortishayotganingizda ham ochiq-chasiga va mardlarcha fikr bildiring. (A. Abdullayev)
2. Barcha maqtanchoqlarning birdan bir qismati shuki, ular ertami-kechmi pand yeyishadi. (V. Shekspir)
3. Kishi o‘z fazilatlari haqida qancha kam bilsa, bizga shuncha yoqadi. (R. Emerson)
4. Xalq ahvoldidan doimo boxabar bo‘l. (Amir Temur)
5. Birdan koridorning narigi chetida kimningdir tez yurib kelayotgani eshitildi. (P. Qodirov)
6. Olmaxon yerdan ko‘ra daraxtda tezroq yugurar ekan. (S. Maxsumov)

31-mashiq. Uyga vazifa. «Buyuk allomalar yurti» mavzusida matn tuzing. Unda son va ravish so‘z turkumiga oid so‘ziardan foydalaning.

## MA'ENDA KO'P MA'NOLI, MA'NODOSH SO'ZLARDAN FOYDALANISH

**1-topshiriq.** Matnni ko'chiring, unda ishlatilgan «unmoq» va «o'smoq» so'zlariga izoh bering.

Tuproqning eng katta hikmati shundaki, unda har qanday urug' unadi, o'sadi, kamol topadi. Adabiyot ham shunga o'xshaydi. Unda ham eng go'zal fikrlar va tuyg'ularning unib-o'sishini ko'rasiz. (*Eshqobil Shukur*)

**2-topshiriq.** Kuch borki, hayot borki, oldinga intilib yashamog'imiz kerak. (*E.Vohidov*) Gapdag'i «hayot» so'zi o'mnda «umr», «oldinga» so'zi o'mnda «olg'a» so'zlarini ishlatib bo'ladimi? Shu haqda fikrlashing.

**So'zlarning o'z yoki ko'chma ma'noda ishlatilayotgani matn ichida bilinadi. Ko'p ma'noli va ma'nodosh so'zlardan foydalananish matnnning ta'sirchanligini, ifodaviyiligini oshirish uchun xizmat qiladi.**

**32-mashq.** Matnni ko'chiring. Unda ishlatilgan ko'p ma'noli so'zlarini izohlang.

Yuzning kulib turishi unchalik qiyin ish emas. Muhimi, ko'ngil kulib turishi kerak. Kimning ko'ngli kulib tursa, odamlar: «Istarali ekan!», — deyishadi. Bu «yulduzi issiq odam» degani. Men hamsuhbatlarimga ana shu saodatni tilayman. (*Tohir Malik*)

**33-mashq.** Gaplarni o'qing. Ularda ishlatilgan ko'chma ma'nodagi so'zlarini toping va ularning gapdag'i o'rnini izohlang.

1. Kumush qishdan, zumrad bahordan Qolishmaydi kuzning ziynati. (*Uyg'un*) 2. Onaning qalbi – mehr bulog'i. (*Maqol*)
3. Ona kabi mehribon, Ilm-fanlarga makon, Yayrab o'qiyman har on, Qadrdonim mактабим! (*Ilyos Muslim*) 4. Odam borki, odamlarning naqshidir, Odam borki, hayvon undan yaxshidir. (*Alisher Navoiy*) 5. Bunday puch gaplarga ukasi ko'nmabdi. (*«Tegirmончи» ertagi*) 6. O'zbekiston – hur Vatan, Baxtimiz ayvonidir. Armiyamiz mustahkam, Ona yurt qalqonidir. (*Dil-*

*shod Rajab) 7. Maktabiga kechikib, borar emish ba'zida. Vuzifani bajarmay, Qizararmish darsida. (Po'lat Mo'min) 8. Qo'-pol xatoga yo'l qo'ymaslik uchun yetti o'lchab, bir kesish kerak. (A. Xidirov) 9. Men uning sovuq qiliqlariga qarab turib, yoshlikdagi bir o'rtog'imni eslab ketdim. (Said Ahmad)*

◆ 34-mashq. *Qavs ichidagi ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib, gaplarini ko'chiring va matnda ma'nodosh so'zlardan foydalanishning ahamiyati haqida so'zlang.*

1. (Tafakkur qilish, o'ylash, fikrlash) to'xtagan joyda tanazzul boshlanadi. 2. (Luqma, yemish)ning halolligi iymonning mustahkamligida. 3. Yolg'on bilan (chin, rost) do'stlashgan manzildaadolat bo'lmaydi. 4. Yaxshilik va yomonlik eshiklarini (inson, odam, kishi) o'z ixtiyori bilan ochadi. 5. Xo'jasining gaplarini takrorlashni puxta o'zlashtirib olgani bilan to'tiqush (ma'ruzachi, voiz) ga aylanib qolmaydi. (I. Mamanov)

35-mashq. *Ozodlik, mustaqillik, erkinlik; baland, yuqori, yuksak; tez, jadal so'zları ishtirokida matnlar tuzib, ma'nodosh so'zlarning ishlatalish o'rinnariga izoh bering.*

### *Savol va topshiriqlar*

1. Ko'p ma'noli so'zlar ishtirokida «O'lkamizga oltin kuz keldi» mavzusida matn tuzing.
2. «Ona yerning saxovati» mavzusida matn tuzing va unda ma'nodosh so'zlardan foydalaning.

36-mashq. *Uyga vazifa. Ko'p ma'noli va ma'nodosh so'zlardan foydalanimib «Do'st – insonga qanot» mavzusida matn tuzing.*

## **SHAKLDOSH, QARAMA-QARSHI MA'NOLI SO'ZLARDAN FOYDALANISH**

*1-topshiriq. Ot, o't, yer, bor, tor shakldosh so'zları ishtirokida matnlar tuzing va ularning ishlatalish o'rinnariga izoh bering.*

*2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qarama-qarshi ma'noli juftlarini toping. Ularni almashtirib qo'llash mumkinmi? Shu haqda filkr bildiring.*

*Haqiqiy ijodkorning vijdoni va imoni o'zi tug'ilib o'sgan yurt kamoli, o'zi mansub xalqning quvonch-tashvishlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. (Sh. Bo'tayev)*

 **Shakldosh so‘zlarning ma‘nosi matn ichida oydin-lashadi. Matnlarda shakldosh va qarama-qarshi ma‘noli so‘zlardan foydalanish nutqning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.**

 **Matnni o‘qing, shakldosh so‘zlarning ishlatalish o‘rinlariga diqqat qiling, ma‘nosini izohlang. Tagiga chizilgan so‘zlarning zid ma‘noli juftini toping.**

1. Yurtimizda ko‘plab yaxshi insonlar bor. Yaxshilik tilasang, ularning huzuriga bor. 2. Halol topgan inson og‘rinmasdan yer. Mehnat qilsang, har qanday yerdan mo‘l hosil olish mumkin. 3. Qo‘lingdan kelsa, barcha insonlarga yaxshilik qil. Do‘stlar shunday bo‘lsinki, orangizdan qil ham o‘tmisin.

 **She‘riy matnda ishlataligan shakldosh so‘zlarga e‘tibor bering. Ularning ma‘nolarini izohlang.**

Idish nuqsonlidir, gar bo‘lsa qadoq,  
Aslo ayb bo‘lmas qo‘ldagi qadoq.  
Ilmga bag‘ishlab o‘tkaz har onni,  
Aqling botmon bo‘lsin, vazning bir qadoq.


(A. Shukurov)

 **«Qo‘lingdan kelguncha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot...» satrlari bilan boshlanuvchi she‘riy matnning davomini aytинг. Tuyuq kimning qalamiga mansubligini aniqlang. Shoирning mahorati nimada ekanligini toping.**

 **O‘zbek xalq askiyalarini eshitganmisiz? Ularda ishlataligan shakldosh so‘zlarning ma‘nolariga diqqat qilganmisiz? Shu haqda sinfdoshlarining bilan fikrlashing.**

### *Savol va topshiriqlar*

1. «Oltin o‘tda bilinadi, odam – mehnatda» mavzusida matn tuzing. Matnda shakldosh so‘zlardan foydalaning.
2. *Katta, uzun, baland* so‘zlariga qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarni toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

 **Uyga vazifa. Mumtoz adabiyot namoyandalarining tuyuqlaridan namunalar aytинг. Shakldosh so‘zlarga izoh bering.**

# MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI HAQIDA MA'LUMOT

## OLMOSH SO'Z TURKUMI VA UNING TASNIFI

**1-topshiriq.** Berilgan gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'z-larning qaysi so'z o'rnida qo'llanilganini aniqlang.

1. Qizchaga biror narsa bo'lganini payqagan Alisher bor kuchi bilan **unga** qarab yugurdi. (*L. Bat*) 2. Hamid Olimjon o'z she'riyatida shunday kamolot darajasiga erishadiki, **u** so'zdan tanbur torlaridek turli pardalarda foydalananar, uni o'ynata, jaranglata bilardi. (*N. Karimov*) 3. Olim musobaqada g'olib chiqdi. **Bu** hammamizni quvontirdi.

**2-topshiriq.** Berilgan gaplarda takrorlangan so'zlar nimaga olib kelyapti? Ularni qaysi so'zlar bilan almashtirsa, to'g'ri bo'ladi? O'z nutqingizda shu kabi so'zlardan foydalanasizmi?

Lirika **shoir qalbining** yilnomasidir. **Shoir o'z qalbida** kechgan jarayonlarni aks ettirish orqali **o'z qalbining** tarixini yaratadi. Shoir zukko va zakiy inson bo'lganligi sababli hatto **shoirning** shaxsiy tuyg'ulari harakatida ham keng kitobxonlar uchun ahamiyatli ullaqanday nurli qirralar bo'ladi. **Shoir** lirkasidagi ana shu qirralar hali ham porloqdir. (*N. Karimov*)

**3-topshiriq.** Berilgan gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlang. Ularning ma'nolarini izohlang.

1. **Kim** ko'p o'qisa, **u** ko'p biladi. 2. Toshkentning **qayeriga** qaramang, hashamatli binolar qad rostlamoqda. 3. **Kim** nayzani uzukdan o'tkazsa, **o'sha** g'olib bo'ladi. (*Ertakdan*) 4. **Bu** yer sherlar makoni. (*Izzat Sulton*) 5. **Shuncha** qalamni nima qilasan?

Barcha mustaqil so‘z turkumlari, so‘z birikmasi va gap o‘rnida almashinib qo‘llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchi so‘zlar olmosh hisoblanadi. Masalan: *Kitobni ko‘p o‘qisangiz, undan ko‘p hikmat topasiz. Istagim shuki, doimo tinchlik bo‘lsin.*

Birinchi gapda *undan* olmoshi *kitob* so‘zi (ot) o‘rnida, ikkinchi gapda *shuki* olmoshi *doimo tinchlik* bo‘lsin gapi o‘rnida qo‘llanilgan.

Olmoshlarning aniq atash ma’nosi bo‘lmaydi. Uning qaysi ma’noda kelayotgani matnda qaysi so‘z yoki gap o‘rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.

Olmoshlarning ma’nosiga ko‘ra turlari:

Turlari	Olmoshlar
Kishilik olmoshlari	<i>men, sen, u; biz, siz (sizlar), ular</i>
O‘zlik olmoshi	<i>o‘z</i>
Ko‘rsatish olmoshlari	<i>bu, shu, u, o‘sha, ana, mana, mana bu, mana shu, manavi, anovi</i>
So‘roq olmoshlari	<i>kim? nima? qayer? qanaqa? qaysi? qalay? qancha? necha? nega?</i>
Belgilash olmoshlari	<i>hamma, barcha, bari, har bir, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi, ba’zi</i>
Bo‘lishsizlik olmoshlari	<i>hech kim, hech narsa, hech qachon, hech qanaqa, hech qaysi</i>
Gumon olmoshlari	<i>kimdir, nimadir, allakim, allaqanday, qaysidir, allanarsa, allaqancha, allaqaysi</i>

42-mashq. Daftaringizga jadval chizing va quyida berilgan olmoshlarni unga joylang. Ushbu olmoshlarning qaysilaridan ko‘p foydalanasiz? Shu haqda so‘zlab bering.

O l m o s h l a r: kim, nima, qayer, men, sen, o‘z, u, bu, shu, qanaqa, qanday, hamma, barcha, bari, kimdir, nimadir,

biz, siz, o'sha, ana, mana, hech kim, hech nima, har bir, har kim, har qanday, ular, nega, necha, mana bu, anovi.

43-mashq. Berilgan gaplarda qo'llangan olmoshlarning ma'no turlarini uniqlang. Birinchi gap bo'yicha bahs yuriting.

1. O'zi haqida o'ylamay, faqat elga bilim berish haqida o'ylagan olim kishi xuddi shamga o'xshaydi, u o'zini yondiradi va xalqni ziyoli qiladi. 2. Haqiqiy olim shunday kishiki, uning so'zi, o'yi, fikri va ishi bir xil bo'ladi. («Otalar so'zi») 3. O'zingdan o'zgadan marhamat kutma, o'zbek o'g'li, o'zligingni unutma! (*Iqbol Mirzo*) 4. Men fikrimni jamlab, hikoyamni boshladim. (*X. Sultonov*) 5. Bu hol odamni beixtiyor ajib o'ylarga g'arq qiladi. (*X. Sultonov*) 6. Bizda harakat qilgan odam yomon yashamaydi. (*Sh. Jabborov*) 7. Marhamat, biz sizni kutyapmiz, avvalgi joyingizda ishlayverasiz. (*Sh. Jabborov*) 8. Qani, ortimdan yur, senga aytadigan yana bir so'zim bor. (*O. Yoqubov*) 9. Nazir ota yuzlarida qandaydir tabassum bilan qutini tita boshladi. (*O'. Umarbekov*) 10. U yerda bo'lgan har qanday odam ruhan yengil tortib, kayfiyati ko'tarilishi muqarrar. (*Sh. Jabborov*)

♦ 44-mashq. O'qing. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, ko'chiring.

1. Yigit bechoraning rangi quv o'chib ketgan. ... lablari pir-pir uchadi. 2. Tog'am — tajribali yurist. ... ko'p ishlarni adolatli hal qilgan. 3. Hovlimizdagи qip-qizil lolalar yal-yal yonadi. ... lolalar hammaning havasini keltiradi. 4. Bizning sinfimiz musobaqada birinchi o'rinni oldi. ... o'ringa intilgan o'quv-chilar ko'p edi.

### Savol va topshiriqlar

1. Olmosh deb nimaga aytildi?
2. Olmoshlar qaysi so'z turkumlari o'rnida keladi?
3. Olmoshlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
4. Olmoshlar necha turli bo'ladi?
5. Otlar o'rnida almashib keluvchi olmoshlarga misollar aytинг.
6. Miqdor bildiruvchi so'zlar o'rnida qaysi olmoshlarni ishlatish mumkin?

**45-mashq** *Uyga vazifa.* Quyida berilgan gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘rniga mos olmosh qo’llab, gaplar tuzing.

1. Xudoyberdi To‘xtaboyev – bolalarning sevimli yozuvchisi.
2. Qiziqarli kitoblarni ko‘p o‘qish kerak.
3. Men bu yil yettinchi sinfni tamomlayman.

## KO‘RSATISH OLMOShLARI

**1-topshiriq.** *Bu, shu, u, o’sha* so‘zlarining har birini gap ichida keltiring.

**2-topshiriq.** Gap ichidagi olmoshlarning qanday gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.

Oldingi gap, gapdagi biron-bir so‘z, so‘z birikmasi o‘rnida qo‘llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so‘zni aniqlab keluvchi olmoshlar ko‘rsatish olmoshlari hisoblanadi.

So‘z ma’nosini aniqlab keluvchi olmoshlar o‘zi aniqlayotgan so‘zdan oldin qo‘llanadi. Masalan: *Bu daftар meniki.*

*Bu, shu, u, o’sha, ana, mana* kabi so‘zlar ko‘rsatish olmoshlari sanaladi.

**46-mashq** Ko‘chiring. Ko‘rsatish olmoshlarining tagiga chizing. Beshinchi gapdagi fikr bo‘yicha bahslashing.

1. Bu cholni butun yurt izzat qilardi. (*Said Ahmad*) 2. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o‘shaning bo‘ynida. (*X. To‘xtaboyev*) 3. Bu tushmi yo xayol, bu na turli kuy, Qayerdan bu qadar qushlar sayrashi? (*Zulfiya*) 4. Tog‘asining shu odati sabab o‘g‘li Haydar ham, qizi Tohira ham bu xonadondan bezib ketishdi. (*O. Yoqubov*) 5. G‘azab shunday bir daraxtki, mevasi pushaymonlikdan iborat. (*Samandar Termiziy*) 6. Dunyoda yagona tilagim shuki, Yaxshi nomi-

mpizga g‘ubor tushmasin. (*Mirtemir*) 7. Qishloq allaqachon uyg‘ongan. Har qaysi hovlining burchagida tunning baxmal pardasini parchalab o‘t yaltiraydi. (*O‘. Hoshimov*) 8. O‘scha iliq bahor kuni mavlono Qozizoda Rumiy uning peshanasi-dan o‘pgan edi. (*O. Yoqubov*)

**47-mashq.** Matnda qo‘llangan ko‘rsatish olmoshlarini izohlang.

Kitoblar – insoniyatning eng beabajo ma’naviy mulki, mislsiz xazinasi. Undan har birimiz foydalanishimiz, aqlimizni xohlaganimizcha uning dur-u javohirlari bilan to‘ldirishimiz mumkin. Undan kuch-quvvat olish, ma’naviyatimizni boyitish imkoniga egamiz. U shunday mo‘jizaviy xazinaki, qancha olsangiz ham bir qatrali kamaymaydi. Bu xazinaning kaliti qo‘l yetmas joyga ilingan emas. Uning kaliti – mutolaa. Bu kalit doimo sizning ixtiyoriningizda. Faqat kutubxonaga kirishga xohish bo‘lsa bas. (*D. Matkarimova*)

**48-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan olmoshlarni izohlang, ko‘rsatish olmoshlarini aniqlab, ular ishtirokida qayta gaplar tuzing va yozing. Tagiga chizilgan gapni davom ettiring.

Biz kelajagi buyuk Vatanning farzandlarimiz. Bu Vatan bllzning qadimiylar tuprog‘imiz. Asrlar qa‘ridan kelayotgan munavvar tonglarga ko‘krak ochgan o‘z diyorimiz. Biz uni sevamiz, ardoqlaymiz. Uning qudrati, shon-shuhrati, erk-u farovonligi yo‘lida xizmat etish bilan baxtlimiz. (*B. Shodiyeva*)

**Savol va topshiriqlar**

1. Ko‘rsatish olmoshlari qaysilar?
2. Ko‘rsatish olmoshlari qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Uzoqdagi va yaqindagi narsalarni ko‘rsatish uchun qaysi olmosh-lardan foydalanamiz?

**49-mashq.** Uyga vazifa. Badiiy asarlardan ko‘rsatish olmoshlari qat-nashgan o‘nta gap topib yozing.

## KO'RSATISH OLMOSHLARINING TALAFFUZI VA IMLOSI

**1-topshiriq.** Ko‘chiring. Ko‘rsatish olmoshlarini toping. Ularning tuzilishiga e’tibor bering.

1. Niyatimga yetaman, mana bu to‘polonlar o‘tib olsin-chi...—derdi u Onabibiga. (*Asqad Muxtor*). 2. Ehsonning Moskvaga ketishi mana shu kунlarga to‘g‘ri keldi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Voy, manavi bolaning shirinligini! — Parcha xola do‘rillab xitob qildi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Anavini qara-ya, o‘zimizning to‘pori Zebimi shu? (*Said Ahmad*) 5. Mana buni aytsa bo‘lar Eng oliv, zo‘r muammo! O‘rab oldi uni beshov, Miq etmasdi u ammo. (*A. Oripov*) 6. Mana bu fikringizga jonlar tasadduq bo‘lsin! — qichqirdi Sultonmurod. (*Oybek*)

**2-topshiriq.** Yuqoridagi olmoshlarning qanday yozilganini aying.

**3-topshiriq.** *Men, sen, u, bu, shu* olmoshlariga kelishik qo‘sishchalarini qo‘sning. Asos bilan qo‘sishchacha o‘rtasida qanday o‘zgarish bo‘layotganini aying.

**4-topshiriq.** Gapni o‘qing, ko‘rsatish olmoshini topib, unga izoh bering. Shu kabi hikmatli so‘zlarga misollar keltiring.

Ilmsizga to‘g‘ri so‘z ma’nosizdir, unga o‘git-nasihat foydasizdir. (*Ahmad Yugnakiy*)

**Yozuvda *mana bu, mana shu, ana bu, ana shu* olmoshlari ajratib yoziladi. Ba’zan bu olmoshlar og‘zaki nutqda *manovi, anovi* tarzida talaffuz qilinishi va shunday yozilishi mumkin.**

Ba’zi ko‘rsatish olmoshlariga egalik va jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘sishchalarini qo‘shilganda, «n» tovushi orttiriladi: *shu+n+ga, bu+n+da, bu+n+im, o‘sha+n+ga* kabi.

**50-mashq.** Quyidagi olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing.

Bu, shu, o‘sha, mana bu, mana shu, ana u, ana shu.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Ko'rsatish olmoshlari deb qanday olmoshlarga aytildi?
2. -cha qo'shimchasini *u*, *bu*, *shu* olmoshlariga qo'shing va sodir bo'layotgan tovush o'zgarishi haqida so'zlab bering.
3. *Ana shu, mana shu* olmoshlarining talaffuzi va imlosi haqida so'zlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

**51-mashq.** *Uyga vazifa.* O'qing. Ko'rsatish olmoshlarini topib, ma'nosini nytib bering. Ular tarkibidagi tovush o'zgarishlarini tushuntiring. Ajratilgan gap bo'yicha bahslashing.

1. Siz bolalik qilib bunaqa xomxayollarga borib yurmang. (*Abdulla Qahhor*) 2. Men xalq oldida sizning iltimosingizga shunday javob bermoqqa majbur bo'ldim. (*Oybek*) 3. U bunday jur'atni va hayotiy tasavvurni eng avval ota-onasining muhabbatidan olishi kerak edi. (*P. Qodirov*) 4. – Bunaqa narsa menga ta'sir qilmaydi, – dedi Mastura. (*Abdulla Qahhor*) 5. Shunaqa gaplardan qachon qutulamiz? (*Abdulla Qahhor*) 6. Kitobi bor uyning oftobi bor. Bunday uyning ostonasidan jaholat hatlamaydi. (*Qo'chqor Norqobil*) 7. O'sha-o'sha bujur tol. Shoxchalarida hanuz qushlar chug'urlashyapti. (*Isajon Sultan*)
8. Tinchlik deya yurak-bag'ri kuyuk eldir bu,  
Yaratganning qoshida eng suyuk eldir bu,  
O'tmishi ham, ertasi ham buyuk eldir bu,  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagil sen!

(Iqbol Mirzo)

## KISHILIK OLMOShLARI

**1-topshiriq.** *Men, sen, u, biz, siz, ular* olmoshlarining har biri ishtirokida gaplar tuzing.

**2-topshiriq.** Gap ichida keltirilgan olmoshlarning qaysi biri ma'nosini bilan bir xil, qaysisi ma'nolari bilan farqlanishini izohlang.

**3-topshiriq.** Keltirgan misollarining qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.

Uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar kishilik olmoshlari hisoblanadi.

So'zlovchi birinchi shaxs, tinglovchi ikkinchi shaxs, nutqdan tashqari barcha shaxs, narsa, voqeа-hodisalar o'zga, ya'ni uchinchi shaxs sifatida qaraladi.

*Men, biz* birinchi shaxs, *sen, siz* ikkinchi shaxs, *u, ular* uchinchi shaxs kishilik olmoshlari hisoblanadi. Bulardan *men, sen, u* birlik, *biz, siz (lar), ular* ko'plik ma'nosini bildiradi.

Ba'zan *biz, siz, ular* birlik ma'nosida ham qo'llaniladi. *Biz* birlik ma'nosida qo'llanganda, kamtarlik, bajargan ishida o'zini ta'kidlamaslik ma'nosini bildiradi. Masalan: *Mening uyim o'rniغا Bizning uyimiz. Men g'olib chiqdim o'rniغا Biz g'olib chiqdik.*

Shuningdek, *siz, ular* yakka shaxsga ishora qilib, hurmat ma'nosini ham bildiradi. Masalan: *Sen kelding o'rniغا Siz keldingiz, U keldi o'rniغا Ular keldilar. Siz* hurmat ma'nosini bildirganda, ko'pincha ko'plik ma'nosini ifodalash uchun unga *-lar* qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: *Sizlarga doimo baxt yor bo'lsin.*

52-mashq Berilgan jadvalni kataklarga mos olmoshlarni qo'yib, to'ldiring.

shaxs	son	birlik	ko'plik
1-shaxs			
2-shaxs			
3-shaxs			

◆ 53-mashq: *Men, sen* olmoshlariga *-ni, -ning, -ga, -da, -dan, -niki* qo'shimchalarini qo'shing. *-ni, -ning, -niki* qo'shimchalari qo'shilganda, asosning tovush tarkibida qanday o'zgarish bo'layotganini aytинг.

*Men, sen* olmoshlariga *-ni, -ning, -niki* qo'shimchalari qo'shilganda, talaffuzda bir *n* tovushi tushib qoladi va shunday yoziladi.

**54-mashq.** Ko‘chiring. Kishilik olmoshlarini topib, ularning yozilishiga o‘tibor bering. Qo‘sishimcha qo‘shilishi bilan sodir bo‘lgan tovush o‘zgarishlarini bilib oling. «Vatanning asl farzandi» deganda kimlarni tushunisz? Shu mavzuda munozara uyushtiring.

1. Mening og‘am ichinda, Soqollari tashinda (makkajo‘xori).
2. Iloji bo‘lsa, unga bildirmaylik. (*Cho ‘Ipon*) 3. To‘ybekanining shuningdek hangamalari boshqa vaqtarda Kumushni yaxshigina kuldirsса ham, hozir unga yotishib kelmadi. (*Abdulla Qodiriy*).
4. Anovi kungi yosh mehmonni senga maqtasam, achchiqlanding, ammo kelib-kelib bu kun seni o‘sanga berdilar. (*Abdulla Qodiriy*) 5. Sening qancha puling bor edi? – deb so‘radi mirshab sho‘rlik kosib yigitdan. (*G‘afur G‘ulom*) 6. Mustaqillik bizga milliy ma’naviyat olamini ochib berdi. (*J. Razzoqov*)

7. Sen hali beqiyos bo‘ston bo‘lgaysan,  
Bulbullar bazmida doston bo‘lgaysan,  
O‘zbekiston, mangu yashnab kulgaysan –  
Sening mehring bilan yashaymiz, Vatan!

(A. Ko‘chimov)

8. Asl farzand merosiga posbon bo‘lgay,  
Ozod elning orzulari osmon bo‘lgay,  
Bobolarim ismin aytsam doston bo‘lgay,  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
O‘zbekiston, ota makon, ona tuproq!

(Iqbol Mirzo)

**55-mashq.** She‘rni o‘qing. Undagi g‘oyani qayta hikoya qilib bering.  
She‘rdagi qaysi olmoshlarning o‘rniga boshqasini qo‘llash mumkin?

O‘zimni moziyning bag‘riga urdim  
Va shu on shukrona aytib qaytdim men.  
Kimdir ko‘rmay ketgan baxtni men ko‘rdim,  
Kimdir aytmay ketgan so‘zni aytdim men.

Meni kutayotir ajib kelajak,  
U mening iqbolim, mening baxtimdir.  
Men ko‘rmagan baxtni kimdir ko‘rajak,  
Men aytmagan so‘zni aytajak kimdir. (A. Oripov)

## Savol va topshiriqlar



1. Kishilik olmoshlari deb nimaga aytildi?
2. Kishilik olmoshlari qaysilar?
3. Kishilik olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

56-mashq. *Uyga vazifa.* Kishilik olmoshlarini qatnashtirib, «Maktabimizda gullar bayrami» mavzusida matn tuzing.

## O'ZLIK OLMOSHI

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi o'z so'zining ma'nosini aniqlang. Ajratib ko'rsatilgan gapdagisi fikrga hayotingizda amal qilasizmi?

1. O'zga yurtda shoh bo'lgandan ko'ra o'z yurtingda gado bo'lgan afzal. (*Maqol*)
2. Biz o'z tuprog'imizni ko'z qorachig'idek asraymiz.
3. O'zimga o'zim gapira boshladim.
4. O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil. (*Maqol*)
5. Yutuqlar o'zimizni.

**2-topshiriq.** Yuqoridaagi gaplarda o'z so'zi qanday gap bo'laklari vazifasida kelayotganini aytинг.

**3-topshiriq.** *O'zim, o'zing, o'zi* olmosh shakllarini *men, sen, u* olmoshlariga bog'lab, birikma hosil qiling.

N a m u n a: Mening o'zim.

Kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanilib, ko'pincha shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatuvchi o'z so'zi o'zlik olmoshi sanaladi.



*O'zim, o'zing, o'zi* so'zlari ba'zan egalik qo'shimchalariga mos kishilik olmoshlari bilan *mening o'zim, sening o'zing, sen o'zing, uning o'zi, u o'zi* tarzida qo'llanadi va bu vaqtida ko'pincha kishilik olmoshlariga ta'kid ma'nesi yuklanadi.

57-mashq. Ko'chiring. O'zlik olmoshi kimning yoki nimaning ma'nosini ta'kidlayotganiga e'tibor bering.

1. O'zi bukur, Tishi o'tkir, Dehqonga o'rtoq, Nomi-chi ... (o'roq).
2. O'zi po'latdan, Dumi yog'ochdan (ketmon).

3. O'zni sezib pahlavonday, ulg'ayib zo'r kuchga to'ldim, o'zim xohlab, askar bo'ldim. (*Dilshod Rajab*) 4. Rostini aytSAM, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. (*X. To'xtaboyev*) 5. O'zi dumaloq, Qor kabi oq (tuxum). 6. Baxtsizliging sirini bosh-qalardan emas, o'zingdan izla. Hammadan avval o'zingga hisob ber. 7. O'zini hurmat qilmagan odamdan yaxshilik lutma. («*Otalar so'zi*») 8. Ko'rmagaysiz o'zini, Eshitasiz so'-zini (*radio*).

◆ **58-mashq.** O'zlik olmoshini qatnashtirib gaplar tuzing. Tuzgan quplaringizdagi o'zlik olmoshlari o'rniga kishilik olmoshlarini qo'yib ko'ring.

**59-mashq.** Tarkibida o'zlik olmoshi qo'llangan topishmoqlarga misol-lar ayting.

N a m u n a: O'zi pishiq,  
Burni qiyshiq (no'xat).

#### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. O'zlik olmoshi deb nimaga aytildi?  
2. O'zlik olmoshi ishtirokida gaplar tuzing.  
3. O'zlik olmoshini qaysi olmoshlar o'rnida ishlatish mumkin?

**60-mashq.** *Uyga vazifa.* O'qing. Gaplarda qo'llangan o'zlik olmoshining ma'nolarini izohlab bering.

1. O'zining ovozi o'ziga uzoqdan eshitilganday tuyuldi. (*Abdulla Qahhor*) 2. O'zim ham hayronman. (*Cho'lpon*) 3. Qimirlamang, biroz o'zingizga keling, — dedi yigit mehribonlik bilan, — uyingizga o'zim kuzatib qo'yaman. (*S. Zunnunova*) 4. Qurvonbibi fotiha to'yidan keyin biroz o'ziga kelgan edi. 5. Bu ishlarni qilgan o'zi. (*Cho'lpon*)

## SO'ROQ OLMOShLARI

**1-topshiriq.** So'roqni bildiruvchi so'zlar o'mniga qavsda berilgan so'zlardan birini qo'ying.

1. Kim shaxmat to'garagiga qatnashadi? (*Vali, men, o'rtog'im, sinfimiz*) 2. Dunyoda nima kuchli? (*shamol, aql, uyqu*) 3. Sinfingizda nechta o'quvchi bor? (*yigirmata, o'titzta*) 4. Siz nechanchi sinfda o'qiy siz? (*yettinchi*)

**2-topshiriq.** So'roqni bildiruvchi so'zlar ishtirok etgan gaplar qanday gap, so'roq o'mniga uning javobi ishtirok etgan gaplar qanday gap ekanini aytинг.

**3-topshiriq.** Quyidagi so'roqlarning nimalarni aniqlash uchun berilishini aytинг.

Kim?, nima?, qachon?, qayer?, qaysi?, qanday?, nega?, qancha?

**Shaxs, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, miqdor, sabab, maqsad, o'rinni, payt haqida so'roqni bildiruvchi olmoshlari so'roq olmoshlari sanaladi.**

**61-mashuq.** Quyidagi jadvalni tegishli so'roq olmoshlari bilan to'l-diring.

So'roq turlari	Olmoshlar
Shaxs so'rog'i	
Narsa-hodisa so'rog'i	
Belgi-xususiyat so'roqlari	
Miqdor so'roqlari	
Sabab-maqsad so'roqlari	
O'rinni joy so'roqlari	
Payt so'roqlari	

**So'roq olmoshlari ishtirok etgan gaplar so'roq gap hisoblanadi. Bunday gaplar so'roq ohangi bilan ta-laaffuz qilinadi va yozuvda gap oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi: Siz qaysi kitoblarni o'qigansiz?**

62-mashq. Ko‘chiring. So‘roq olmoshlarining tagiga chizib, tepasiga so‘roq turini yozib qo‘ying. O‘z nutqingizda qachon qaysi so‘roq olmoshlardan foydalanasiz?

1. Nega uni otdami, aravadami eltidib qo‘ymadi? (*Abdulla Qahhor*) 2. Mukarrama, ular kim ekan? 3. Kechagi gaplardan keyin qaysi yuzi bilan boradi? (*Asqad Muxtor*) 4. Nima ishlari bor ekan? — so‘radi Zulayho xola. (*G‘afur G‘ulom*) 5. Xudoyo, tavba qildim, bu qanday kun? Yo qudratingdan, bu qanday odam? (*Abdulla Qahhor*) 6. Nega mucha g‘amgin nayning navosi, nega qalbim to‘la o‘kinch va malol? (*A. Oripov*) 7. — Kimga sovg‘a qilmoqchisiz, yoshi nechada? — dedim. — Onamga, tug‘ilgan kuniga sovg‘a qilmoqchi edim. (*A’zam Ismoil*) 8. Ilm va odob — tagi yo‘q xazina. Kimki unga ega bo‘lsa, qadr-u qiymati baland bo‘ladi. («*Otalar so‘zi*») 9. — Qanaqa o‘rik? — Erkin aka yelkasini qisib qo‘ydi-da, nari ketdi. (*O’. Hoshimov*)

63-mashq. Quyidagi savollarga yozma javob yozing. So‘roq olmoshlarining ishlatalishiga e’tibor bering.

1. To‘g‘riso‘zlik, poklik va muloyimlik deganda nimani tu-shunasiz? 2. Qanday fazilatlar insonga ziynat bag‘ishlaydi? 3. Yoshlar qanday xislatlarga ega bo‘lmog‘i kerak? 4. Siz hayotda qanday kishilarga ergashasiz? 5. Mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, samimiylilikning nima ekanini bilasizmi? 6. Bunyodkorlik, yaratuvchanlikning ma’nosi nima? 7. Sizning hayotingizda qaysi kitoblar chuqur iz qoldirgan? 8. Siz istiqomat qilayotgan joyda qanday binolar qurib bitkazildi?

◆ 64-mashq. *Qalay, qancha, qachon, qanday* so‘roq olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

### Savol va topshiriqlar

- 1. So‘roq olmoshlari deb nimaga aytildi?
- 2. So‘roq olmoshlariga qanday qo‘sishchalarni qo‘sish mumkin?
- 3. So‘roq olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

**65-mashq.** Sinfda ikki guruh hosil qiling. Birinchi guruh so‘roq olmoshlari ishtirokida so‘roq gaplar tuzsin. Ikkinci guruh bu so‘roq gaplarga javob bersin. So‘roq yoki javob berolmay qolgan guruh yutqizgan hisoblanadi.

N a m u n a: Birinchi guruh: Bir yilda necha kun bor?  
Ikkinci guruh: Bir yilda 365–366 kun bor.

**66-mashq.** Uyga vazifa. So‘roq olmoshlari ishtirokida «Saxovatli kuz» mavzusida matn tuzing.

## BELGILASH OLMOSHLARI

**1-topshiriq.** Berilgan gaplarda *har* so‘zining qaysi so‘zlar bilan bog‘langanini aniqlang. Ma’nosini izohlang.

1. Har kim ekkanini o‘radi. (*Magol*) 2. Har narsaga jahl qilavermaslik kerak. 3. Ovozi har qachongidan ham ta’sirliroq edi. 4. Yutuqlaridan har qancha maqtansa, arziydi. 5. Har bir inson o‘z baxti uchun kurashadi.

**2-topshiriq.** Berilgan gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlashga harakat qiling.

1. Butun xalq yopirilib, Katta Farg‘ona kanalini qazdik. (*Hamid Olimjon*) 2. Hamma hasharga qatnashdi. 3. Sinfimizdagi **barcha** o‘quvchilar sport to‘garaklariga qatnashadilar.

**!** *Har so‘zi so‘roq olmoshlariga, bir so‘ziga qo‘shilib to‘pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradigan belgilash olmoshlarini hosil qiladi.*

*Hamma, barcha, bari, butun olmoshlari esa shaxs, narsa, belgi, harakatlarni jamlab ifodalaydi.*

*Demak, to‘pdan ajratilgan yoki jamlab ko‘rsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni ifodalaydigan olmoshlar belgilash olmoshlari sanaladi.*

**67-mashq.** Ko‘chiring. Belgilash olmoshlarini toping. Gaplarda yana qaysi olmoshlar qo‘llangan? Oxirgi gap bo‘yicha fikr bildiring.

1. Agar u guzardan hassasini do‘qillatib o‘tib qolsa, hamma barobar qalqib, to o‘tib ketguncha ta’zimda turardi. (*Said*

*Ahmad*) 2. Har bir bekning navkarlari o‘zlariga qarashli yuklarni tuya qo‘shilgan og‘ir aravalarga ortib kelmoqda edilar. (*P. Qodirov*) 3. Hamma nopol, hamma egri, yolg‘iz siz to‘g‘ri. (*O. Yoqubov*) 4. Aybdor o‘zi har bir savolga bergan javobi bilan jinoyatini iqror qildi. (*Cho‘pon*) 5. Bu gapning butun dahshati shu topda bilindi. (*Said Ahmad*) 6. Hamma narsa oiladan boshlanadi. Kitobxonlik ham. (*M. Azizov*) 7. Har kimki so‘zi yolg‘on, yolg‘oni zohir bo‘lg‘och, uyolq‘on. (*Alisher Navoiy*) 8. Har bir so‘zning o‘z o‘rni bor, har bir ishning o‘z mavridi. («*Otalar so‘zi*»)

✓ **68-mashq.** O‘qing. Belgilash olmoshlarini toping. Ajdodlarimizning jahonda tutgan o‘rni haqida gapirib bering.

1. O‘g‘limning har bir holidan xabar olib turish sening vazifangidir. (*A. Qodiri*) 2. Hamma perronda. Hamma o‘z jigarini qidiradi. (*Said Ahmad*) 3. Barcha shodlik senga bo‘lsin, boritam, zorlik menga, Barcha dildorlik senga-yu, barcha xushtorlik menga. (*E. Vohidov*) 4. Dildorning bari gaplari haqiqat edi. (*Said Ahmad*) 5. Ulug‘ ajdodlarimiz ilm-u ma’rifatlari bilan ham butun olamni fath etganlar. (*Sirojiddin Sayyid*) 6. Bog‘imizda uzumning hamma xilidan bor edi. (*M. Qoriyev*) 7. Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir.

### *Savol va topshiriqlar*

- 1. Belgilash olmoshlari deb nimaga aytildi?
- 2. Belgilash olmoshlariga egalik qo‘shimchalarini qo‘shing va ulardagi o‘zgarish haqida so‘zlang.
- 3. Belgilash olmoshlarini qaysi so‘z turkumlari o‘rnida ishlatish mumkin?

69-mashq. *Uyga vazifa.* Tarix yoki adabiyot darsligidan belgilash olmoshlarini ishtirok etgan to‘rtta gap topib, ko‘chiring.

## GUMON OLMOHLARI

**1-topshiriq.** Quyida berilgan so‘roq olmoshlariga *alla-* yoki *-dir* qo‘sishmchalarini qo‘sning: *kim?*, *nima?*, *qachon?*, *qaysi?*, *qancha?*, *qanday?*

**2-topshiriq.** *alla-* yoki *-dir* qo‘sishmchalarini olgan yuqoridagi so‘zlarning ma’nolarini tushuntiring.

So‘roq olmoshlariga *alla-* yoki *-dir* qo‘sishmchasini qo‘sish yo‘li bilan gumon olmoshlari hosil qilinadi.

*Alla-* qo‘sishmchasi so‘roq olmoshlari oldidan, *-dir* qo‘sishmchasi esa so‘roq olmoshlari so‘ngidan qo‘shiladi.

Har ikki qo‘sishmcha asos qism bilan qo‘shib yoziladi.

*Narsa* so‘zi faqat *alla-* qo‘sishmchasi yordamida gumon olmoshiga aylanadi.

*Bir* so‘zi *kishi*, *narsa*, *nima* kabi so‘zlarga qo‘silib, bu so‘zlarga gumon ma’nosini yuklaydi. Ularni *kimdir*, *nimadir*, *qachondir* singari gumon olmoshlari bilan almashtrish mumkin. Bunday vaqtida *bir* so‘zi gumon olmoshi o‘rnida qo‘llangan bo‘ladi. Shu bilan birga *birov* so‘zi ham *kimdir* so‘zi bilan erkin almashina olgani uchun gumon olmoshi hisoblanadi.

✓ 70-mashq. Ko‘chiring. Gumon olmoshlarining tagiga chizing. Boshqalar bilan suhbat qilayotganingizda, gumon olmoshlaridan foydalanasizmi?

1. Pochchamdan dasturxonni olib qoqish uchun gilosning yonidan o‘tarmanni, allanima baloga turtinib ketdim. (*Abdulla Qahhor*)
2. Shorahim ko‘z yoshidan hech narsani ko‘rmay, allanimalar deb g‘udrandi. (*O. Yoqubov*)
3. Allaqa yerdan oyim paydo bo‘ldi. (*O‘. Hoshimov*)
4. Aniq yili esimda yo‘q, Allaqa yysi zamonda Bir qishloqda ota-o‘g‘il Yashar ekan omonda. (*A. Oripov*)
5. Hovlida allakimning qorasi ko‘rindi. (*Oybek*)
6. Qaysidir yili, aniq esimda yo‘q, qish juda erta keldi. (*Qo‘chqor*)

*Norqobil*) 7. Bu yigitning nimasidir unga rahmatli otasini eslatardi. (*Farid Usmon*) 8. Birovning aybini senga aytgan sening aybingni ham birovga aytadi. (*Maqol*)

◆ 71-mashq. O‘qing. Gumon olmoshlari qanday hosil qilinganini aytib bering. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida ilgari surilgan g‘oya huqida fikrlaringizni aytih bering.

1. Kimdir qarshi so‘z aytgan edi, muallim jerkib berdi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Normurod Shomurodov allaqanday shubhadan yuragi zirqirab o‘z kabinetiga kirdi. (*O. Yoqubov*) 3. Kimdir ot yetaklab o‘tar azonda, Uzilar ko‘chaning sahargi tushi. (*Shavkat Rahmon*) 4. Ayol qalbi tosh bo‘lsa ham, allaqayeri paxtadan yumshoq, ipakdan mayin bo‘ladi. (*Said Ahmad*) 5. Hazil-huzul bilan birpasda allaqancha piyozni qanorlarga joyladik. (*O‘. Hoshimov*) 6. Kimdir – erkakmi, ayolmi, Nazir ota kiyimidan ajrata olmadi – gul do‘konining oldini supuryapti. (*O‘. Umarbekov*) 7. Bu dunyoda – tabiatda ham, jamiyatda ham bo‘shliq bo‘lmaydi. Qayerdadir bo‘shliq paydo bo‘ldimi, hech shubhasiz, uni, albatta, kimdir to‘ldirishga harakat qiladi. («Yuksak ma’naiyat – yengilmas kuch» asaridan)

◆ 72-mashq. Gumon olmoshlari ishtirokida to‘rtta gap tuzing. Gumon olmoshining qanday qo‘srimchalar yordamida hosil bo‘lganini aytинг.

### *Savol va topshiriqlar*

- 1. Gumon olmoshlari deb qanday olmoshlarga aytildi?
- 2. Gumon olmoshlari qanday hosil qilinadi?
- 3. Gumon olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

73-mashq. *Uyga vazifa*. O‘qing. Cho‘ponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan quyidagi matnda olmoshning qanday turlari mavjudligini aniqlang.

Hamma jim qoldi. Har kim o‘z oldida bir narsa topib, shunga ko‘z tikkan va u narsada Zebi o‘z otasini, Qurvonbibi o‘z erini, Salti qovog‘idan qor yog‘ib turgan sovuq bir so‘fini ko‘rardi.

Bu bulutli havoni ochmoq faqat onaning vazifasi edi:

— Otasi bomdoddan kirsin, — dedi u Saltiga qarab, — men o‘zim yotig‘i bilan aytib ko‘ray, yo‘q demas, — so‘ngra Zebiga yuzlandi. — Sen, qizim, uyga joy qil, o‘rtog‘ingni o‘tqiz, das turxon sol... Biz otang bilan choyni so‘rida ichib, haligi gapni gaplashamiz.

## BO‘LISHSIZLIK OLMOSHLARI

**1-topshiriq.** Berilgan gaplar tarkibidagi ajratilgan so‘zlarning ma’nosini izohlashga harakat qiling.

1. Hunarli odam **hech qachon** kam bo‘lmaydi. 2. Majlisda bu masala haqida **hech kim** churq etmadi. (*Z. Egamberdiyeva*)

**2-topshiriq.** Gaplarda **hech** so‘zi qaysi so‘zlar bilan birikib kela-yotganini aytинг.

**So‘roq olmoshlari va bir, narsa, nima so‘zları oldidan hech so‘zining qo‘llanishi natijasida bo‘lishsizlik olmoshlari hosil bo‘ladi. Hech kim, hech nima, hech qachon, hech qanday, hech qancha, hech narsa, hech bir so‘zları bo‘lishsizlik olmoshlari sanaladi va ular yozuvda ajratib yoziladi.**

✓ 74-mashq. Ko‘chiring. Bo‘lishsizlik olmoshlarining tagiga chizing. To‘qqizinchı gapdagı g‘oya bo‘yicha o‘z fikrlaringizni aytинг.

1. Moziylar sasiga qulqoq tutgum jim, ustun bo‘lgan emas dunyoga hech kim. (*I. To‘xtamishev*) 2. Haqing berma hech kimga, urho-yo, urho. (*I. To‘xtamishev*) 3. Hammasi joyida, do‘stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman. (*P. Qodirov*) Hech bandaning boshiga farzand dog‘ini solmasin ekan. (*O‘. Hoshimov*) 4. Yo‘q, xo‘jayin, qorin to‘q. Hech nima yegim kelmay turibdi. (*G‘afur G‘ulom*) 5. Hozir ham hech kim o‘z ismimni aytmaydi, «Ulfat» deyishadi. (*Ulfat*) 6. Hech kimni shafe keltirmay tura turing, hali. (*Cho‘pon*) 7. Hech qanday

kishini, xoh u tirik bo'lsin, xoh u vafot etgan bo'lsin, yomon o'zlar bilan kamsitib gapirmaslik kerak. (*Muhammad Husayn*) 8. U haqda hech qanaqa xat-xabar yo'q. (*G'afur G'ulom*) 9. Kim o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi. (*J. Bayron*) 10. Quruq gapning o'zi hech qachon lo'nda dalil bo'la olmaydi. (*Ibn Sino*)

75-mashq. Matnni davom ettiring.

Biz – O'zbekiston yoshlari dunyoda hech kimdan kam emasmiz!

◆ 76-mashq. Matnni davom ettirib yozing. Unda qo'llangan bo'lishsizlik olmoshlarining tagiga chizing.

Dunyoda hech bir narsaning qimmati ilmchalik yuqori emas.

*Savol va topshiriqlar*

- 1. Bo'lishsizlik olmoshlari deb nimaga aytildi?
- 2. Bo'lishsizlik olmoshlariga kelishik qo'shimchalari qay tartibda qo'shiladi?
- 3. Bo'lishsizlik olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.

77-mashq. Uyga vazifa. O'zingiz sevgan badiiy asardan parcha ko'chirib yozing. Unda qo'llangan olmoshlarni topib, ularning turini aniqlang.

## OLMOSHLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI

*1-topshiriq.* Berilgan gaplardagi olmoshlarni toping va turlarini aniqlang.

1. Bir vaqtlar qarshimdan o'tsang, seni derdim oddiy yo'lovchi. (*Shukrullo*) 2. Shu-shu biz bordi-keldi qilamiz. (*Adham Rahmat*)

**Olmoshlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy bo'ladi.**

**78-mashq.** Ko‘chiring. Olmoshlarni topib, tagiga chizing, tepasiga uning tuzilishiga ko‘ra turini yozing. Iqbol Mirzoning ijodidan olingan parcha bo‘yicha fikr bildiring.

1. Shu-shu Otaqo‘zi ochilib ketib, o‘rinli-o‘rinsiz gaplarni ko‘p gapirib yubordi. (*O. Yoqubov*) 2. Siz o‘zingizni tuproq bilan tenglashtirmakchi bo‘lgansiz, lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay Oltinbibi deb atamoq fikriga tushdim. (*Abdulla Qodiri*) 3. Hech qanaqa shartim yo‘q. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo‘q. (*Said Ahmad*) 4. Shu-shu bo‘ldiyu, Tursunboyning qulog‘idan Zebixonning ovozi nari ketmay qoldi. (*Said Ahmad*) 5. Hamma unga o‘girilib qarar, ammo Sattor Roziyadan boshqa hech kimni ko‘rmas edi. (*P. Qodirov*) 6. Mana bu manzarani qaranglar, qizlar, – dedi Manzura. (*Oybek*) 7. Hech kimni baxt o‘z-o‘zidan quchgan emas, Qush ham ko‘kka mashaqqatsiz uchgan emas. (*Iqbol Mirzo*)

◆ **79-mashq.** Quyida berilgan olmoshlarni tuzilishiga ko‘ra jadvalga joylashtiring.

Sodda olmoshlar	Qo‘shma olmoshlar	Juft olmoshlar	Takroriy olmoshlar

**O l m o s h l a r:** men, mana shu, u, o‘sha-o‘sha, u-bu, siz-biz, hech kim, har bir, hech nima, kim, qanday, allakim, sen-men, kimdir, shu-shu, ana shu, allaqaysi, nega, qandaydir.

**80-mashq.** Matnni ko‘chiring. Olmoshlarni aniqlang, tuzilishiga ko‘ra turlarini belgilang. Vatanparvarlik haqidagi fikrlaringizni aiting.

O‘zligini anglashga bel bog‘lagan har bir xalq va millat buyuk ajdodlari xizmatlarini e’zozlashni o‘rniga qo‘yadi, boshqalarga ham uni e’tirof ettiradi.

O‘tmishda yashab o‘tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini bilish shu kunning asosiy talabi sanaladi. Bularni egal-lamay turib, biron-bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi. Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo‘la

oladi. Uning har qanday mushkul vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, Vatanga xizmat qilish namunasi bo‘lib qolishi lozim. («*Vatan tuyg‘usi*» kitobidan)

81.-mashq. *Hamma, har bir, shu, ba’zi, mana shu, u-bu olmoshlari ihtirokida gaplar tuzing.* Olmoshlarning yozilishiga e’tibor bering.

### *Savol va topshiriqlar*

- 1. Olmoshlar tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
- 2. *Men, u, hamma* tuzilishiga ko‘ra qanday olmoshlar sanaladi?
- 3. *Har bir, hech nima, allakim* tuzilishiga ko‘ra qanday olmoshlar deb qaraladi?

82.-mashq. *Uyga vazifa.* «*Mustaqillik bizga nima berdi?*» mavzusida matn tuzing. Qo‘shma olmoshlarning tagiga chizing.

## **SODDA VA QO‘SHMA OLMOSSHAR. ULARNING IMLOSI**

*1-topshiriq.* Berilgan gaplardagi olmoshlarni toping va ularning tuzilishini aniqlang.

1. Ulug‘ odam hech qachon yolg‘iz qolmaydi. Taqdir uni qanchalar do‘stilaridan ayirmasin, oxir-oqibatda u yana o‘ziga do‘s st topib olaveradi. (*R. Rollan*) 2. Gulnor hamma narsani bir zumda tuyyorlab dasasiga ko‘rsatdi. (*Oybek*) 3. Ikkovining ham fikrini allanarsalar chulg‘ab olgan edi. (*O’. Umarbekov*)

**Faqat bir asosdan iborat bo‘lgan olmoshlar sodda,  
ikki asosdan tashkil topgan olmoshlar qo‘shma olmoshlar  
hisoblanadi.**

***Kim?, nima?, hamma, barcha singari tub olmoshlar,  
kimdir, qaysidir, allakim, allaqanday singari yasama  
olmoshlar sodda olmoshlardir.***

***Hech kim, hech qachon, har bir, har kim, mana  
shu, ana o‘sha kabi olmoshlar qo‘shma olmoshlardir.***

***Sodda olmosh qismlari qo‘shib, qo‘shma olmosh  
qismlari esa ajratib yoziladi.***

**83-mashq.** Gaplarni o‘qing. Sodda va qo‘shma olmoshli gaplarni alohida ko‘chirib yozing. To‘rtinchi gapdag‘i mavzu bo‘yicha fikr bildiring.

1. Meni Sodir Badalovich yubordilar, — dedi so‘rashish uchun ikkala qo‘lini baravar uzatib. (*X. To‘xtaboyev*) 2. Yigitning dong‘i o‘zi tug‘ilib o‘sgan shaharga ham yetib boribди. (*Ertakdan*) 3. So‘fi hech narsa demay o‘rnidan turdi. (*Cho ‘pon*) 4. **O‘zingga o‘zingni maqtagandan qo‘rq.** (*Maqol*) 5. Ana o‘sha yerda o‘zimizni ko‘rsatamiz. (*Said Ahmad*) 6. Tesha Saidiy bilan bahslashish qo‘lidan kelmaganini har bir so‘zi, har bir harakati bilan bildirib turar edi. (*Abdulla Qahhor*) 7. Ali Qushchi nechundir yana o‘sha iliq bahor kunini esladi. (*O. Yoqubov*) 8. Choyxonada, peshin bo‘lib qolganiga qaramay, hech kim yo‘q edi. (*O‘. Umarbekov*) 9. Lekin buni u hech qachon hech kimga aytmagan edi. (*Omon Muxtor*)

**84-mashq.** Ko‘chiring. Olmoshlarni aniqlang, ularning imlosini tu-shuntiring. Siz baxtni qanday tushunasiz?

Baxtni har kim o‘zicha tushunadi. Kimlarningdir qorni, ustboshi but. Shuni baxt sanaydi. Kimlardir yeng uchida yashaydi. Ko‘ngli tinch.

Siz o‘z ota-onangizning jigargo‘shalarisiz. Bu kam. Siz o‘z xalqingiz, Vataningiz, millatingizning ko‘z qarog‘larisiz, ammo unutmang: tanbal, daqqi, bezori kishi ma’naviy nogiron degan so‘z. Unga hech kishining ko‘zi uchib turgani yo‘q. O‘zi uchun, qorni uchun yashab, nafs gadosi bo‘lib yurganlar jamiyat uchun ortiqcha odamlardir. Bunday nusxalarning bor-yo‘qligidan hech kimga hech qanday foyda yoki zarar yo‘q.

Komil inson esa hammaning joni. (*G‘. Salomov*)

♦ **85-mashq.** *Hech, har, mana, ana so‘zlari yordamida qo‘shma olmoshlar hosil qiling va ularning har biri ishtirokida gap tuzing.*

### *Savol va topshiriqlar*

1. Sodda olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing va ularning imlosini tushuntiring.
2. Qo'shma olmoshlar deb nimaga aytildi?
3. Qo'shma olmoshlarning imlosi haqida so'zlang.

86-nashq. *Uyga vazifa. -dir qo'shimchasi yordamida so'roq olmoshlaridan gumon olmoshlari hosil qiling. Ularning yozilishiga e'tibor bering.*

N a m u n a: Tashqarida nimadir taraqladi.

## **JUFT VA TAKRORIY OLMOSHLAR. ULARNING IMLOSI**

***1-topshiriq.*** Berilgan gaplardagi olmoshlarni aniqlang. Ularning tarkibi va imlosini tushuntiring.

1. Shu-shu biz qadrdon bo'lib qoldik. (*Asqad Muxtor*) 2. O'sha voqealarni eslasam, o'zimdan o'zim xursand bo'lib ketaman. (*Mirmuhsin*) 3. Qanchadan qancha ajdodlarimiz orzu qilgan kunlar siz-u bizga nasib etdi. (*I. To'lakov*)

***2-topshiriq.*** Berilgan so'z va birikmalarning tarkibini aniqlang. *O'zboshimcha, o'zbilarmon, manman, sensira (senla), sizla, o'zidan ketmoq, o'ziga kelmoq.*

***3-topshiriq.*** Yuqoridagi so'zlarning ma'nolarini izohlang va har biri ishtirokida gaplar tuzing.

Bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlarning birikuvidan hosil bo'lgan olmoshlar juft olmoshlar sanaladi: *sen-men, u-bu, siz-biz.*

Bir olmoshning aynan takrorlanishidan hosil bo'lgan olmoshlar takroriy olmoshlar hisoblanadi: *shu-shu, nima-nima, kim-kim* va hokazo.

Juft va takroriy olmoshlar qismlari chiziqcha bilan yoziladi.

Olmoshlar boshqa so'zlarning yasalishiga asos bo'lishi mumkin. *O'zboshimcha, o'zbilarmon, manman* kabilar sifat, *o'zidan ketmoq, o'ziga kelmoq* iboralar sanaladi.

**87-mashq.** Ko‘chiring. Juft va takroriy olmoshlarning tagiga chizing. O‘z nutqingizda juft va takroriy olmoshlardan foydalanasizmi? Bunga e’ll bor qilganmisiz?

1. Shu-shu Nabijon ham dilni erkalovchi, ham allaqanday iztirobga soluvchi g‘alati hislar girdobiga tushib qoldi. (*S. Zununova*)
2. Halimaxonni ko‘rdim, sira o‘zgarmabdi: hamon o‘sha-o‘sha.
3. Yormat Yo‘lchi bilan yonma-yon yurib eski tanish kabi undan-bundan so‘zlashib bordi. (*Oybek*)
4. Mashina yuborsam, u-bularni berib yuborarsiz. (*Abdulla Qahhor*)
5. Qat’iyatli bo‘limgan odam hech qachon o‘ziga-o‘zi xo‘jayinlik qilolmaydi (*U. Foster*)
6. Shu-shu, men ularning uyiga keladigan bo‘pqoldim. (*Sh. Xolmirzayev*)

**88-mashq.** Gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan olmoshlarning juft va takroriy shakllarini toping. Shoir Aziz Abdurazzoqning fikrliga qo‘silasizmi?

1. **O‘zingdan** kichiklarga doim yordam bering. Bu bizning eng birinchi vazifamiz. (*Aziz Abdurazzoq*)
2. **Hamma** hayvonlar birdaniga tandirga yugurishib, **uning** ichida pisib yotgan Egriboyni tutib olishibdi va «chaqimchining jazosi – **shu**» deb, **uni** tilka-pora qilib tashlashibdi. (*Ertakdan*)
3. Nima eksang, **shuni** o‘rasan. (*Maqol*)
4. Ammo **shuni**, bolajonlar, unutmang. Qor yog‘ganda, qushlar holi bo‘lar tang. O‘shanda **siz** qushlarga yordam bering, Uvoq seping, ularga inlar quring. (*Quddus Muhammadiy*)
5. Haqiqat qalb ko‘zidir. Unda o‘z mohiyatingni o‘zing ko‘rasan. (*O. Mahmudov*)
6. O‘sha savol turtki bo‘lib, men bir necha yil davomida televide niye orqali «G‘azal oqshomi» davra suhbatlarida ishtirok etdim. (*E. Vohidov*)
7. O‘zgalar aybiga tetik nazar sol, o‘z aybing ko‘rgandek undan ibrat ol. (*Nizomiy*)

◆ **89-mashq.** *O‘zboshimcha, o‘zbilarmon, o‘ziga kelmoq, o‘zidan ketmoq, manman* so‘z va iboralari ishtirokida gaplar tuzing.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Juft olmoshlar deb nimaga aytildi?
- 2. Takroriy olmoshlarga misollar keltiring.
- 3. Juft va takroriy olmoshlar qanday yoziladi?

90-mashq. *Uyga vazifa.* «Mustaqil O'zbekiston ramzlari haqida o'tylar» mavzusida matn tuzing. Matnda juft va takroriy olmoshlarni qo'llang.



## MUSTAHKAMLASH

### *Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar*

- ? 1. Olmosh deb nimaga aytildi?
- 2. Kishilik olmoshlariiga misollar keltiring.
- 3 O'zlik olmoshlariiga misollar aytинг.
- 4. So'roq olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.
- 5. Belgilash olmoshlari qanday so'roqqa javob bo'ladi?
- 6. Bo'lishsizlik olmoshlari qanday hosil qilinadi?
- 7. Sodda olmoshlar qaysilar?
- 8. Qo'shma, juft va takroriy olmoshlarga misollar keltiring.

**1-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Olmoshlarni topib, ma'no guruhlariga ajrating.

1. U har yili ta'tilni o'z qishlog'ida, ota-onasi bag'rida o'tkazadi. (*A. Qosimov*)
2. Akajon, akajon! U bizning laylak emas. Siz aqlsiz-ku! O'sha cho'loq bilan teng bo'lasizmi? (*S. Sirojiddinov*)
3. Qiziq, unda nimaga asoslanib shunday qarorga keldingiz? (*A. Karimov*)
4. Har kim bilganicha maslahat bera boshladи. (*N. Norqobilov*)

**2-topshiriq.** *Kim, bu, o'sha, barcha, har nima, nimadir olmoshlariiga egalik va kelishik qo'shimchalarini qo'shing, ular ishtirokida gaplar tuzing va yozing, olmoshlarning imlosiga diqqat qiling.*

**3-topshiriq.** «Halqa» o'yinini o'tkazing. Navbatma-navbat olmoshlarga misol ayting. Kim ayta olmasa, o'yindan chiqariladi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib sanaladi.

**4-topshiriq.** *Uyga vazifa.* «Sen ham, siz ham bir og'izdan chiqadi» mavzusida matn tuzing. Siz kimlarni sizlaysiz va nima uchun? Shu haqda gapirib bering.

# SO'ZLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

## ISMLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

*1-topshiriq.* Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

### ISMLAR HAQIDA

So'zlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan buyon olimlar diqqatini tortib keladi. Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi hindlar so'zlarni otlar, fe'llar, yordamchilarga ujratgan edilar.

Hindlarning tilshunoslik g'oyalari bilan oziqlangan arablar so'zlarni uchga: ismlar, fe'llar, yordamchilarga bo'ladilar.

Hind tilshunoslari fikrlari asosida yunon olimlari, xususan, Arastu ham so'zlarni ana shunday uchga ajratadi. Keyinchalik faqat yunonlar ismlar ichidan sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni chiqaradilar.

G'arb tilshunoslida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi. Rus tilshunoslari ham ana shu an'anaga amal qilib, mustaqil so'zlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'lga ajratadilar. Aslida, dastlabki to'rtta so'z turkumining barchasi nomlar sanaladi: narsaning nomi (ot), belgining nomi (sifat), miqdorning nomi (son), nomlar o'rnida umashinib keluvchi so'zlar (olmosh). Rus tilshunoslari shuning uchun ularni bir umumiy nom ostida ism bildiruvchi so'zlar nomi bilan birlashtiradilar.

Bizning ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda *ismlar* nomi bilan o'rganib kelganlar.

Bu so'z turkumlarining deyarli hammasi egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradi. Shuning uchun bu shakllar faqat otlargagina emas, balki sifat, son, olmoshlarga, shuningdek, harakat nomi, sifat-dosh va taqlid so'zlarga ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari uña shu so'zlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lab keladi. Bu esa egalik, kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlarni *ismlar* atamasi ostida birlashtirish zarurligini ko'r-satadi.

◆ 91-mashq. Matnni o‘qing. Matndagi so‘zlardan narsaning nomini, belgining nomini, miqdorning nomini va nomlar o‘rnida almashinib keluvchi so‘zlarni to‘rt ustunga ajratib, jadvalga joylashtiring. Yashayotgan xonangizdagi narsalarни sanang va nomlariga diqqat qiling.

Yorug‘, keng xonadagi karavotlarning birida qirq yoshlar chamasidagi ayol yotardi. Rangi biroz oqarinqiragani uchun qoshlari yana ham qora, quyuq ko‘rinar, peshonasiga tushib turgan qo‘ng‘ir sochlarning jingalagi ham biroz ko‘kargan, lekin g‘unchadek lablari o‘ziga yarashgan, bejirim edi. Bemor ayollar bilan muloyim gaplashadi-yu, lekin ko‘ngli, turmushi haqida ochiq gapirmaydi. Eri poyezdda ishlar ekan. Shuning uchun haftada bir keladi. O‘g‘ilchasini yetaklab olma, apelsin to‘ldirilgan sumkani ko‘targanicha javdirab kirib keladi-da, xotinining oyoq tomonida o‘tirib unga termiladi. (S. Zunnunova)

Narsaning nomi	Belgining nomi	Miqdorning nomi	Nomlar o‘rnida almashinib keluvchi so‘zlar

92-mashq. Matnni o‘qing. Matndagi ismlarning bir-biriga va boshqa so‘zlarga bog‘lanishiga ko‘mak berayotgan qo‘shimchalarni aniqlang. Zahiriddin Muhammad Boburning armoni nimada edi? Shu haqda bahslashing.

Bobur ham bolaligi o‘tgan Andijon osmonini esladi. Mana shu Yetti Og‘ayni yulduzлari o‘sha yerda ham Oltin Qoziqni aylanib o‘tib, g‘arbga botib ketardi. O‘sha yerda ham Yetti Og‘ayni ufqqa bosh qo‘ygan sari Hulkar yulduzлari osmonning baland joylariga chiqib borardi. Bobur o‘smirligida Hulkar yulduzлarini olmosdan yasalgan varrakka o‘xshatardi. Dumini quvnoq silkitib uchadigan olmos varrak uning xayolini yana musaffo bolalik yillariga olib ketdi. Osmon dunyoning hamma joyida bir ekani, umrining boshlanishida Andijonda ko‘rgan yulduzлari umrining oxirida Agrada ham chaqnab turgani unga

o'nggi bir tasallidek tuyuldi. Bobur osmonga qarab yotganda yana yosh, sog'lom yigitga aylanib, Andijon chorborg'ining supasida yotganday bo'ldi. Bir lahzalik bu shirin his ketidan yana shafqatsiz bir qaltiroq bosib keldi-yu, yulduzli osmonni girdobiga olib, gir-gir aylantira boshladı...

Tun yarmidan oshganda Tohirning o'kirib yig'lagani qorong'i bog'ni zir titratdi... (*P. Qodirov*)

### *Savol va topshiriqlar*

1. Qadimda so'zlar qanday guruhlarga bo'lingan?
2. Ismlar deganda qaysi so'z turkumlari tushuniladi?
3. Ismlarning o'ziga xos xususiyati nima?

**93-mashq.** *Uyga vazifa.* Berilgan hadisni yozing. Undan qanday xulosha chiqardingiz? Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday so'z ekanini aniqlang.

Bir kishi **Rasulullohdan:** —Men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi? — deb so'rabdi. — **Onangga**, — debdilar Rasululloh. Bir kishi savolini uch marotaba qaytaribdi. Rasululloh: — **Onangga**, — deyaveribdilar. **To'rtinchি** marotaba yana so'rabdi. Shunda: — Otangga va **yaqin** bo'lgan qarindoshlaringga, — debdilar.

## ISMLARNING LUG'AVIY VA MUNOSABAT SHAKLLARI

**1-topshiriq.** So'zlarning lug'aviy va munosabat shakllari haqida 6-sinfda o'tilgan materiallarni eslang.

**2-topshiriq.** Nuqtalar o'mniga qavs ichida berilgan qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring.

1. Daftar ....(-ga, -lar, -dan, ning) varaq....(-ga, -im, -i).
2. Maktab.... (-lar, -dan, -ga) keldim.

**3-topshiriq.** Nuqtalar o'mniga qo'yilgan qo'shimchalarning qanday vazifa bajarishini aniqlang.

Ismlarning ko‘plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash, belgining darajasi kabi ma’nolarini bildiruvchi qo‘shimchalarga ega bo‘lgan shakli lug‘aviy shakl sanaladi.

*Egalik, kelishik, -man, -miz, -san, -siz, -dir* qo‘shimchalariga ega bo‘lgan shakli esa munosabat shakllari hisoblanadi.

Ism asoslariga qo‘shilib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘lab kelish va gap bo‘laklarini shakllantirishga xizmat qilgani uchun *egalik, kelishik, -man, -miz, -san, -siz, -dir* qo‘shimchalarini munosabat shakllari deyiladi.

Demak, ismlarning munosabat shakllariga quyidagilar kiradi:

1) egalik shakllari; 2) kelishik shakllari; 3) ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan munosabatini ifodalovchi *-man, -miz, -san, -siz, -dir* qo‘shimchalarini, *bo‘lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq* so‘zlari. Uchinchi turdagiga qo‘shimchalar bog‘lamalar deb ham yuritiladi.

94-inashq. Ko‘chiring. Munosabat shakllarini yasovchi qo‘shimchalarining tagiga cbizing. Ularni izohlang. Yettinchi gapdagi fikrga munosabat bildiriting.

1. Jon do‘sting jonidan kechsa ham, Mol do‘sting molidan kechmas. (*Maqol*)
2. Qurbon cholning gapini eshitib hayron qoldi. (*Sh. Xolmirzayev*)
3. Ra’noning yerga qaragan ko‘zi sekingina Anvarga ko‘tarilib, yana yerga og‘di. (*Abdulla Qodiri*)
4. Hammaning ko‘zi domlada ekan, Zebi chimmatini yuzidan oldi. (*Cho‘pon*)
5. Humoyun hamma dardini aytib ko‘nglini bo‘shatsin uchun Xonzoda begin uning so‘zini bo‘lmay toqat bilan jim tingladi. (*P. Qodirov*)
6. Chol podshoning oldiga borib, savoliga javob beribdi. (*Ertakdan*)
7. Tillingga juda ehtiyyot bo‘lgan, boshing omon saqlanadi. So‘zingni qisqa qilsang, umring uzayadi. (*Yusuf Xos Hojib*)
8. Shundan so‘ng To‘maris qo‘shinini to‘plab, jangga otlandi. (*Mirkarim Osim*)
9. Qazisan, qartasan, asl naslingga tortasan. (*Maqol*)

95-mashq. Matnni ko'chiring. Ismlarning lug'aviy va munosabat shakllarini aniqlab, izohlang. Non va uning qadri haqida fikrlashing.

Nonushta yo tushlikka  
Yozarkanmiz dasturxon,  
Dasturxonga zeb berib,  
Bo'y taratar kulcha non.  
Noz-ne'matning sarasi  
Va tabiat ne'mati.  
Bu ne'matni yaratar  
Oltin qo'llar mehnati.  
Kech kuzakda sochib don,  
Kelguncha yoz — saraton  
Bug'doyzorda ter to'kar  
G'allakor — asl dehqon.  
Bepoyon qir-adirda  
To'lishganda boshhoqlar,  
Kombaynchi amaki  
O'rimga o'zin chog'lar.  
Tegirmonchi akalar  
Mahtal etmas novvoyni.  
Novvoy esa yopadi  
Tandir-tandir shirmoyni.  
Shu bois har burdasin  
Tabarruk deb bitaman.  
Yo'l ustida uchrasa,  
Olib ko'zga surtaman.

(*Do'stjon Matjon*)

♦ 96-mashq. Nuqtalar o'rniga mos munosabat shaklini yasovchi qo'shimchalarni qo'yib, ko'chiring.

1. Ra'no... koptok... . 2. Men o'quvchi..., sen sportchi....
3. Jahl dushman..., aql do'st... . (*Maqol*) 4. Yolg'on aytgan kishi... xatar... bor ishi... . (*Maqol*)

## Savol va topshiriqlar



1. Ismlarning lug‘aviy shakllari qaysi qo‘srimchalar yordamida yasaladi?
2. Ismlarning munosabat shakllari qaysi qo‘srimchalar yordamida yasaladi?
3. -man, -san, -dir qo‘srimchalari qanday qo‘srimchalar sanaladi?

97-mashq. «Bog‘da» sarlavhasi ostida kichik hikoya tuzing. Unda qanda munosabat shakllaridan foydalanganingizni aying.

## EGALIK SHAKLLARI VA ULARNING IMLOSI

**1-topshiriq.** Berilgan birikmadagi nuqtalar o‘rniga mos qo‘srimchalar qo‘sning.



! Ot va otlashgan so‘zlarga qo‘silib, asos qismida ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning uch shaxsdan biriga qarashliliginibildirgan shakllar tizimi egalik qo‘srimchalari hisoblanadi: *Ilmning nihoyasi yo‘q. (Abdurauf Fitrat) O‘qishda, madaniyatda ilg‘or, sog‘lom, siyosiy yuqori saviyali yoshlarimiz bizning iftixorimizdir. (Oybek)*

98-mashq. *Ona va kitob* so‘zlarini egalik qo‘srimchalari bilan shaxs sonda o‘zgartiring. Unli bilan tugagan ismlar va undosh bilan tugagan ismlarga qanday egalik shakllarini qo‘shtiganingizni aiting.

**Quyidagi shakllar egalik qo‘srimchalari sanaladi:**

	birlik	ko‘plik
I shaxs	<i>ona+m, yurt+im</i>	<i>ona+miz, yurt+imiz</i>
II shaxs	<i>ona+ng, yurt+ing</i>	<i>ona+ngiz, yurt+ingiz</i>
III shaxs	<i>ona+si, yurt+i</i>	<i>ona+si, yurt+(-lar)i</i>

✓ 99-mashq. Quyidagi birikmalarda III shaxs egalik qo'shimchalarining  
erzilasi haqida fikr yuriting. O'zingiz ham shu kabi misollar keltiring.

Alisher Navoiy bog'i, o'qish kitobi, Toshkent shahri, Do'stlik  
umani, Jizzax viloyati, Mustaqillik bayrami.

Viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa nomlarida qo'llangan III shaxs egalik qo'shimchasi shaxsga  
qarashlilik ma'nosini emas, balki xoslik, umumdan  
ajratilganlik ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun bunday  
birikmalarda oldingi qism qaratqich kelishigida qo'llanil-  
maydi. Masalan: *Bobur bog'i; Orol dengizi*.

100-mashq. Ko'chiring. Egalik qo'shimchalarining tagiga chizing.

1. Ena buvining xayoli allaqayoqlarga borib keldi. (*G'afur ulom*)
2. Kimyogar ba'zi ilmlar haqida suhbatlashgandan keyin  
ning zehniga, ma'lumotining kengligiga taajjublanganini  
yishirmadi. (*Oybek*)
3. Oradan ikki kun o'tgandan keyin  
kechqurun Tesha Saidiyning hujrasiga keldi. (*Abdulla Qahhor*)
4. To'ra ko'zidan tilla oynagini olib, stol ustiga qo'ydi va stol  
o'tasida yoyilib yotgan gazetaga qaradi. (*Cho'pon*)
5. Yuzim-dagi yomg'ir tomchilarini yengim bilan sidirib, tepamga  
qondim. (*O'Umarbekov*)

-i, -si egalik qo'shimchasi bir qator so'zlarda qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanmaydi. Bunday  
so'zlarda ular yaxlitlanib qolgan. O'z vazifasini yo'-  
qotgan: *kechasi, kunduzi kabi*.

101-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibidagi egalik qo'shimcha-  
ning vazifalarini qiyoslab tushuntiring.

1. **Kechasi** ishlaydi, **kunduzi** uxbaydi. (*Ko'rpa*)
2. Kunduz  
ular aniq ko'rindi.
3. Kecha **dam** olishimiz juda maroqli  
utdi.
4. **Tuni** bilan mijja qoqmadi.
5. Bu yerlarning **yozi** juda  
qadim.

◆ 102-mashq. *Toshkent shahri, «Bolalar» jamg'armasi, Farg'onaviyoytasi* kabi birikmalar qatorini davom ettiring. Bu birikmalarning tarkibidagi egalik qo'shimchalarining vazifalarini tushuntiring.

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Egalik qo'shimchalari deb qanday qo'shimchalarga aytildi?
  2. Unli bilan tugagan ismlarga qaysi egalik qo'shimchalari qo'shiladi?
  3. Undosh bilan tugagan ismlarga qaysi egalik qo'shimchalari qo'shiladi?

103-mashq. *Uyga vazifa*. Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniغا zarur egalik qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Olmaning ikki palla... dek yarashgansizlar. (*Asqad Muxtor*)
2. Sochi... o'sib, yelka...ga tushib ketgani uchun oldirmoqchi edim. (*G'afur G'ulom*)
3. Birdan Bo'taboyning jahl... chiqib ketdi. (*Abdulla Qahhor*)
4. U mening ustoz... bo'ladi. (*X. To'xtaboyev*)
5. Latofatning savol... qo'qqisdan berilgan bo'lsa ham, Fazilat qizining gap...ni ilg'ab oldi. (*O. Yoqubov*)

## **SIFATDOSH VA HARAKAT NOMLARIDAGI EGALIK QO'SHIMCHALARI**

**1-topshiriq.** Gaplardagi sifatlanmishlarni tushirib, ulardagagi egalik qo'shimchalarini sifatdoshlarga qo'shing.

1. Bilgan narsang naf keltirar. (*Maqol*) 2. O'qigan narsam xotiramda muhrlanadi.

**2-topshiriq.** Hosil bo'lgan gap bilan avvalgisini qiyoslab, qanday o'zgarish bo'lganini izohlang.

**Sifatdosh va harakat nomlari tarkibidagi egalik qo'shimchalari harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini bildiradi. Shuning uchun qaratqich kelishigini olgan shaxs bildiruvchi so'zning qo'llanishiga ko'pincha ehtiyoj bo'lmaydi.**

✓ 104-mashq. Maqollarni o‘qing. Egalik qo‘sishimchalarini topib, vazifasini tushuntiring. Mehnat haqidagi maqolni izohlang.

1. Bo‘zchi bilganin to‘qir, Baxshi bilganin o‘qir. 2. Boqqanining ikki echki, O‘shqirganing yer tebratar. 3. Mulla bilganin o‘qir, Tovuq ko‘rganin cho‘qir. 4. **Mehnat qilib topganing – Qand-unsal totganing.** 5. Bilganiningni eldan ayama. 6. To‘g‘ri gap tug‘-ganingga yoqmaydi. 7. Chin do‘sit tug‘ishganingdan afzal.

105-mashq. Nuqtalar o‘rniga egalik qo‘sishimchalaridan mosini qo‘ying ularning gapda tutgan o‘rnini izohlang.

1. Ahyon-ahyonda polizdan qovunlarning tars-turs yorilgan... eshitilyapti. (*Murod Xidir*) 2. Hammadan ham qizig‘i qaytish...da bo‘ldi. Dadam bizni «Bir dengiz sayri qilinglar» deb, havorang kemaga tushirdi. Qaytayotgan...da tol novdalariga ikkitadan baliqni ildi-da, sovg‘a qildi. (*Hakim Nazir*) 3. Xolida maktab kiyimi kiygan...dan so‘ng, chindan ham bo‘yi cho‘zilib qolganga o‘xshab ko‘rindi. (*S. Anorboyev*) 4. Turnalar uzoqlashib ko‘zga ko‘rinmay ketgan...dan so‘ng o‘zicha hayron bo‘ldi. «Ularning dam arqondek cho‘zilib, dam g‘alvirdek yoyilib uchish...ning tababi nimada ekan-a?» deb o‘yladi. (*O. Husanov*) 5. Haqiqiy inson o‘zidan boshqalarning tashvishi bilan yashash... ketrak. (*Gazetadan*)

106-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Egalik qo‘sishimchalarini topib, ma’no vazifalarini izohlang. Oltinchi gapdagagi Ahmad Donishning fikri bo‘yicha buhslicinghing.

1. Ko‘raman kirmaganingni, – dedi Bo‘taboy otlanayotib. (*Abdulla Qahhor*) 2. Menga g‘ayir ko‘zi ila qarashingiz tabiiy deb hisoblayman. (*Sh. Xolmirzayev*) 3. Xuddi aytganimday bo‘ldi-ya. (*O. Yoqubov*) 4. O‘qishlarining yaxshimi? (*S. Zunnunova*) 5. Albatta, o‘zing birga borasan, qudalaring bilan tanishmog‘ing ham zarur. (*A. Qodiriy*) 6. **Yoshlikdan bir hunarning boshini ushlanglar, shu bilan jamiyatga ham yordam qilgan bo‘lasizlar.** (*Ahmad Donish*) 7. Donoxonga otaning gapi ma’qul kelib, o‘rnidan turdi. (*Omon Muxtor*) 8. Sharafim, shonim, borlig‘imsan, Vatan! (*G. Asqarova*)

### Savol va topshiriqlar

- ? 1. Harakat nomlariga egalik qo'shimchalarini qo'shing va ularni izohlang.
- 2. *Turishim, yurganining, aytganimiz* so'zlari tarkibidagi egalik qo'shimchalariga izoh bering.

107-mashq. *Uyga vazifa.* «Mustaqillik yo'lida fido bo'lgan bobolarim» mavzusida matn tuzing. Matndagi egalik qo'shimchalarining tagiga chizing.

## EGALIK QO'SHIMCHALI SO'ZLARNING IMLOSI

**1-topshiriq.** Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shing. Idrok, ishtirok, qishloq, yurak, bilak.

**2-topshiriq.** Egalik qo'shimchalari qo'shilgandan so'ng asos qismda qanday o'zgarish ro'y bergenini aytинг.

*Terak, qishloq, bolalik singari ikki va ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asos qisning oxirgi k,q tovushi g va g' tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.*

*Qorin, o'g'il, singil* kabi ikkinchi bo'g'inida i unlisi ishtirok etgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi i unlisi tushib qoladi va shunday yoziladi.

*Nok, chok* singari bir bo'g'inli, *idrok, ishtirok* singari ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, asos qismda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.

✓ 108-mashq. Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shing. Qaysilarida asos qismda tovush o'zgarishi ro'y berayotganini va imlosini tushuntiring.

Ko'zoynak, bilak, tilak, ko'rshapalak, chelak, parrak, ko'prik, tuk, oppoq, yuk, so'roq, buyruq, sog'lik, ittifoq, huquq, axloq, yurak, terak, elak, kurtak, varaq, taroq, tirnoq, qiliq.

◆ 109-mashq. Quyidagi so'zlarga II shaxs birlikdagi egalik qo'shimchalarini qo'shib, ko'chiring. Tovush o'zgarishiga e'tibor bering.

Ko'ngil, og'iz, bo'yin, qo'yin, bo'g'iz, o'g'il, o'rin, burun, qorin.

110-mashq. Quyidagi so'zlarga egalik qo'shimchasini qo'shing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bo'g'iz, burun, qo'ziqorin, haq, o'yin, bag'ir.

### Savol va topshiriqlar

- ? 1. *Singil* so'ziga egalik qo'shimchalari qo'shing va asos qismda bo'layotgan o'zgarishni tushuntiring.
- 2. Asos qismi -k, -q undoshlari bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchalari qay tarzda qo'shiladi?
- 3. *Zavq* va *pishloq* so'zlariga egalik qo'shimchalarini qo'shing va ularni izohlang.

111-mashq. *Uyga vazifa.* *Pirpirak, g'ildirak, butoq, xalq* so'zlariga egalik qo'shimchalarini qo'shing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

## MUSTAHKAMLASH

### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- ? 1. Egalik qo'shimchalari deb nimaga aytildi?
- 2. Egalik qo'shimchalari otlarga qay tarzda qo'shiladi?

**1-topshiriq.** Matnni o'qing. So'zlarga qavs ichida berilgan egalik qo'shimchalaridan mosini qo'shing va ularni izohlang.

Qishloqda duv-duv gap tarqaldi: A'luchi bola Qrimga borarmish! Ona (-m,-si,-ng) ishda ekan, bu gapni ko'chada eshitib, bir mahal hovliqqanicha:

— Ona (-miz, -lari, -ng) aylansin! — deya ostonadan ko'z (-lar, -ingiz, -i)da yosh bilan kirib keldi. — Onagina (-ng, -si, -lari) aylansin.

So'ng o'g'il (-si, -i, -ing)ni bag'riga bosib, peshona (-ng, -si, -ngiz)dan, yuz-ko'zlar (-si, -i, -ingiz)dan o'pdi, bo'yi bilan teng qomatini ko'rib, battar diyda (-miz, -si, -ingiz) bo'shashdi:

— Ota (-imiz, -ng, -miz) sho'rlik ko'rmadi bu kunlaringni...  
— Yig'lamang, oyi, — dedi a'luchi bola o'pka (-miz, -si, -ng) to'lib. (X. Sultonov)

**2-topshiriq.** Egalik qo'shimchasining qo'shilishi natijasida asosdu bo'layotgan o'zgarishlarga diqqat qiling va ularni izohlang.

1. Og'ziga kelganni gapirmoq — nodonlar ishi. 2. Do'stingning yutug'i — sening yutug'ing. 3. Tiling bilan ko'nglingni bir tut. 4. Aqli odam har doim o'z o'rnini bilib o'tiradi. 5. Ilon zahridan tilning zahri o'tkirroqdir.

**3-topshiriq.** Uyga vazifa. «Kuch birlikdadir» mavzusida matn tuzing. Unda ishlatilgan so'zlar tarkibidagi egalik qo'shimchalarini izohlang.

## KELISHIK SHAKLLARI

**1-topshiriq.** Gapdag'i nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring.

Har o'g'loni bul Vatan... (-dan, -ga, -ning) sultonlar... (-dan, -ga, -ning) teng bo'lzin. (*Sirojiddin Sayyid*)

**2-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga qo'yilgan qo'shimchalarining qanday vazifa bajarishini izohlang.

**3-topshiriq.** Kelishik qo'shimchasini olgan so'zning qaysi so'zga bog'langanini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlang.

Ot, olmosh va otlashgan so'zlarga qo'shib, ularni boshqa so'zlarga bog'lash uchun xizmat qiluvchi grammatik shakllar tizimi kelishik shakllari sanaladi.

Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi.

O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib, ularning har qaysisining o'z nomi va shakli bor.

**112-mashq.** Berilgan jadvaldagi kelishiklar nomi va shakliga e'tibor bering.

Kelishik nomlari	Qo'shimchalari	Misollar
Bosh kelishik	—	It hurar, karvon o'tar. ( <i>Maqol</i> )
Qaratqich kelishigi	-ning	Kitobning varag'i.

Kelishik nomlari	Qo'shimchalari	Misollar
Tushum kelishigi	-ni	Vatanni sev, tuprog'ini o'p. ( <i>Oybek</i> )
Io'nalish kelishigi	-ga (-ka,-qa)	Betga aytganning zahri yo'q. ( <i>Maqol</i> )
O'rinc-payt kelishigi	-da	Yosh ko'nglimda orzularam mo'l. ( <i>E. Vohidov</i> )
Chiqish kelishigi	-dan	Kutubxonadan keldim.

**Ot va otlashgan so'zlarning egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanish deyiladi.**

113-mashq. Gaplarni yozing, ismlarning turlanishini aniqlang. Sirojiddin Sayyidning she'reti haqida fikr bildiring.

1. Hikmatni anglamoqning o'zi bir hikmat. (*O. Mahmudov*)
2. Sen o'zingning eson-omonligingni tilasang, tilingdan zinhor yuramas so'zlarni chiqarma. (*Yusuf Xos Hojib*)
3. Asal bor yerda urisi ham birga bo'ladi. (*Ahmad Yugnakiy*)
4. Do'stlar dilini tanjitish dushmanni murodga yetkazishdir. (*Koshify*)
5. Yomon odamga yo'ldosh bo'lgandan ko'ra o'tda kuygan afzal. («*Otalar so'zi*»)
6. Sabr shunday bir kuchli narsadirki, g'azabni shijoatga, hiddatni halimga, kattalikni tavozega, yomonlikni yaxshilikka tylantirmaklikka quvvati yetar. (*Abdulla Avloniy*)
7. Kishini yo'zal qilib turadigan uning chiroyi emas, balki chiroyli xul-qidir. (*Xurramiy*)

8. Har keksa, har yoshning zahmatlarida,  
 Azim chinorlarning hikmatlarida,  
 Hazrat Yassaviyning xilqatlarida,  
 Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

(Sirojiddin Sayyid)

**114-mashq.** Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Ularning qaysi biri hokim, qaysisi tobe so‘z ekanini aniqlang. Tobe so‘zning qaysi kelishikda ekanini aytинг.

Shoir yengil bir so‘lish olib, tanburni tokchaga tirab qo‘ydi.. Daricha yoniga o‘tirdi. **Hovlida** shabada bilan o‘ynashgan daraxtlarning yengil kuyidan boshqa **sado** yo‘q. Shoir o‘ya toldi. Mana u yana Hirotda, o‘z uyida... Balki, endi butun umr bu suyukli **shaharda** muqim bo‘lib qolar... **Kim** biladi, **taqdirning** xohishi, **jilvasi** yana qanday kutilmagan o‘yinlar ko‘rsatar ekan! (*Oybek*)

**115-mashq.** Amir Temur o‘gitlarini ko‘chiring. Kelishik shakllarini aniqlang va kelishik qo‘srimchalaring tagiga chizing.

Jabr-zulmdan o‘zingni uzoq tut. Senda biron kishining haqi bo‘lsa, haqini unutma. Agar sizlar bir tan, bir jon bo‘lsangiz, sizga adovat qilganlarni yengasiz. Kimki senga do‘stlik qilsa do‘stligi qadrini unutma. Unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko‘rsat. Ko‘p narsani bilib tursang-da, o‘zingni bilmaganga sol.

**116-mashq.** *Kitob, dars, uy, harakat qilish, orzu* so‘zlarini turlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ?
- 1. Turlanish nima?
- 2. Kelishik shakllari qanday vazifa bajaradi?
- 3. O‘zbek tilida nechta kelishik bor?

**117-mashq.** *Uyga vazifa.* Matnni ko‘chiring. Unda turlangan so‘zlarning tagiga chizing va qaysi kelishikda ekanini aytинг. Matn mazmuniga e’tibor bering. Kitoblarga bo‘lgan munosabatingiz haqida gapiring.

Bobosi so‘zini eshitgan nabira oldidagi kitoblarni taxlay boshladi, so‘ng tokchadan xurjunni olib, unga kitoblarni solishiyo shaylandi. Bolaning bu qiling‘ini ko‘rib Temurning rangi o‘zgardi

— Bolalik qilmang, mirzo, bunaqada kitoblarni xor qilasizku! Kitob muqaddas narsa, uni avaylash kerak. Tuz-namakni ota-onani, ustozni qanday qadr etish lozim bo‘lsa, kitobni ham

Junday e'zozlash joiz... Siz kitoblarni xurjundan oling-da, tokehaga taxlang. (*Xurshid Davron*)

## BOSH KELISHIK SHAKLI

**1-topshiriq.** Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi so'z turkumiga mansubligi va qaysi kelishik shaklida ekanini aniqlang.

Anvar, qorni och bo'lsa kerak, **dasturxonni** Muhayyoning **qo'lidan** lib, uni buzuq **avtobusga** boshladi. Dasturxonni **darrov** ochdi. Ovqat **toplugini** ko'rib, Muhayyoning ijozati bilan ustasi, **oqsoq** cholni haqirdi. (*Abdulla Qahhor*)

**2-topshiriq.** Bosh kelishik shaklidagi so'z gapda qanday vazifada bajarayotganini aiting.

**Bosh kelishik shakli maxsus qo'shimchaga ega emas.**  
Bu shakl *kim?*, *nima?*, *qayer?* so'roqlarining biriga javob bo'ladi va gapda ko'pincha ega, ot kesim, undalma vazifalarida keladi. Masalan: *1. Men 7-sinf o'quvchisiman.* *2. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent.* *3. Toshkent, munschalar go'zalsan!*

**118-mashq.** Matnni o'qing. Bosh kelishik shaklidagi so'zlarni toping.  
Ular gapda qanday vazifa bajarayotganini aiting. Xoinlik nima? Shu haqda matnushishing.

Ulug'bek mirzo bobosidan so'rabdi:

Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima-yu, eng yomon narsa nima?

Amir Temur javob beribdi:

Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa ham botir, sa'yayratli, ham go'zal axloqli bo'lib nom chiqarish. O'limdan um battar, yomon narsa axloqsizlik va xoinlik bilan nom bajarishdir. (*Xurshid Davron*)

**119-mashq.** Bosh kelishik shaklidagi so'zlarni toping va ularning gapdashligini vazifalarini aniqlang.

Karim bir to'p lolalar qarshisida turib qoldi. Birdan chehra-dagi quvonch o'rnini hayrat egalladi. Lola tagida g'uj-g'uj

chumoli tinish bilmay yuguradi. Ajoyib-da bu chumolilar. Doim shoshganlari-shoshgan. Og'izlarida nimalar bo'lmaydi: bug'doy, cho'p, non ushoq...

Karim chumolilarga uzoq tikilib qoldi. Keyin o'rnidan lip etib turdi-yu, nariroqda lolalardan guldasta qilayotgan Nodirani chaqirdi.

— Mana ko'rasan, yomg'ir yog'adi. Chumolilar inlarini berkityapti, — dedi.

Karim to'g'ri aytgan edi. Sal o'tmay osmonni quyuq bului qopladi. Keyin rosa jala quydi. (*H. Jalolov*)

✓ 120-mashq. Gaplarni o'qing, bosh kelishik shaklida ishlatalig'an so'zlarga izoh bering. Mahmud Koshg'ariyning fikri bo'yicha munozara uyshtiring.

1. Belgi bo'lsa, odam yo'ldan, aqli bo'lsa, so'zdan adash maydi. (*Mahmud Koshg'ariy*) 2. Bu yerdan chiqqan buloq suvi naq buyrak kasalining tayyor davosi edi. (*Said Ahmad*) 3. Tushga yaqin yomg'ir tindi-yu, bulutlar orasidan ko'm-ko'k osmon va issiq yoz oftobi ko'rindi. (*P. Qodirov*) 4. Tabiat kimga zakovali aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi. (*Yusuf Xos Hojib*) 5. Buning ustiga osmon darz ketgandek momaqalдиroq qarsillaydi, chaqmoq chaqadi. O, inson bunday paytda ojizligini qanchalik aniq sezadi. (*Sh. Xolmirzayev*) 6. Arslon o'z quvvati va shijoati bilan ovqat topib, kun kechir gani kabi inson ham qayda bo'lmasin, o'z aqli bilan kun kechiradi. («*Otalar so'zi*») 7. Navro'z kuni Hamida bonu qo'sh karnay va qo'sh surnaylar tovushidan uyg'ondi. (*P. Qodirov*) 8. Otam meni ham sevinch, ham hayrat bilan qarshi oldi. (*O'. Umarbekov*) 9. Navoiy g'azalni shavq bilan tovush chiqarib o'qidi. (*Oybek*)

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Bosh kelishik shakli qanday qo'shimchaga ega?
- 2. Bu shakl qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
- 3. Ular gapda qanday vazifa bajaradi?
- 4. Bosh kelishikdagi so'zlar qatnashgan gaplar tuzing va ularning vazifasini tushuntiring.

**131-mashq.** *Uyga vazifa. «Ilm – aql chirog‘i» mavzusida matn tuzing. Unda ishtirok etgan bosh kelishikdagi otlarning tagiga chizing va vazifasini qohuntiring.*



### **QARATQICH KELISHIGI SHAKLI**

**I-topshiriq.** Berilgan gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarining qaysi so‘z turkumiga mansubligini, qaysi kelishikda ekanini ayting.

1. Kechasi Saidaning hujrasiga Kozimbek bilan muxbir A’zamjon keldi. Saida Kozimbekdan otasining sog‘lig‘ini so‘radi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Uning hovlisini ko‘rib, Saidaning og‘zi ochilib qoldi. (*Abdulla Qahhor*)

**Qaratqich kelishigi shaklidagi so‘z — qaratqich, qaratqich bog‘lanib kelgan so‘z esa qaralmish deyiladi.**

Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelash-tirib bog‘lab keladi va qaralmishda ifodalangan narsahodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning qaratqich shaklidagi ismlarga qarashli ekanini bildiradi.

**122-mashq.** Quyidagi birikmalarda qaratqich va qaralmishlarning qanday shakllanganini izohlang.

Sinf burchagi, maktabimiz bog'i, bizning maktab, Ahmadning akasi, shuning o'zi.

**123-mashq.** Qaratqich kelishigida qo'llangan so'zlarni topib, ularga izoh bering. Gaplardagi g'oya bo'yicha fikrlashing.

1. Yolg'on doim rostdan yengiladi. U xuddi suv yuzasidagi ko'pikday yo'q bo'lib ketadi. (*Abu Rayhon Beruniy*) 2. Shu bilan birga, Alisher Navoiy saboqlari hamisha qalbingiz tubida bo'lsin. (*E. Vohidov*) 3. O'z qadrini bilmagan o'zganining qadrini ne bilsin? O'z yurti, o'z xalqi tarixi bilan qiziqmagan kishining jahon tarixini bilganidan ne naf? (*E. Vohidov*) 4. Umrining mazmunini millatning dardiga darmon bo'lishdan iborat deb bilgan Amir Temur xalqimizning ana shunday ardoqli, ulug' farzandidir. Amir Temur – xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir. Amir Temur nafaqat Turon, Turkiston, O'zbekiston zaminining, balki insoniyatning eng ulug' daholaridan biridir. Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari undan ham beqiyos. (*«Inson baxt uchun tug'iladi» kitobidan*)

**124-mashq.** Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan olingan gaplarni o'qing, ulardagi fikr bo'yicha bahslashing. Qaratqich kelishigi qo'shimchasining ishlatalishiga e'tibor qiling.

Ko'zingni katta och. O'zingni zakovat nuri bilan yoritib ko'r. Menga donishmandlarning bitta hikmatli so'zi ma'lum: «Bilimdon o'z bilimi tufayli ofatlardan omon qoladi». Uquvsiz kishining ishi yurishmaydi. Hurmat kishining uquv-idrokidan keladi.

Ezguning har bir ishi chiroyli, har bir qadami go'zal. Yomon larning esa kundan kunga mung va alami ortadi.

**125-mashq.** *Bizning shahar, Sharifaning kitobi, buning ahamiyati* birikmalarida qaratqich kelishigini tushirib qoldirish mumkinmi? Mumkin bo'limasa, buning sababini izohlashga harakat qiling.



Qaratqich va qaralmish yonma-yon kelganda, ko‘p hollarda qaratqich kelishigi tushib qolishi mumkin. Lekin qaratqich va qaralmish o‘rtasida boshqa so‘z qo‘llanilsa, qaratqich qo‘shimchasi tiklanadi. Masalan: *Maktabimiz-ning chiroyli bog‘i*.

Qaratqich kelishigi shaxs nomlari, otlashgan so‘zlar va olmoshga qo‘shilganda, belgisiz qo‘llanmaydi.

✓ 126-mashq. «Katta tanaffusda» mavzusida og‘zaki matn tuzing. Matnda qaratqich shaklining tushib qolgan yoki qolmaganini aniqlang.

◆ 127-mashq. O‘zingizga yoqqan badiiy asardan kichik bir matnni ko‘chirib yozing. Matndagi kelishik qo‘shimchalarining tagiga chizing.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Qaratqich va qaralmish deb nimaga aytildi?
2. Qanday holatlarda qaratqich kelishigi qo‘shimchasi tushib qolmaydi? Misollar bilan izohlang.
3. Qaratqich kelishigidagi so‘z qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

128-mashq. *Uyga vazifa*. «Mening orzum» mavzusida kichik hikoya tuzing. Qaratqich kelishigidagi so‘zlarning tagiga chizing.

## TUSHUM KELISHIGI SHAKLI

*1-topshiriq*. Nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchalarini jo‘ying.

Kitob... o‘qimoq, olma... yemoq, qalam... bermoq, xat... chiroyli yozmoq, suv.... simirib ichmoq.

*2-topshiriq*. Tushum kelishigi qo‘shimchasini olgan so‘z bog‘lan-  
fe’lning o‘timli yoki o‘timsizligini aniqlang.

Tushum kelishigi shaklini olgan so‘z doimo o‘timli fe’lga bog‘lanadi.

Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe’l yonma-yon turganda, ko‘pincha tushum kelishigi qo‘shimchasi tushib qoladi. Masalan: *Kitobni o‘qidim – Kitob o‘qidim*.

Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe'l o‘rtasida boshqa bir so‘z ishlatilsa, tushum kelishigidagi so‘z atoqli ot, olmosh yoki sifatdosh bo‘lsa, tushum kelishigi qo‘shimchasi tushib qolmaydi.

Tushum kelishigidagi so‘z gapda doimo to‘ldiruvchi vazifasida keladi.

129-mashq. Nuqtalar o‘rniga qaratqich yoki tushum kelishiklari qo‘shimchalaridan birini qo‘ying. Qaysi vaqtda qaratqich, qaysi vaqtda tushum kelishigi ishlatilishini tushuntirib bering.

Derazam... oldi, gul... hidladi, qalam... rangi, qalam... berdi, ertak... davomi, ertak... aytди, farzand... burchi, kitob... o‘qidi.



Egalik qo‘shimchasini olgan ismlarga bog‘lanuvchi so‘z qaratqich kelishigi shaklida, o‘timli fe’llarga bog‘lanuvchi so‘z tushum kelishigi shaklida keladi.

✓ 130-mashq. Gaplarni o‘qing, tushum kelishigining ishlatilish o‘rligiga diqqat qiling.

1. Jaloliddin singlisini so‘nggi marta Samarqandda ko‘ngandi. (*Erkin Samandar*) 2. Ma’naviyat – ajdoddarni avlod larga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog‘lovchi ko‘pri (*«Ma ’rifat» gazetasidan*) 3. Gapning sirasini emas, shirasini aytyapman, hikmat mag‘zini chaqib berayotirman sizlarga, chiroqlarim! (*«Otalar so‘zi»*) 4. Kim ota-onasini rizo qilsa, Olloha taolo uning umrini ziyoda qiladi. (*Hadisdan*) 5. Ustod o‘z began saboqlari zoye ketmaganidan, shogird ularni puxta o‘zlashtirib olganidan behad mamnun bo‘ldi. (*«Otalar so‘zi»*) 6. Ona bolalariga ertak va naqllar aytib bera boshladi. (*«Otalar so‘zi»*) 7. Ilm ahli sizning ma’rifat yo‘lida qilgan xizmatlaringizni eslaridan chiqarmas. (*O. Yoqubov*)

8. Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,  
Seni guldek erkalagan chaman uchun.  
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

(*Iqbol Mirzo*)

131-mashq. Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'yib, matnni ko'chiring. Kelishik qo'shimchasini olgan so'zning qaysi so'zga bog'la mayotganini aying.

Yaxshi tarbiya ko'rgan odam... xislatlari... biri shuki, bunday odam o'z faoliyati... boshqalar... bir qadam oldin... o'tsa, darrov urqaga qaraydi, sheriklari... yordam qo'li... uzatadi, safi... kungaytirib, yangi g'alaba... ko'zlaydi. (*Abdulla Qahhor*)

132-mashq. Berilgan birikmalardagi birinchi va ikkinchi so'zlarning tartibili o'zgartiring. Tartibi o'zgarganda, so'zning kelishik shaklida qanday qurish bo'lganini va uning sababini aiting.

**Qiziqib** kitob o'qimoq, **miriqib** suv ichmoq, **to'yib** ovqat yimoq, **laganga** osh suzmoq, **o'roqda** o't o'rmoq, **tozalab** ko'cha surmoq, **mehr** bilan xat yozmoq.

◆ 133-mashq. «Bo'sh vaqtlarimda» mavzusida hikoya yozing. Hikoyada tushum tushum kelishigi shaklidagi so'zlarning qaysi so'zga bog'lanib mayotganini aiting.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Tushum kelishigi qaysi qo'shimcha yordamida ifodalanadi?
2. Tushum kelishigining qo'shimchasi tushirib qoldirilishi ham mumkinmi? Misollar keltiring.
3. Tushum kelishigidagi so'z, asosan, qanday so'zlarga bog'lanadi?

134-mashq. *Uyga vazifa*. Nuqtalar o'rniga mos tushum yoki qaratqich shakllarini qo'yib, matnni ko'chiring.

Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo, xalq darini baralla aytgan, yurt muhabbat... hech kimnikiga o'xshagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qondi.

Muhammad... she'rlari bir qarashda juda sodda, jo'n yozi-liganga o'xshab tuyuladi. U... oson yoziladiganga o'xshab

ko‘ringan misralari muxlislari... yig‘latadi, kuldiradi, o‘z og‘ushiga oladi.

Odamlar u... she’rlari... hayajonsiz o‘qimaydigan, kitoblari... do‘konlardan qidirib yuradigan bo‘ldilar. (*O. Sharafiddinov*)

## JO‘NALISH KELISHIGI SHAKLI

**1-topshiriq.** Gaplardagi nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘srim chalarini qo‘ying.

1. U o‘qish niyatida shahar... yo‘l oldi. 2. Adolat sekin atrof.. razm soldi.

**2-topshiriq.** Jo‘nalish kelishigidagi so‘zning qanday so‘roqqa javoli bo‘lishi va qanday gap bo‘lagi vazifasini bajarishini aniqlang.

**!** Jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘silib, *qayerga?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda o‘rin holi vazifasida keladi.

Payt otlariga qo‘silib, *qachon?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda payt holi vazifasini bajaradi.

Shaxs va narsa otlariga qo‘silib, *kimga?, nimaga?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda to‘ldiruvchi vazifasida qo‘llanadi.

**135-mashq.** Berilgan so‘zlardagi jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasinining talaffuzi va imlosiga e’tibor bering.

Terakka, chopiqla, Chirchiqla, bog‘ga, tog‘ga, yurakka.

 Jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasi *k, q* tovushlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda, *-ka*, *-qa* shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

*G‘* tovushi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda, masalan, *tog‘+ ga > toqqa* tarzida *-qa* shaklida talaffuz qilinsa ham, *-ga* tarzida yoziladi.

♦ 136-mashq. Matnni ko‘chiring. Jo‘nalish kelishi shaklidagi so‘zlarni aniqlab, ularning talaffuzi va imlosini tushuntiring. Abdulla Qahhor haqida bilganlaringizni so‘zlab bering.

Katta mutafakkir san’atkorning har bir asari chuqur o‘yga toldiradi... Kelajakka e’tiboringni qaratadi. Abdulla Qahhor davr, xalq talabi va istagini chuqur his qilgan hozirjavob yozuvchi edi. Respublikamiz hayotida muhim bir voqeа yuz bersa, biz sabrsizlik bilan Abdulla Qahhor nima der ekan, deb kutardik. Ustoz yozuvchi, albatta, hammani hayratga soladigan, ko‘p-chilikka ma’qul bo‘ladigan bir gapni aytardi. (*O‘. Umarbekov*)

✓ 137-mashq. Quyida berilgan so‘zlarga jo‘nalish kelishi qo‘shimchasini qo‘shing. Qanday talaffuz qilinishi va imlosini tushuntiring.

O‘roq, qishloq, sog‘, chorbog‘, kurak, so‘roq, ilik, yog‘.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Jo‘nalish kelishigining qo‘shimchalari qaysilar?
2. Jo‘nalish kelishigidagi so‘z qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularni izohlang.

138-mashq. Uyga vazifa. «Suvning hayotimizdagi ahamiyati» mavzusida ilkoya yozing. Qanday kelishik qo‘shimchalaridan foydalanganingizni aytинг.

## **O‘RIN-PAYT KELISHIGI SHAKLI**

**1-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchalarini qo‘ying.

1. Novdalarni bezab g‘unchalar Tong... aytdi hayot otini. (*Hamid Olimjon*) 2. Qadim zamon... Chin mamlakati... bir ulug‘ podshoh o‘tgan ekan. (*Ertak*)

**2-topshiriq.** Nima sababdan -da qo‘shimchasini qo‘yaningizni aytинг.

**O‘rin-payt kelishi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘ladi va hokim qismda ifodalangan harakatning o‘rnini bildiradi. Bunday otlar gapda o‘rin holi vazifasida keladi.**

**Payt otlariga qo'shilib, qachon? so'rog'iga javob bo'-ladi va hokim qismda ifodalangan harakatning paytini bildiradi. Bunday so'zlar gapda payt holi vazifasida keladi.**

**Shaxs va narsa otlariga qo'shilib, kimda? nimada? so'roqlariga javob bo'ladi. Bunday otlar gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi.**

◆ 139-mashq. O'qing. O'rın-payt kelishigi shaklidagi so'zni aniqlang va uni hokim so'z bilan birga ko'chiring. Qanday so'roqqa javob bo'layotganini aytинг. Sodiq do'st deganda kimni tushunasiz?

Inson umri davomida o'ziga sodiq do'stlar orttiradi. O'g'il ham, qiz ham, kim bo'lishidan qat'i nazar, o'z faoliyatida, o'qishda, mehnatda, uzoq safarda, odamlar orasida o'ziga fe'li, muomalasi bilan yoqib qolgan kishi bilan do'stlashadi.

Do'stlik nihoyatda nozik bo'lib, uni asrab-avaylash lozim. Do'stlik insonning bolalik davrida boshlanadi. Bolalikdan boshlangan do'stlik odamzodning keyingi ulg'aygan va kamolotga erishgan davrida orttirgan barcha do'stlari orasida alohida o'rın tutadi. (T. Qurbanov)

140-mashq. «Mustaqillik o'gitlari»ni ko'chiring. O'rın-payt kelishigining ma'nolarini izohlang.

1. Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir. 2. Dunyoda o'zbek zaminiga teng keladigan zaminning o'zi yo'q. 3. Mehr va qadr bor yerda hamma narsa bor. 4. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. 5. Vatan har bi insonning yuragida, qalbida bo'lmog'i lozim.

141-mashq. Quyida berilgan so'zlarni ma'nolariga ko'ra jadvaldag'i kataklarga joylashtiring. Qanday so'roqqa javob bo'layotganini aytинг. O'rın-payt kelishigi shaklining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Tongda, o'rtada, pastda, orqada, kuzda, saharda, tushda, ishda, maktabda, uyquda, peshinda, mashinada, o'roqda, dasgohda, senda, Ahmadda.

### **Savol va topshiriqlar**

1. O'rin-payt kelishigi shakli deb nimaga aytildi?
2. O'rin-payt kelishigidagi so'zning so'roqlari haqida so'zlang.
3. -da qo'shimchasi qachon paytni ifodalaydi? Misol keltiring.

**142-mashq.** *Uyga vazifa.* O'zingiz yoqtirgan badiiy asardan kichik matnni ko'chirib yozing. Matndagi o'rinn-payt kelishigi shaklidagi so'zlarning tulaffuzi va imlosini tushuntiring.

### **CHIQISH KELISHIGI SHAKLI**

**1-topshiriq.** Berilgan birikmalarda nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'ying.

Toshkent... ketmoq, uzoq... kelmoq, temir... qattiq, shamol... tez, sahar... ishni boshlamoq, harakatchanligi... muvaffaqiyat qozonmoq.

**2-topshiriq.** Chiqish kelishigi shaklidagi so'zning so'rog'i va vazifasini aniqlang.

**Chiqish kelishigi qo'shimchasi o'rinn-joy otlariga qo'-shilib, qayerdan? so'rog'iga javob bo'ladi va o'rinn holi vazifasini bajaradi.**

**Payt otlariga qo'shib, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va payt holi vazifasida keladi.**

**Shaxs va narsa otlariga qo'shib, kimdan? nimadan? so'roqlariga javob bo'ladi va to'ldiruvchi bo'lib keladi.**

**Ba'zan ayrim otlar, sifatdoshlar va boshqa so'zlarga qo'shib, nima sababdan? so'rog'iga javob bo'ladi va sabab holi vazifasida keladi.**

**143-mashq.** Berilgan birikmalarni bir-biriga qiyoslab, ma'noda qanday borligini aniqlashga harakat qiling.

uzum yemoq  
uzumni yemoq  
uzumdan yemoq

non olmoq  
nonni olmoq  
nondan olmoq

suv ichmoq  
suvni ichmoq  
suvdan ichmoq



Ba'zan tushum kelishigi o'rnida chiqish kelishigi shakli ishlatalishi mumkin. Lekin ularning ma'nosida ma'lum farq bor. Tushum kelishigidagi so'z butunni, chiqish kelishigidagi so'z qismni bildiradi.

144-mashq Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'ying, chiqish kelishigi qo'shimchasining yozilishini izohlang.

— Bizning qishloq... ham suv boradimi, amaki? — deb so'rashdi bolalar. — Ha, albatta, — dedi dadam, — qishlog'imizga ham bu kanal... ko'p suv boradi. Dalalar, ko'chalar, uylardagi ariqlar... sharqirab suv oqadi. U... keyin, qarabsizki, paxtamiz ham mo'l, uzum-olmamiz ham, qovun-tarvuzimiz ham seroba. (*Hakim Nazir*)

✓ 145-mashq Ko'chiring. Chiqish kelishigi shaklidagi so'zning ostig' chizing. Uning qanday so'roqqa javob bo'layotgani va qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganini aniqlang. Qo'rkoqlik va qo'rmaslik haqidagi fikrlaringizni ayting.

1. Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo'ribiy shunda o'g'li Alpomishdan: — Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi? — deb so'radi. («Alpomish»dan)
2. Bugun rostni qo'yib yolg'on gapirgan odam ertaga nima deganini unutganidan rostini aytib qo'ya qoladi va shu bilan o'zini o'zi beburd qiladi. (*Abdulla Qahhor*)
3. Ilm-u ma'rifatdan lof urish nodonlikdan boshqu narsa emas, agar bilsang, nodonlikni bilishning o'zi ilmdir. (*Alisher Navoiy*)
4. Dushmanlardan qo'rqma — nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma — nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'r — ular seni o'ldirishmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishlari tufayli yer yuzida xiyonat vi qotilliklar sodir bo'laveradi. («Yuksak ma'naviyat — yengilmay kuch» asaridan)
5. O'ylanmasdan gapirishdan ko'ngilga ozor yetadi. («Mashriqzamin — hikmat bo'stoni» kitobidan)
6. Mirzo Ulug'bek ko'zlarini nomadan uzib, o'g'li bilan shayxulislomga

qaradi. (*O. Yoqubov*) 7. Men bu yo'ldan necha bor qishlog'imga o'tganman. (*Mirtemir*)

### *Savol va topshiriqlar*

1. Chiqish kelishigining qo'shimchasi qaysi?
2. Chiqish kelishigi shaklidagi so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Chiqish kelishigi shaklidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularni izohlang.

◆ 146-mashq. *Uyga vazifa.* Berilgan birikmalardagi nuqtalar o'rnidagi ushum va chiqish kelishiklarini almashtirib qo'llang. Ular o'rtasidagi ma'nolarini ayting.

Qo'li... ushlamoq, ovqat... yemoq, qovun... olmoq, she'r... o'qimoq, qulog'i... cho'zmoq.

## ISM LARNI KESIMGA XOSILOVCHI SHAKLLAR

**1-topshiriq.** Matndagi kesimlarni toping, ularni qanday so'zlar bilan ifodalanganini ayting.

Men do'stlik targ'ibotchisiman... Do'stlikni e'zozlashning zarur shartlaridan biri do'stlar bilan uchrashib turishdir. Turli katta-kichik marosimlar: bayramlar, tug'ilgan kunlar, to'ylar bilan bir qatorda do'stona yig'inlar ham bu munosabatlarni tobora mustahkamlab turuvchi vositalardir. (*A. Hojiahmedov*)

**2-topshiriq.** Kesimlarning ega bilan munosabatini bildiruvchi qo'shimchalarni aniqlang.

Kesim ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Ism orqali ifodalangan kesimlar shaxs-sonni bildiruvchi maxsus *-man*, *-miz*, *-san*, *-siz*, *-dir* qo'shimchalari, shuningdek, *bo'lmoq*, *sanalmoq*, *hisoblanmoq*; *edi*, *ekan*, *emish*, *emas* so'zлari vositasida ega bilan moslashadi. Ot kesimlarni ega bilan moslashtiruvchi bunday vositalar bog'lamalar hisoblanadi.

✓ 147-mashq. Berilgan gaplardagi o‘qish kerak (*lozim, darkor, shart*) kesimini ega bilan shaxs-sonda moslashtiring.

1. Men o‘qish kerak. (*lozim, darkor, shart*)
2. Sen o‘qish kerak. (*lozim, darkor, shart*)
3. U o‘qish kerak. (*lozim, darkor, shart*)

 **Harakat nomi bilan ifodalangan kesim tarkibida *kerak, lozim, darkor, shart* so‘zlari bo‘lganda, kesimni ega bilan moslashtiruvchi egalik qo‘sishchalari harakat nomiga qo‘shiladi.**

◆ 148-mashq. Ko‘chiring. Kesimlarning ostiga chizib, uning ega bilan munosabatini bildiruvchi vositalarni aniqlang.

Qorabotir yurtning erkasi, jo‘ralarining serkasi edi. Boy edi, yegani go‘sht-u moy edi. Alp edi, lekin nozik qalb edi...

Oqbotir uning jo‘rasi edi. Jo‘ralari ichida eng g‘o‘rasi edi.

Oqbotir: To‘rt tarafda g‘anim lashkari, Ming yaradan qon oqur tanda. Do‘s, sen eding ko‘nglim rahbari, Meni bog’la, topshir dushmanqa. (*U. Azimov*)

149-mashq. Matnni davom ettiring. Abdulla Avloniyning fikriga qo’shilasizmi?

Millatga ilm kerak, ma’rifat kerak. (*Abdulla Avloniy*)

### *Savol va topshiriglar*

- ? 1. Kesim ega bilan qanday moslashadi?  
2. *-man, -san, -dir* qo‘sishchalari kesimga qay tarzda qo‘shiladi?  
3. *Sanamoq, hisoblamoq, bo‘lmoq, demoq* fe’llari ishtirotida gap tuzing va gapning kesimini izohlang.

150-mashq. Uyga vazifa. Kesimi *bo‘lmoq, hisoblanmoq, sanalmaq* bog‘lamalari yordamida ega bilan bog‘langan uchta gap yozing. Bog‘lamalarning vazifasini tushuntiring.

## MUSTAHKAMLASH

### *Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar*

1. Kelishik shakllari deb nimaga aytildi?
2. Ismlarni kesimga xoslovchi qo'shimchalar qaysilar?
3. Kelishik qo'shimchalarining imlosini tushuntiring.

**1-topshiriq.** Matnni o'qing. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring. Nay orqali ijro etilgan qanday xalq kuyularini bilasiz? Shu haqda fikrlashing.

Odob saqlab sukut... o'ltingan Alisher uyalibgina muloyim ohang... dedi:

- Ehtimol, ustoz... ishlari ko'pdir, lekin nayga havasim tushib qoldi.
- Yo'q, yo'q, bemalol, jonim bilan o'rgataman. Nay o'zimiz... qadim... qolgan cholq'u, mungli, ma'yus qalblar... firoq-u alamlarini kuylaydur, to'y-bazmlar... uning go'zal sadosi ko'ngullar... zavq to'ldiradur. Alisherbek ishqini tushibdimi — o'rgaturmiz. (*Oybek*)

**2-topshiriq.** Xato berilgan so'z birikmalarini to'g'riling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Meni ona diyorim, uyning chiqmoq, ilmdan mehr qo'ymoq, tunni ravnaqi, kitobga o'qimoq, bilimdonlikni siri, olimlarga no'ramoq, ilmning o'rganmoq, ilmgaga bahra olmoq.

**3-topshiriq.** So'zlarga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'shing, ularning yozilishiga diqqat qiling.

Yaxshi xulq yaxshilik (-ni,-ga,-ning) alomatidir. (*Beruniy*) 2. Aqlli (-dan, -ning,-ni) suhbati (-ga,-din,-ka) jon olur so'z. (*Xorazmiy*) 3. Har ishda shitob qilmag'aysen, bu demak murod (-g'a, -ka,-qa) yetmagaysen. (*Bobur*) 4. Hunari va odobi bo'lмаган kishi (-ning,-din, -ga) baxt va davlat ketadi. (*Mahmud Koshg'ariy*)

**4-topshiriq. Uyga vazifa.** «Mustaqillik madhi qo'shiqlarda» mifvusida matn tuzing. Matndagi kelishik qo'shimchalarining tagiga thizing.

## YORDAMCHI SO‘ZLAR

**1-topshiriq.** Matnni o‘qing. Mazmunini gapirib bering.

### SO‘Z TURKUMLARI

So‘zlar ma’lum so‘roqqa javob bo‘lishi yoki bo‘lmasligi, atash ma’nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga, gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasida kelish-kelmasligiga ko‘ra mustaqil va yordamchi so‘zlarga bo‘linadi.

Fe’l, ot, sifat, son, ravish, olmoshlar ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘ladi. Ularning barchasi, olmoshlardan tashqari, atash ma’nosiga ega. Ot borliqdagi shaxs-narsalarning, voqeahodisalarning nomini, fe’l harakat-holatini, sifat va ravish belgilarini, son miqdonini ataydi, nomlaydi.

Olmosh esa yuqoridagi so‘zlardan qaysisining o‘rnida kelsa, o‘shaning ma’nosiga ishora qiladi.

**Atash ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlar yoki ular o‘rnida qo‘llanib, ma’lum so‘roqlarga javob bo‘luvchi va gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasida keluvchi so‘zlar mustaqil so‘zlar sanaladi.**

**Atash ma’nosiga ega bo‘limgan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlar yordamchi so‘zlar hisoblanadi.**

**Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog‘lash, ularning ma’nolariga qo‘srimcha ma’no yuklash vazifalarini bajaradi.**

**Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar kiradi.**

♦ 151-mashq. O'qing. Matn tarkibidagi so'zlarni mustaqil va yordamchi so'zlarga ajratib jadvalga yozing. O'. Hoshimovning fikriga qo'shilasizmi?

Ey farzand, aqli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan do'st bo'l. Hunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan, ilm-u hunar o'rganishdan uzoqlashma. («*Qobusnomad*») E'tibor berganmisiz yoki yo'qmi, bilmadim-ku, sizning sado-qatda tengsiz do'stingiz bor. Qachon xohlasangiz, siz bilan hamsuhbat bo'ladi. Shod paytingizda quvonchingizga quvonch qo'shadi. G'amgin pallada dardingizni oladi. Bilmaganingizni o'rgatadi. Adashsangiz, to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Yaqin kishilaringiz burilib ketganda ham u sizni tark etmaydi. Xizmati uchun hech nima tama qilmaydi. Yillab unutib, tashlab qo'ysangiz, indamaydi. Hatto uloqtirib yuborangiz ham, arazlamaydi. Tag'in chorlasangiz, yetib kelib, xizmatningizni qilaveradi... Bu do'stning nomi — Kitob! (O'. Hoshimov)

Mustaqil so'zlar

Yordamchi so'zlar

✓ 152-mashq. Uchun, bilan, va, chunki yordamchi so'zlaridan foydalanib, gaplar tuzing. Ularning gapdag'i vazifalarini izohlang.

153-mashq. Gaplarni ko'chiring. Yordamchi so'zlarning tagiga chizib, izohlang. «Inson baxt uchun tug'iladi». Shu fikrga munosabatingizni bildiring.

1. Xalqning sabr-toqati cheksiz emas. U dengizga o'xshaydi: goh to'lib, goh ozayib turadi. 2. Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uyg'oq bo'lmog'i darkor. 3. O'z tarixi va ajdodlarini niylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo'ladi. 4. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singadi. 5. Aslida, inson baxt uchun, dunyo ne'matlaridan buhramand bo'lish uchun tug'iladi. («*Inson baxt uchun tug'iladi*»

*kitobidan*) 6. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. (*G'afur G'ulom*) 7. Axir, men uning chinakam sehrli qalpoq ekanligini sinab ko'rishim kerak edi-da... (*X. To'xtaboyev*) 8. Kun botgan, lekin atrof hali yorug' edi. (*O. Yoqubov*)

◆ 154-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni izohlang. Uchinchi gapning mazmunini tahlil qiling.

1. Polvonning qo'li kuch **bilan** o'ziga tortar, **ammo** bi qarich **ham** oldiga siljitolmasdi. (*Said Ahmad*) 2. Mehmonlari osh-suv taraddudiga yo'l qo'ymasdan, sut-qatiq **bilan** quruq choy ichib, darhol o'tirgan joylariga uzandilar **va** aravada urinib kelganlari **uchun** uzanar-uzanmas uyquga ketdilar. (*Cho'pon*) 3. Shijoatli bo'l, **biroq** andishasiz bo'lma. Andishali bo'l, **biroq** shijoatsiz bo'lma. (*O'. Hoshimov*) 4. Duo **bilan** el ko'karar, yomg'ir **bilan** yer ko'karar. (*Magol*) 5. Bir kuni tong bilan to'satdan bahor jarchilari — qaldirg'ochlar **ham** paydo bo'lishdi. (*M. Qoriyev*) 6. O'zingiz ham bog'dan beri kelma dingiz-da. Qachon bo'lmasin, o'sha yoqdasiz. (*O'. Umarbekov*) 7. Buyuk bobomiz **faqat** turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo'g'ul **va** boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorum bilan foydalangan. (*O'. Hoshimov*) 8. Sizni ovqat ustida bezovta qilayotganim **uchun** uzr so'rayman, — dedi qo'lini ko'ksiga qo'yib. (*O'. Hoshimov*)

#### *Savol va topshiriqlar*

- ?  
1. So'z turkumlari deb nimaga aytildi?  
2. Mustaqil so'z turkumlariga ta'rif bering.  
3. Yordamchi so'zlarga misollar keltiring.

155-mashq. *Uyga vazifa.* Berilgan «So'z turkumlari» matnini o'qib, quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. So'zlar qaysi belgilariga ko'ra mustaqil va yordamchi so'zlar bo'linadi?
2. Mustaqil va yordamchi so'zlar deyilishining sababi nimada?
3. Qaysi so'zlar yordamchi so'zlar hisoblanadi?

**1-topshiriq.** Quyidagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi so'z bilan birga qo'llanganini aniqlang.

1. **Ish** bilan ovora bo'lib, kunning o'tganini ham bilmay qolasan kishi. (*Z. Fatxullin*) 2. Qish qo'ynidan **baxt** singari yoz uchib kelur. (*Mirtemir*)

**2-topshiriq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qanday vazifa bajarayotgani izohlashga harakat qiling.

Ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin **kelib, ularni hokim so'zga bog'lash** uchun xizmat qiluvchi **bilan, uchun, kabi, singari, orqali, sayin** kabi so'zlar ko'makchi hisoblanadi.

**156-mashq.** Berilgan gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'noberini izohlang. Birinchi gapning mazmuni bo'yicha bahslashing.

1. Avval o'yla, **keyin** so'yla. (*Maqol*) 2. Bu kitob qo'liga tushgandan **keyin** bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi. (*H. Hasanov*) 2. Siz **bilan** hamsuhbat bo'lmasdan **avval** boshqacha xiyolda edim. (*O. Yoqubov*) 3. Devor **usti** yomg'irdan iviy boshladi. (*Qamchibek Kenja*) 4. Mirzo Ulug'bek kechalari shu yerda o'tirib, mutolaa qilishni suyar, suyukli jadvali **ustida** ham shu yerda ishlar edi. (*O. Yoqubov*) 5. Oradan ancha vaqt o'tgandan **keyin** Shiroq o'tovdan chiqdi. (*Mirkarim Osim*) 6. O'rtancha botir ikkinchi kechadagi voqeani aytib, nishona uchun tasmani o'rtaga tashladi. («*O'zbek xalq ertaklari*»dan) 7. Onam stol ustini tartibga solar, karavot qoshidagi kiyimlarimni olib, qoziqlarga ilar edi. (*Sh. Xolmirzayev*)

Sof ko'makchilar bilan bir qatorda ayrim so'zlar ko'makchi vazifasida qo'llanadi va ular vazifadosh ko'makchilar sanaladi.

**157-mashq.** Berilgan gaplardagi ko‘makchilarni toping. Ularni ikki guruhga – sof va vazifadosh ko‘makchilarga ajratib yozing. Ularning bir-biridan farqini topisbga harakat qiling.

Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshlididan ko‘p ijobiy xislatlarga ega bo‘lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o‘ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi. Usmon Nosir o‘z ustida ko‘p ishlardi... Usmon she’rlarida jimjimadorlik ko‘rinmas, fikr-tuyg‘u sodda til orqali harorat bilan bayon qilinar edi. (*O’tkir Rashid*) Asarni o‘qishga kirishishingiz bilan ko‘z o‘ngingizda rangin manzaralar paydo bo‘ladi. Qulog‘ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi... Hech shubhasiz, badiiy adabiyot – dunyodagi sakkizinchimojiza! (*O’ Hoshimov*)

◆ **158-mashq.** *Avval, keyin, ost, ust, orqa, old so‘zlarini mustaqil so‘z va ko‘makchi vazifalarida ishlating va ularning har biri ishtirokida gap tuzing. Singari, kabi, ko‘ra, binoan ko‘makchilari ishtirokida gaplar tuzing. Ularning ma’no va vazifalarini tushuntirishga harakat qiling.*

#### *Savol va topshiriqlar*



1. Ko‘makchilar deb nimaga aytildi?
2. Ko‘makchilarning qanday turlari mavjud?
3. Ko‘makchilar ishtirokida gaplar tuzing.

**159-mashq.** *Uyga vazifa: «Qish fasilda» mavzusida ko‘makchilardan foydalanib, hikoya yozing. Foydalilanigan ko‘makchilarning ma’no va vazifalarini aytинг.*

## SOF KO'MAKCHILAR

**1-topshiriq.** Gaplardagi ajratilgan so‘zlarning qaysi so‘z bilan birqalikda kelayotganini va bu so‘zlar qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlang.

1. Yo‘lchida Gulnor haqida ikki og‘iz so‘z eshitish orzusi kuchli edi. (*Oybek*) 2. A’zamjon qilmishi uchun undan uzr so‘radi.

**2-topshiriq.** Ajratilgan so‘zlarning qanday vazifa bajarayotganini izohlashga harakat qiling.

Atash ma’nosini tamoman yo‘qotgan va faqat o‘zi birikkan so‘zni boshqa so‘zga tobelantirib bog‘lash uchun xizmat qiladigan ko‘makchilar sof ko‘makchilar sanaladi. *Bilan, sari, sayin, uchun, kabi, qadar, singari, uzra, tufayli, haqida* kabi ko‘makchilar shular jumlasidan.

**160-mashq.** Ko‘chiring. Ko‘makchilarni topib, ostiga chizing. Ularning imlosi haqida fikrlang. G‘afur G‘ulomning fikri bo‘yicha munozara uyuhshtiring.

1. Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la Bezamoq chog‘idir umr daftarin. (*G‘afur G‘ulom*) 2. Juda soz! Albatta, kiyib birini, misfarga do‘stilar-la men ham chiqaman. (*Zulfiya*) 3. Temur lig‘i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher. (*A. Oripov*) 4. Yuksak qoyalardan shiddat bilan qo‘zg‘algan burgut suruvdagi qo‘zichoqni ildi-yu ketdi. (*Ezop*) 5. Qog‘oz oq bo‘lgani uchun unga So‘z bitadilar. (*O‘. Hoshimov*) 6. Uni bir joyga o‘tqizib, kuydirilgan namat bilan qonni to‘xtatdilar. (*Mirkarim Osim*) 7. Yuz bergen tabiiy ofat tufayli uyimizning hamma yog‘i buzilib-yorilib ketib, yashash uchun mutlaqo yaroqsiz holga kelib qolgandi. (*M. Qoriyev*) 8. Kimki tong ila tursa, Mushkul ishlari bitgay. (*«Otalar so‘zi»*) 9. Shundan beri inson inmayin Shu yer uzra ter to‘kar hamon. Yerni go‘zal qilgani uyin Go‘zal bo‘lar o‘zi ham inson. (*E. Vohidov*)



Sof ko'makchilar urg'u olmaydi. Urg'u ko'makchi bilan birga kelgan mustaqil so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Shuning uchun ko'makchi ohang tomonidan o'zidan oldingi so'z bilan bir butunlikni tashkil qiladi, lekin yozuvda ko'makchi doimo ajratib yoziladi.

Ba'zan *bilan*, *uchun* ko'makchilarini badiiy uslubda *-la*, *ila*, *birla*, *-chun* shaklida qo'llanadi. *-la*, *-chun* chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

✓ Ko'chiring. Ko'makchilarining ostiga chizib, uning talaffuzi va imlosini izohlang. Halollik haqida bahs uyshtiring.

1. Barchasidan qovun soz, Paykal uzra dumalar. (*R. Isoqov*)
2. Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo'lib qolmay, buyuklikning ayni o'zidir. («*Oz-oz o'r ganib, dono bo'lur*» *kitobidan*)
3. Qalam-la men to'qiyman qo'shiq, U – insonga, elga xizmatim. (*Zulfiya*)
4. Abdulla Oripovga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989-yili «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi. («*Vatan adabiyoti*»)
5. Bu to'g'rida maktab direktori, o'qituvchilar gapirsa, o'zimga olmas edim. (*Abdulla Qahhor*)
6. Saida bu haqda bundan ortiq gapirishni lozim ko'rmadi. (*Abdulla Qahhor*)
7. U hamma qishloq bolalari kabi yoshlikdan mehnatga kirishgan bo'lsa-da, ammo o'yinga ham vaqt topar edi. (*Oybek*)

◆ *Tufayli, haqida, sari, kabi* ko'makchilarining har biri ishtirokida gaplar tuzing. Ularning vazifasi va ma'nosi haqida fikr yuriting.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Sof ko'makchilar deb nimaga aytildi?
2. *Bilan* va *uchun* ko'makchilarining ishlatalish o'rnlari haqida so'zlang.
3. Sof ko'makchilar ishtirokida gaplar tuzing.

*Uyga vazifa.* Ko'makchilardan foydalanib, «Maktabimiz kutubxonasida» mavzusida hikoya yozing. Ko'makchilarining talaffuzi va imlosi haqida so'zlang.

## VАЗИФАДОШ КО'МАКЧИЛАР

**1-topshiriq.** Gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning mustaqil o'z va ko'makchi vazifasida kelgan o'rinalarini aniqlang.

1. Gap futbol o'yini **ustida** ketardi. 2. Qoziq **ustida** qor turmas. (Topishmoq) 3. Orqadan chuqur soy oqardi. (Shuhrat) 4. Muxbirimiz telefon **orqali** xabar berdi. («Turkiston»dan)

**2-topshiriq.** Bu so'zлarni qaysi o'rinalarda *haqida*, *to'g'risida*, *bilan* ko'makchilari bilan almashtirish mumkinligini aytинг.

Vazifadosh ko'makchilar: *ost*, *yon*, *ust*, *old*, *orqa*, *ro'para*, *qosh* ot so'z turkumidan, *oldin*, *avval*, *keyin*, *so'ng*, *tomon* ravish so'z turkumidan, *bo'ylab*, *qarab*, *ko'ra*, *deya*, *deb*, *atab fe'l* so'z turkumidan hosil bo'lgan. Bunday so'zlar ko'makchi vazifasida kelganda, o'z ma-nosini yo'qotadi, shuning uchun ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydi. O'zi qo'shilgan so'z bilan bирgalikda bitta so'roqqa javob bo'ladi.

**164-mashq.** Ich, o'rta, qarab, ust so'zlarini qatnashdirib gaplar tuzing. Bunda berilgan so'zlar avval ko'makchi vazifasida, keyin mustaqil so'z vazifasida qo'llansin. Ularning farqini tushuntiring.

◆ **165-mashq.** Berilgan ko'makchilarning sof yoki vazifadoshligini aniqlab, jadvalga joylashtiring.

Bilan, sari, kabi, tomon, uchun, ko'ra, bo'ylab, keyin, haqida, nababli, ichida, oldida, to'g'risida, qadar, qarab, qarshi, tufayli, suyin.

Sof ko'makchilar

Vazifadosh ko'makchilar

**166-mashq.** Faqat vazifadosh ko'makchilar ishtirok etgan qatorni aniqlang. Ularni qatnashdirib gaplar tuzing.

- 1) bilan, orqa, ko'ra, o'rtada;
- 2) sari, boshida, qadar, maqsadida;

- 3) ustida, ichida, qoshida, tomon;
- 4) sababli, oldida, uchun, qarab.

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Qanday ko'makchilar vazifadosh ko'makchilar deyiladi?
  2. Ular mustaqil so'zlardan qanday farqlanadi?
  3. Ularni farqlagan holda gaplar tuzing.

*(167-mashq).* **Uyga vazifa.** Sof va vazifadosh ko'makchilar ishtirokida gaplar tuzing. Ularning farqini izohlang.

## KO'MAKCHILARNING MA'NO TURLARI

**1-topshiriq.** Matndagi nuqtalar o'rniga qavs ichidagi ko'makchilardan mosini qo'yib, ko'chiring.

1. Akam dala... (tomon, uchun, qarab, bo'ylab) ketdi. 2. Yur farovonligi... (sababli, to'g'risida, uchun) qayg'uradi.

**2-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga qo'yilgan ko'makchilarning ma'no-sini izohlang.


Ko'makchilar yetakchi so'zga bog'lanib, unga turli qo'shimcha ma'nolar yuklaydi. Jumladan, *sababli*, *tufayli* sabab ma'nosini, *uchun* sabab va maqsad ma'nosini; *tomon*, *qarab*, *sari*, *bo'ylab* yo'nalish ma'nosini; *haqida*, *to'g'risida* ko'makchilari mavzu ma'nosini; *kabi*, *singari* ko'makchilari o'xshatish, qiyoslash ma'nosini; *qadar* ko'makchisi chegara ma'nosini ifodalaydi.

*(168-mashq).* Nuqtalar o'rniga kerakli ko'makchilarni qo'yib, gaplarni ko'chiring. Ko'makchilarning ma'no turini aytинг. Hayo, ibo to'g'risida fikrlashing.

1. Shunaqa, — dedi Xolida opa hikoyasini davom ettirib, uni bizning maktabimizga tajriba ... olib kelishgandi. (*E. Usmonov*) 2. Yana ular futbol ... nazariy bilimlarga ega bo'lishi

mizni talab qiladilar. («*Gulxan»dan) 3. Nigora yaxshi xulqi, chiroyli muomalasi ... ham obro'ga erishishi mumkin edi-ku! («*Gulxan»dan) 4. Otasidan bir kun olib pul, Kitob do'kon ... soldi yo'l. Ketayotsa yo'lida o'g'lon, Uchrab qoldi muzqaymoq do'kon. (*Po lat Mo min*)**

◆ 169-mashq. Boshqotirmani to'g'ri yechsangiz, kalit so'zni topasiz.



1. O'xshatish, qiyoslash ma'nosini bildiruvchi ko'makchi.
2. Fikr mavzusi ma'nosini ifodalovchi ko'makchi.
3. Yo'nalish ma'nosini bildiruvchi ko'makchi.
4. Chegara ma'nosini ifodalovchi ko'makchi.
5. Vazifadosh ko'makchi.
6. Sabab, maqsad ma'nosini ifodalovchi ko'makchi.
7. Yo'nalish ma'nosini ifodalovchi ko'makchi.

*Savol va topshiriqlar*

1. Ko'makchilar so'zlarga bog'lanib, unga qanday ma'nolarni yuklaydi?
2. Ko'makchilar qatnashgan gaplar tuzing. Ko'makchilarni ajrating va ularning ma'no turini aytинг.

170-mashq. Uyga vazifa. «Mustaqillik va sport» mavzusida matn tuzing. Matnda ko'makchilardan ham foydalaning.

## KO‘MAKCHILAR VA QO‘SHIMCHALAR MA’NODOSHLIGI

**1-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘z va qo‘shimchalarni qo‘ying.

1. Dala... (-ga, *tomon*, *bo‘ylab*) ketmoq. 2. Oy... (-dek, -day, *kabi*, *singari*, *yanglig*) ravshan.

**2-topshiriq.** Biri o‘rnida ikkinchisi kelishi mumkin bo‘lgan so‘z va qo‘shimchalarning umumiy ma’nolarini ayting.

**-dek** qo‘shimchasi narsa-hodisa, belgi-xususiyatga o‘xshatishni ifodalaydi va shu ma’noda *kabi*, *singari*, *yanglig* ko‘makchilari bilan ma’nodoshlikni hosil qiladi.

**Jo‘nalish kelishigi** qo‘shimchasi yo‘nalish ma’nosida *tomon*, *bo‘ylab* ko‘makchilari bilan ma’nodoshdir.

✓ 171-mashq. *Otamga – otam uchun, mashinada – mashina bilan, kitobdan – kitob orgali* birikmalarini ishtirokida gaplar tuzing. Ko‘makchilar va kelishik qo‘shimchalari o‘rtasidagi ma’nodoshlikni izohlang.

172-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan qaysi so‘zlardagi qo‘shimchalarni ko‘makchilar bilan almashtirish mumkin? Ularni daftaringizga yozing.

1. Ark suv **quygandek** jimjit. (*Mirkarim Osim*) 2. Shunday yashar – sokin, bezavol, Pastakkina tandiri bilan, Katta uysa kichkina bir chol, Kichkina bir kampiri bilan. (*E. Vohidov*) 3. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay **pushtalarida** suv yaltiraydi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Ko‘rmaysizmi, chaqaloq tinchimayapti. O‘zim **itday** charchaganman. (*O‘. Hoshimov*)

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. -dek qo‘shimchasi qanday ma’noni anglatadi va u qaysi ko‘makchilar bilan ma’nodosh? Misollar keltiring.
  2. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasiga ma’nodosh ko‘makchilar qaysilar? Ularni qatnashtirib, gaplar tuzing.

173-mashq. *Uyga vazifa.* O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardan ko‘makchilar va qo‘shimchalar ma’nodoshligiga misollar topib, daftaringizga yozing.

## KO'MAKCHILAR BILAN BIRGA KELGAN SO'ZLARNING SHAKLLARI

**I-topshiriq.** Berilgan ko'makchilarning qaysi kelishik shakllaridagi ismlar bilan qo'llanilishini aniqlang.

Sen bilan, oy kabi, gul singari, o'qish uchun, borgan sari, o'qigan sayin, daryo bo'ylab, aytishiga ko'ra, shunga qaramay, mehnatiga yarasha, qarorga asosan, hayotga doir, o'qishdan so'ng, tushdan keyin, va'daga muvofiq, bundan bo'lak.

*Bilan, kabi, singari, uchun, sari, sayin, bo'ylab kabi ko'makchilar, asosan, bosh kelishik shaklidagi ismlarga qo'shiladi.*

*Ko'ra, qaramay, yarasha, asosan, doir, muvofiq kabi ko'makchilar jo'nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi.*

*Tomon ko'makchisi bosh va jo'nalish kelishigi shakli-dagi ismlarga qo'shiladi.*

*Keyin, bo'lak, boshqa, o'zga, tashqari, buyon, oldin, boshlab, avval kabi ko'makchilar chiqish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi.*

*Old, ost, ust singari vazifadosh ko'makchilar qarat-qich kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi. Bunday hollarda ba'zan kelishik qo'shimchasi qo'llanmasligi ham mumkin.*

177-mashq. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchasini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Yomonlik nima? Unga duch kelganmisiz? Shu haqda o'z sikringizni aiting.

1. Kozimbek mashinani yo'lga chiqarib, qishloq... tomon yurdi. (*Abdulla Qahhor*)
2. Qish o'tib, bahor kelishi bilan Qorabog'da o'tkazilgan qurultoyda Boyazid... ustiga yurishga qaror qilindi. (*Xurshid Davron*)
3. Yomonlikdan chiqqan aks sado har qadam... sayin zaiflasha boradi, bora-bora o'chib yo'q bo'ladi. (*Sh. Rashidov*)
4. Kecha Jannat xola o'g'li... oldiga

borganda, soqoli o'sib ketganini, sochlari qulqlaridan osilib vahshiy qiyofasiga kirib qolganini ko'rgan edi. (*Said Ahmad*) 5. Markaziy xirurgiya klinikasining bosh shifokori Mirsidiq Jalilov bir hafta... beri Namanganda dam olardi. (*O': Umarbekov*)

**175-mashq.** Gaplarni ko'chiring. Vazifadosh ko'makchilar bilan birgalan so'zlarni aniqlab, imlosini tushuntiring.

1. Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas. 2. Insonning fe'l-atvoriga qarab unga baho berishadi. 3. To'ydan keyin nog'ora chalmoq – nodonlar ishi. 4. Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi. 5. Donolar oldida doim eshitguvchi bo'l. («*Hikmatnoma*»dan)

**176-mashq.** *Bilan, uchun, tomon, qarab, ko'ra* kabi ko'makchilarini qatnashtirib, gaplar tuzing. Ko'makchilarini o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ajrating va bu so'z qaysi kelishikda ekanini aniqlang.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Qaysi ko'makchilar bosh kelishik shaklidagi so'zlarga bog'lanadi?  
2. Jo'nalish va chiqish kelishigidagi so'zlar bilan birikadigan ko'makchilar qaysilar?

**177-mashq.** *Uyga vazifa. Singari, sayin, qaramay, asosan, tomon, tashqari, boshlab, ich* ko'makchilarini qatnashtirib, matn tuzing. Unga sarlavha qo'ying. Ko'makchilarning qaysi kelishikdagi so'zlar bilan bog'-langanini tushuntiring.

## MUSTAHKAMLASH

### *Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar*

1. Ko'makchi deb nimaga aytildi?  
2. Sof ko'makchilar qaysilar?  
3. Vazifadosh ko'makchilarga misollar aytинг.

**1-topshiriq.** Gaplarni o'qing. Ko'makchilarini topib, ularning ishlatalish o'rinalariga diqqat qiling.

1. To'g'ri so'z o'z egasini najot sari yetaklaydi. (*Yusuf Xos Hojib*)  
2. Ba'zilar ovqatlanish uchun yashaydilar. Men esa yashash uchun ovqatlanaman. (*Abu Ali ibn Sino*) 3. Pokiza kishi hamisha shodlik

ostida, gunohkor esa g‘am va qayg‘u ostida bo‘ladi. («*Hikmatnoma*»dan)  
1. Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo‘lsa,  
kechirma aslo! (A. Oripov)

**2-topshiriq.** So‘zlarni sof va vazifadosh ko‘makchilarga ajrating.  
Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qadar, yonida, pastida, qoshidan, kabi, singari, buyon, qaraganda,  
uchun, bilan, ostida.

**3-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga berilgan ko‘makchilardan mosini  
qo‘yib, gaplarni ko‘chiring, ko‘makchilarning ishlatilish o‘rinlarini  
bzohlang.

Aql inson ... eng oliy ne’matlardan biridir. Aql ... narsalarning  
sir-asrorlari o‘rganiladi, ilm va ma’rifat egallanadi, kasb hosil qilinadi.

Bir donishmand aytadi: «Aql — yurak ichidagi nur, bu nur ...  
haq yoki nohaq bilib olinadi». Boshqasi bu ... shunday deydi: «Aql  
o‘z egasini dunyo malomatlaridan qutqaradi». («*Hikmatnoma*»dan)

So‘zlar: ila, haqda, uchun, bilan.

**4-topshiriq.** Ichida, tashqari, boshqa, keyin, qaraganda, ko‘ra  
so‘zлari ishtirokida gaplar tuzing. Birinchi gapda ular mustaqil so‘z  
ma’nosida, ikkinchi gapda esa ko‘makchi vazifasida kelsin.

N a m u n a: Ertaga tog‘asinikiga borishni ichida o‘yladi. 2. Bir  
hafta ichida «Oygul bilan Baxtiyor» dostonini yodlab oldi.

## BOG‘LOVCHILAR

**1-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan yordamchi  
so‘zlarni qo‘yib, gaplar qatorini hosil qiling.

1. Men Pirimqul Qodirov ... Said Ahmad asarlariga qiziqaman.  
2. Saidiy borib qishloqning ruhini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgisi  
keldi, ... borishga yuragi betlamas edi. (Abdulla Qahhor) 3. Da-  
raxtlarning barglari sarg‘aya boshladi, ... kuz keldi.

(bilan, va, lekin, chunki)

**2-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga qo‘yilgan yordamchi so‘zlarning  
vazifasi va gap ma’nosiga qanday ta’sir etayotganini aiting.

Ikki va undan ortiq gap bo‘lagi yoki qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlarga bog‘lovchi deyiladi. Masalan: *va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo... yo, dam... dam, goh... goh* singari.

**178-mashq.** Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Farzandlari galma-galdan xivichlarni bir yo‘la sindirishga urinibdi, ... hech biri buning uddasidan chiqsa olmabdi. (*Ertakdan*) 2. O‘zi balo tog‘ining ... ofat bulog‘ining Boshida o‘ltirarmish, Kun-u tun, yoz ham qish. (*Hamid Olimjon*) 3. O‘ktam u yoq-bu yoqqa asta yurar, «Komila bu yerda biron ishga ... majlisga o‘ralashib qolmasaydi» deb xavotirlanardi. (*Oybek*) 4. Sizga bir narsani ko‘rsataman, ... kinoga olmaysiz! – dedi Islom. (*Sh. Xolmirzayev*)  
5. O‘zbekning boshida do‘ppisi anvor,  
Belbog‘i ... to‘ni misoli do‘st-yor.  
Siym-u zarin olsang olgin-u ...  
Tegma do‘ppi,  
Belbog‘i,  
To‘niga zinhor! (*Azim Suyun*)

Bog‘lovchilar: va, yo, ammo, bilan, lekin.

**179-mashq.** *Bilan bog‘lovchi vazifasida kelgan o‘rirlarni aniqlab, gaplarni ko‘chiring.* Millat tushunchasiga izoh bering

1. Millat tushunchasi hamisha Vatan bilan yonma-yondir, misoli jism-u jondir. (*B. Qosimov*) 2. Endi buva bilan nevara teng odamday gaplashishadi. (*O‘. Umarbekov*) 3. Odam odam bilan tirik. (*Abdulla Qahhor*) 4. Yer bilan suv egizak, bir-birisiz yashay olmaydi. (*Gazetadan*) 5. Eshon bilan Kifoyatxon qulay bir joyni topib, bularni kuzatishardi. (*Abdulla Qahhor*) 6. Ano-

vilarning fojiasi shuki, ular baxt bilan baxtsizlikni farqlay olmaydi. (*Nazar Eshonqul*) 7. Jiyda esa bahor paytlari butun shaharni o‘zining hidi bilan to‘ldirardi. (*Nazar Eshonqul*) 8. Mehmonlarga non bilan tuz tutdilar. («*Gulxan»dan») 9. Pirim-qul Qodirov bilan Odil Yoqubov xonaga kirib keldilar. (*E. Vohidov*) 10. Ustod bilan shogird ko‘rishib bo‘lguncha, olsiroqda iymanib turgan Qalandar bilan Muhammad Xisrav ham yaqinroq kelib, salom berishdi. (*O. Yoqubov*)*

**180-mashq. Gaplarni ko‘chiring, bog‘lovchilarini topib, ularni izohlang.**

1. Yupiter topdingmi dunyoga kelib, Ustoz yo shogirddan, yoki tengdoshdan. (*A. Oripov*) 2. Nozimaxon goh mashinkasini, goh tikuv mashinasini yurgizib allamahalgacha ishlab o‘tiribdi. (*Xayriddin Sulton*) 3. Matniyoz xotini nima desa shuni qilardi-yu, lekin ich-ichidan unga achinib qo‘yardi. (*Asqad Muxtor*) 4. Men ham eshitgan va ko‘rganimni aytaman-da, jo‘ra. (*N. Aminov*) 5. Humoyun va Hindol ammalariga yelkalarini berib ko‘rishar ekanlar, yosh ayollar ularga bosh egib ta’zim qildilar. (*P. Qodirov*) 6. Mirzaqul yerga qaradi va boshiga telpagini qaytadan kiydi. So‘ng nimanidir aytmoqchi bo‘lib taraddudlandi-yu, lekin aytmay, indamay qoldi. (*Nazar Eshonqul*) 7. Ilm ahlining g‘animlari bo‘lmish mustabid shohlar kelib ketaverar, ammo bu maskan, bu zahmatkash xalq abadul-abad hayotdir. (*O. Yoqubov*)

**Savol va topshiriqlar**

- ? 1. Bog‘lovchilar qanday vazifa bajaradi?  
2. Ham ko‘makchi, ham bog‘lovchi vazifasida qo‘llaniluvchi so‘zni aiting.

**181-mashq. Uyga vazifa. «Jahonga bo‘y ko‘rsatayotgan yoshlari» mavzusida matn tuzing. Unda bog‘lovchilardan ham foydalananing.**

## BOG'LOVCHILARNING VAZIFASIGA KO'RA TURLARI

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan bog'lovchilarning nimalarni va qanday yo'l bilan bog'lab kelishini izohlang.

1. Boshlanadi ijod **va** turmush. (*Hamid Olimjon*) 2. Men gulni yaxshi ko'raman, **chunki** u ruhimni ko'taradi. (*S. Zunnunova*)

**2-topshiriq.** Yuqoridagi bog'lovchilarning vazifasini ayting.

**Vazifasiga ko'ra bog'lovchilar teng va ergashtiruvchi  
bog'lovchilarga bo'linadi.**

◆ 182-mashq. Gap tarkibidagi bog'lovchilarning vazifasiga qarab, gaplarni jadvaldagi tegishli ustunga joylashtiring. Ma'naviy boylik nima? Shu haqda fikr bildiring.

1. O'zi to'rt tarafi ko'z ilg'amaydirg'an darajada katta va sayhon bir yer ekan. (*Abdulla Qodiriy*) 2. U seskanib tushdi, chunki chol ro'parasiga kelib qolgan edi. (*X. Sultonov*) 3. Ba'zan uloqni to'dadan olib chiquvchi ham ko'rinish qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug'urchuqday yopirilishib, o'n-o'n besh qadamda tutib oladilar. (*Abdulla Qodiriy*) 4. Nega kerak gapning «nega, nega»si, Yo shoir, yo marhum buning egasi. (*A. Oripov*) 5. Qancha yo'llar bosdim, gohida toldim, Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard. (*Mirtemir*) 6. Ularda dard va iztirob ne qilar, Ular faqat kishnab yurgan yilqilar. (*O'. Sulaymonov*) 7. Yo'qolgan moddiy boylikning o'mini to'ldirish mumkin, lekin ma'naviy boylikdan judo bo'lish – fofija. (*E. Vohidov*)

Teng bog'lovchili gaplar	Ergashtiruvchi bog'lovchili gaplar

**183-mashq.** Bog'lovchilarni topib, tagiga chizing, qanday vazifa bajarayotganini aytинг. Pashshaning gapi to'g'rimi? Siz qanday munosabat bildirasisiz?

Bir pashsha qir tarafdan uchib kelayotgan bolarini ko'rib:  
«Oh birodar! Bir boshjing uchun buncha harakat qilasan! Sen ham men kabi rohatda yashasang bo'lmaydimi, chunki mening hayotimda hech bir mashaqqat yo'q. Insonlar tomonidan hozirlangan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichib, umr o'tkazaman. Ba'zi vaqtarda sen yig'gan bolingdan ham to'ygunimcha yeypman. Yashamoq mana! Umr kechirmoq uchun olamda bundan yaxshi sharoit bo'ladimi? Menda na bol tayyorlamoq mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor», — dedi. («*Gulxan»*dan)

### *Savol va topshiriqlar*

1. Berilgan so'zlar ichidan bog'lovchilarni ajrating. Ularning turini aniqlab gaplar tuzing. *Uchun, tomon, bilan, hamda, va, biroq, ichida, hamisha, ammo, ketmoq, yo ... yo, chunki.*
2. Bog'lovchilar qaysi belgisiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

**184-mushq.** Uyga vazifa. «Mehnat qilsang, rohat ko'rasan» mavzusida bog'li matn tuzing. Undagi bog'lovchilarning tagiga chizib, turini aniqlang.

## TENG BOG'LOVCHILAR

**1-topshiriq.** Berilgan gaplar tarkibidagi bog'lovchilarning vazifasini aniqlang.

1. Ona bilan bola — gul bilan lola. (*Magol*) 2. Hammasini tinglardim, ammo O'xhashini topmasdim aslo. (*Hamid Olimjon*) 3. O'ktam tolga suyanib, dam cholga, dam tegirmonga qarab indamay turaverdi. (*Oybek*)

**2-topshiriq.** Bog'lovchilar yordamida bog'lanib kelayotgan bo'lak va gaplar o'rtaida qanday ma'no munosabati borligini aniqlang.

! O‘zaro teng munosabatdagi gap bo‘laklari va gaplarni bog‘lab keluvchi bog‘lovchilar teng bog‘lovchilar hisoblanadi.

Teng bog‘lovchilar gap bo‘laklari va gaplarni bog‘lash bilan birga ular o‘rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro‘yobga chiqaradi. Shunga ko‘ra teng bog‘lovchilar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- 1) biriktiruv bog‘lovchilari: *va, hamda, bilan, ham;*
- 2) zidlov bog‘lovchilari: *ammo, lekin, biroq;*
- 3) ayiruv bog‘lovchilari: *yoki, yo ... yo, goh ... goh, dam ... dam, bir ... bir, ba’zan ... ba’zan, xoh ... xoh;*
- 4) inkor bog‘lovchisi: *na ... na.*

185-mashq. Bog‘lovchilarni toping. Qanday mazmuniy munosabatni ro‘yobga chiqarayotganini ayting.

1. Qimmat ham sehrgar kampirning uyiga kelib qolibdi. Ammo u kampirga biror og‘iz ham shirin so‘z so‘zlamabdi, aytgan ishlarini qilmabdi. (*Ertakdan*) 2. Avvalo shuki, kovush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. (*G‘afur G‘ulom*) 3. Bu qizcha shu topda undan jon so‘rasa, balki, ayamasdi. Lekin non qani? (*Oybek*) 4. U rostini gapirib bergani uchun onasi urishmadi, balki yolg‘on gapirish odobli bolaning ishi emasligini aytdi. (*Shuhrat*) 5. Ko‘ksimdagи sevinch shuncha zo‘r, Dumalayman maysada tanho. Goh tentirab ketaman uzoq, Yerni quchib o‘paman goho. (*Oybek*)

6. Bolari tilida — og‘zida asal,  
Ming bir dardga davo, xushta’m va go‘zal  
Va lekin dumida nish — zahari bor,  
Men uni unutib, ko‘p bo‘ldim o‘sال. (*Azim Suyun*)

186-mashq. *Hamda, biroq, dam ... dam, yoki bog‘lovchilari yordamida «Saxiy quyosh» mavzusida og‘zaki matn tuzing.*

#### *Savol va topshiriqlar*



1. Teng bog‘lovchilar mazmuniy munosabatlariga ko‘ra qanday turlargacha bo‘linadi?
2. Bog‘lovchilarning har bir turiga misol keltirib, daftaringizga yozing.

187-mashq. *Uyga vazifa.* «Birinchi o'qituvchim» mavzusida hikoya tuzing. Hikoyada teng bog'lovchilardan foydalaning. Ularning tagiga chizib, turini aytинг.

## SOF VA VAZIFADOSH BOG'LOVCHILAR

**1-topshiriq.** Gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday vazifa bajarayotganini aniqlang.

**2-topshiriq.** Ularning ma'nolarini izohlashga harakat qiling.

1. Kun ilishi **bilan** daraxtlar kurtak yoza boshlaydi. (*Parda Tursun*)
2. Uning esiga **na** sevgi, **na** istirohat keldi. (*Oybek*) 3. Sen **ham**, men **ham** shunga ishonibmiz-a? («*Gulxan*»dan)
4. Biz o'sha o'yinlarda faqat jismonan emas, **balki** ma'naviy jihatdan ham chiniqar ekanmiz. (*Sh. Xolmirzayev*)
5. Kozimbek **bilan** Manzuraxon perronda kezishar edi. (*Abdulla Qahhor*)

**Bog'lovchilar ham xuddi ko'makchilar singari sof va vazifadosh turlarga bo'linadi.**

Faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlar sof bog'lovchilar sanaladi: *va, lekin, ammo, biroq* kabi.

Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi bog'lovchilar vazifadosh bog'lovchilar sanaladi.

Masalan: *Yozda Buxoroga qarindoshlarimizni ko'r-gani bordik ham* (bog'lovchi) *tarixiy obidalarni tomosha qildik.*

*Bilimli kishi o'lsa ham* (yuklama) *uning nomi o'chmaydi...* (*Ahmad Yugnakiy*)

188-mashq. Tarkibida bog'lovchisi bor gaplarni ko'chiring. Ularning sof yoki vazifadosh bog'lovchi ekanini aytинг. Ota-onani nima bilan rozi qilish mumkin? Shu haqda bahslashing.

1. Mushuk yarmi qizil, yarmi sariq koptokni u yoqdan bu yoqqa dumalatish bilan ovora edi. (*L. Mahmudov*)
2. Goh jahlg'a

minsam-da sal, Ichim to‘la mehr, qizim. Goh sal qo‘pol, goh sal dag‘al Dadajoning kechir, qizim. (*Yahyo Tog‘a*) 3. U chiroqni o‘chirib, sandal chetiga yotdi-yu, ko‘nglidagi g‘ulg‘ula kuchayib ketaverdi. (*O‘ Hoshimov*) 4. Boyvachcha yer o‘pib, tavba qilibdi va keksa ota-onasini rozi qilish uchun o‘sha zahoti ularning huzuriga shoshilibdi. (*N. Aminov*) 5. Oramizdagi farq shuki, men nima uchun shu ishni qilayotganimni bilaman, ammo sizlar bilmaysizlar. (*Abdulla Qahhor*)

**189-mashq.** Avval sof bog‘lovchili, keyin vazifadosh bog‘lovchili gaplarni ko‘chiring.

1. Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshirib ko‘rishmaydi? (*X. To‘xtaboyev*) 2. Ayniqsa, uning odob va axloq haqidagi «Turkiy Guliston» asari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qtgan emas. («*Gulxan»dan*) 3. Quyuq saksovulzor duch kelishi bilan kiyikcha o‘zini shu panohgohga urdi-yu, arang jon saqlab qoldi. (*S.Ravshanov*) 4. Bir kuni kechasi bir hiyla o‘ylab chiqdim-da, erta turgach, eski maktab sari jo‘nadim. (*Abdulla Qodiriy*) 5. Oy goh eshik tirqishlaridan mo‘ralar, goh bulutlar orasida g‘oyib bo‘lardi. (*Ch. Aytmatov*) 6. Aytishlaricha, bu tun tugab, Oy o‘z o‘rnini Kunga bo‘shatib berayotgan erta tong chog‘ida Boychechak bilan Navro‘zoy nihoyat bir-birini topadi. (*Anvar Obidjon*)

### ***Savol va topshiriqlar***

- ?
- 1. Sof bog‘lovchilarни айтинганда гаплар тузинг.
  - 2. Qanday bog‘lovchilar vazifadosh bog‘lovchilar deyiladi?
  - 3. Vazifadosh bog‘lovchilarни ham bog‘lovchi, ham o‘z vazifasida keltirib gaplар тузинг.

**190-mashq.** *Uyga vazifa.* Sof va vazifadosh bog‘lovchilar ishtirokida matn тузинг. Matnga sarlavha qo‘ying. Bog‘lovchilarning tagiga chizib, turini айтинг.

## BIRIKTIRUV BOG'LOVCHILAR

**1-topshiriq.** Berilgan gapdagi nuqtalar o‘rniga *va, bilan, hamda, -u (-yu), -da* yordamchilarini almashtirib qo‘yib ko‘ring.

Otni soy bo‘yiga bog‘ladi ... o‘zi yuqoriga chiqib ketdi. (*Abdulla Qahhor*)

**2-topshiriq.** Yuqoridagi bog‘lovchi vositalarning qanday umumiy ma’no ifodalashini topishga harakat qiling.

Teng munosabatdagi gap bo‘laklarini va gaplarni o‘zaro biriktirib keluvchi bog‘lovchilar biriktiruv bog‘lovchilari hisoblanadi.

Biriktiruv bog‘lovchilariga *va, hamda* sof bog‘lovchilari, *ilan* ko‘makchi-bog‘lovchisi, *-u (-yu), -da, ham* yuklama-bog‘lovchilari mansubdir. Bulardan *ham* bog‘lovchi vazifasida yakka va takror holda qo‘llaniladi.

**-u (-yu), -da o‘zi qo‘shilayotgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratiladi.**

191-mashq. Matnni o‘qing. Biriktiruv bog‘lovchisi qatnashgan gaplarni ko‘chiring. Biriktiruv bog‘lovchilari haqidagi fikringizni aytинг.

Ilmning foydasi shu qadar ko‘pki, ta’riflagan bilan ado qilish mumkin emas. Bizlarni jaholat qorong‘uligidan qutqaradi. Madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarib, yomon fe’llardan, bema’ni ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va adab sohibi qilib, Alloh taologa muhabbat va e’tiqodimizni orttiradi.

Payg‘ambarimiz: «Ilmga amal qiluvchilardan bo‘lingiz, naql va rivoyat qiluvchilardan bo‘lmangiz», — deganlar.

Ilm bir daryo — ichi to‘lmish dur-u gavhar bilan,

Qiymat-u qadrin qachon bilgan oni johil — yilon.

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir. Shariatimizda qaysi ilmga muhtoj bo‘lsang, shuni bilmoq bizga farzdir.

Shuning uchun o‘qimoq, bilmoq zamonlarini qo‘ldan boy bermay, vujudimizning dushmani bo‘lgan jaholatdan qutulmoqqa jonimiz boricha harakat qilmog‘imiz lozim. (*Abdulla Avloniy*)

◆ 192-mashq. Qavs ichidagi bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Jaholat nima? Shu haqdagi tushunchalar izingizni aytilib bering.

1. Bu she’r menga bag“ishlangani uchungina emas, (ammo, balki, negaki) unda ulug‘ shoirning buloq suvlaridek musaffo qalbi mavj urib turgani uchun ham sevaman. (*Z. Saidnosirova*)
2. Bir tovuqqa (va, bilan, ham) don kerak, (ham, hamda, va) suv kerak. (*Maqol*)
3. Jo‘sadi buloqning kumush yoshlari, (va, bilan, ham) mungli, (-u, -da, ham) shirin jildirashlari, Buralib, ko‘katlar ichidan chopar, Uzilgan marvarid yarqirashlari. (*Oybek*)
4. Badia (bilan, ham, lekin) Ma’suma beka arava tagiga kirib yashirinishdi. (*Mirmuhsin*)
5. Na uyquga to‘yan (bilan, va, ham) na kulguga, Ko‘rsa ko‘z kuygundek kelinchak edim. (*S. Zunnunova*)
6. O‘qidi (-yu, va, hamda) tanidan Chiqib ketdi muzdek ter. (*E. Vohidov*)
7. Bahaybat yaproqlar diyoridaman, Ulkandir bu yerning gul (-u, va, hamda) toshlari. (*Shavkat Rahmon*)

#### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Biriktiruv bog‘lovchilarini sanang.  
• 2. Qanday bog‘lovchilar biriktiruv bog‘lovchilari deyiladi?

193-mashq. *Uyga vazifa.* Biriktiruv bog‘lovchilarini qatnashdirib, «Menning do‘stim» mavzusida matn tuzing. Bog‘lovchilarining tagiga chizing. Ularning sof yoki vazifadoshligini aytинг.

## AYIRUV BOG‘LOVCHILARI

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar o‘rnida yo ... yo, goh ... goh, dam ... dam bog‘lovchilarini almashtirib qo‘llang.

Quyosh... yalt etib ko‘rinib qoladi, ... bulutlar ichiga bekinib oladi. (*Oybek*)

**2-topshiriq.** Yo ... yo bog‘lovchisi goh ... goh, dam ... dam bog‘lovchilar bilan almashtirilganda, gap mazmunida qanday o‘zgarishlar ro‘y berayotganini ayting.

O‘zaro bog‘lanayotgan bo‘lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko‘rsatuvchi bog‘lovchilar ayiruv bog‘lovchilari hisoblanadi. Masalan: *yo, yoki, yo ... yo, goh ... goh, dam ... dam, ba’zan ... ba’zan, bir ... bir* kabi.

Takror qo‘llanuvchi ayiruv bog‘lovchisi oldidan yozuvda vergul qo‘yiladi.

**194-mashq.** Ayiruv bog‘lovchilarining tagiga chizing. Qanday ma’no anglatayotganini ayting. Qo‘l telefonidan foydalanish odobi haqida bahslashing.

1. Yo bir maslahatni aytib bo‘ladi, yo ro‘zg‘or ishini. (*Cho‘lpon*)
2. Goh u birdaniga o‘yga tolib yuragimga g‘ulg‘ula solar, goh xomush tortib qolganimni ko‘rib kular edi. (*Xayriddin Sulton*)
3. Usmonali militsiyaga dam telefon qilar, dam o‘zi borib kelar, yana kechasi bilan telefon oldida o‘tirib chiqardi. (*S. Zunnunova*)
4. Savobdir jilg‘aga «soysan» deb aytsang Yo xunuk ayloga «oysan» deb aytsang. (*A. Oripov*)
5. Yo istagan bu maqsadga erishaman, yo o‘lim meni bu yo‘lda halok etadi. (*Ibn Sino*)
6. Suzmoqdami yo chopmoqda, Suv tagidan ne topmoqda? (*Mirtemir*)

**195-mashq.** Ayiruv bog‘lovchilarini qatnashtirib, oltita gap tuzing. Bog‘lovchilarining qanday ma’no anglatayotganini tushuntiring.

**196-mashq.** Nuqtalar o‘rniga ayiruv bog‘lovchilaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Mazmunini tushuntiring.

1. U ... yig‘lagisi, ... kulgisi, ... butun kechani ostin-ustun qilib qo‘sinq aytgisi kelardi. (*Said Ahmad*)
2. Yolg‘on ... farzandga urar, ... davlatga. (*Maqol*)
3. ... kattaning gapiga kir, ... kichikning. (*Maqol*)
4. Aslida, dunyoda tanho nima bor,

Paxta o'smaydimi o'zga elda ...? ... quyoshimi sevgimga sabab? Axir, quyoshli-ku butun Osiyo. (*A.Oripov*) 5. Sheriklar ringiz ham bormidi? ... bir o'zingiz bajardingizmi? (*X. To'xtaboyev*)

Bog'lovchilar: bir ... bir, yo ... yo, goh ... goh, yo, yoki.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Qanday bog'lovchilar ayiruv bog'lovchilari hisoblanadi?  
2. *yo, yoki, yo . . . yo* bog'lovchilari nima maqsadda qo'llaniladi?  
3. *goh . . . goh, bir . . . bir, dam . . . dam* bog'lovchilari qanday ma'noni yuzaga chiqaradi? Misollar bilan izohlab bering.

197-mashq. *Uyga vazifa.* Rasm asosida «Vatanimizni ko'z qorachig'iday asraymiz» mavzusida matn tuzing. Unda ayiruv bog'lovchilaridan foydalaning. Vazifasini tushuntiring.



## ZIDLOV BOG'LOVCHILARI

**1-topshiriq.** Berilgan gapdagi nuqtalar o‘rnida *ammo, lekin, biroq* bog‘lovchilarini o‘zaro almashtirib qo‘llab ko‘ring.

Hamma gullarning hidi bor, ... rayhonning hidi bo‘lakcha.

**2-topshiriq.** Bu bog‘lovchilarning o‘zaro qanday ma’noli so‘z va gaplarni bog‘lab kelishini aniqlang.

O‘zaro zidlik munosabatida bo‘lgan uyushiq bo‘laklar yoki gaplarni bir-biriga bog‘lab keluvchi *ammo, lekin, biroq* bog‘lovchilari zidlov bog‘lovchilari sanaladi.

*Balki so‘zi ko‘pincha zidlov bog‘lovchisi vazifasida qo‘llanadi. Masalan: Bu jarang-jurung ovozlar uning g‘ashini keltirmas, balki xayolini chalg‘itib, unga orom bag‘ishlardi. (M. Karim)*

Yozuvda zidlov bog‘lovchilaridan oldin vergul qo‘-yiladi.

**198-mashq.** Gaplarni ko‘chiring. Bog‘lovchilarning tagiga chizib, ularning turini ayting. Sabr-bardosh deganda nimani tushunasiz? Shu haqda fikr bildiring.

1. U turmushidan, o‘tgan umridan rozi, lekin ana shu rozilagini tushuntirib berolmas edi. (*S. Zunnunova*) 2. Agar o‘sha qizning ro‘molchasiga solgan somon va qand orqali nima demoqchiligin bilmasang, bor davlatingga o‘t qo‘yaman. (*Ertakdan*) 3. Qurvonbibi bir ko‘cha eshigiga, bir yonboshdagি daraxtlar orasidan ko‘tarilib kelayotgan quyoshga, bir o‘choqboshidagi qiziga qaradi. (*Cho Ipon*) 4. Bir o‘lka bor dunyoda, biroq Yozilmagan dostondir bori. (*A. Oripov*) 5. Yosh Farhodning fikri quyosh kabi yorug‘, lekin ko‘nglidagi ravshanlik undan ham ortiq. (*E. Vohidov*) 6. Har mushkulga bardosh berar, Chidar mening tosh boshim, Ammo sokin, tinch yashashga Sira yo‘qdир bardoshim. (*E. Vohidov*)

**199-mashq.** Gaplarni ko‘chiring, zidlov bog‘lovchilarini aniqlab, ularning gapdagi vazifalarini tushuntiring. Navro‘z haqida bilganlaringizni aytib bering.

1. Mamlakatimizda bayramlar ko‘p, lekin Navro‘zning taro vati, shukuhi o‘zgacha. (*D. Hayitova*) 2. Ma’nisiz hayot kechirish yomon turmush kechirish degani emas, ammo sekin-asta o‘lish demakdir. (*Demokrit*) 3. Yo‘qchilik g‘ayratli, ishchan odamning eshididan mo‘ralaydi-yu, ichkariga kira olmaydi. («*Hikmat noma*»dan) 4. Dunyoda kasblar ko‘p, biroq odamiylik kasbi hammasidan ulug‘dir. (*Gazetadan*) 5. Vaqt tig‘iz-ku, lekin ancha turgim bor. (*Mirtemir*) 6. Qancha yo‘llar bosdim, gohida toldim, Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard. (*Mirtemir*)

✓ **200-mashq.** *Balki so‘zi bog‘lovchi vazifasida kelgan gaplarni daftaringizga yozing. Beshinchisi gapdagi mavzu bo‘yicha munozara uyush-tiring.*

1. Bo‘rondan so‘ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki yana ko‘paydi. (*Sh. Rashidov*) 2. Xalqni qo‘rqitgan emas, balki xalq dardiga sherik bo‘lgan odam marddir. 3. Sobir nafaqat o‘qishda, balki sportda ham eng faol o‘quvchi. (*M. Qosimova*) 4. Balki, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir. (*O‘. Hoshimov*) 5. Inson go‘zalligi bilan emas, balki mehnati bilan kamol topadi. (*M. Qosimova*)

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Zidlov bog‘lovchilari o‘zaro qanday munosabatda bo‘lgan bo‘-laklarni bog‘laydi?
  2. Zidlov bog‘lovchilarini sanang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**201-mashq.** *Uyga vazifa. Bog‘lovchilar ishtirokida gaplar tuzing, qanday bog‘lovchidan foydalanganingizni aytинг.*

## INKOR BOG'LOVCHISI

**1-topshiriq.** Berilgan gapdag'i *na ... na* yordamchisini tushirib qoldiring. *Na ... na* yordamchisi ishtirok etgan gapning ma'nosi bilan qanday farq borligini aytинг. *Dilbar na o'qidi, na yozdi.*

Uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuk-lagan holda bog'lovchi *na... na* yordamchisi inkor bog'lovchisi sanaladi. Bunda gapning kesimi tasdiq shaklida bo'ladi. *Na... na* yuklama vazifasida ham kelishi mumkin. Bunda gapning kesimi inkor shaklida bo'ladi.

**202-mashq.** Gaplarni yozing, inkor bog'lovchilarining tagiga chizing. Hamma narsani inkor qilaverish to'g'rimi?

1. Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitiladi. (*Ibrohim Rahim*) 2. Na kampirning, na Qoratoyning yupatishlari kor qildi. (*Oybek*) 3. Cho'lquvarlarni na issiq, na suvsizlik yenga oladi, balki ular o'z jasoratlari, mehnatlari bilan tabiatni zabit etadilar. 4. Na eshikni, na derazalarni ochib bo'lardi. 5. Ko'ngil, sen munchalar nega Kishanlar birla do'stlashding? Na faryoding, na doding bor, Nechun sen muncha sustlashding? (*Cho'pon*) 6. Na oltin, na javohir edim... Armonli bir yosh shoir edim. (*Mirtemir*)

**203-mashq.** Inkor bog'lovchilari ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

1. U kishi hamma bilan qo'l berib xayrashdi-da, menga qolganda, burilib ketdi. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Bu qo'shiqda na nolish bor, na azob, unda yashash ishtiyobi, pok muhabbat, bitmas-tuganmas orzu va qudrat bor edi. (*O'. Umarbekov*) 3. U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. (*O'. Hoshimov*) 4. Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqaridan shamolning guvullashi aralash dahshatli bir faryod qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi.

(O': Hoshimov) 5. Na sen nazar qilding holimga bir bor, Na men ayta bildim senga biror so‘z. (A. Oripov) 6. Ko‘kda na yulduz bor, na bir tabassum, Tabiat ingrardi, yig‘lardi yum-yum. (Ramz Bobojon) 7. U na shoir edi va na mashhur zot, Lekin dunyo bilan bir edi dardi. (A. Oripov)

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. *Na... na bog‘lovchisining vazifasini tushuntirib bering.*  
2. *Na... na qanday xususiyatlarga egaligini misollar bilan izohlang.*

**204-mashq.** *Uyga vazifa.* Ko‘chiring. Qaysi gaplarda *na ... na* yordamchisi bog‘lovchi, qaysi gaplarda yuklama vazifasida kelganini aniqlang. Har doim haq gapni ayta olasizmi? Shu haqda o‘ylab ko‘rganmisiz?

1. Sharifning haqiqat ufurib turgan gaplariga qarshi na Nozima bir narsa deya oldi, na Nabijon. 2. Bepoyon dasht bag‘riga yashiringan chashmani na Qahramon, na Bahrom topa olmadi. 3. Sen na boy erursan va na kambag‘al, Yashaysan bir-biring aldab galma-gal. (A. Oripov) 4. Hamid yaratmoqchi bo‘lgan yangi paxta navi haqida hozircha na institut direktoriga, na do‘sti Umidga hech narsa demadi. 5. Bozorvoy ming qo‘yli boylar sirasiga kirsa-da, na uyida tayinli qozon qaynamas, na eshididan birov kirib chiqmas edi. (Nurali Qobul) 6. Javob ololmadi hech kim ham, zotan, Na sulton, na gado, na shoh, na faqir. (A. Oripov).

## **YAKKA VA TAKROR BOG‘LOVCHILAR**

**1-topshiriq.** Berilgan gapdagi ajratib ko‘rsatilgan uyushiq bo‘laklarni *va, yo ... yo, dam ... dam* bog‘lovchilar yordamida bog‘lang.

**Voleybol, futbol** to‘garagiga qatnashaman.

**2-topshiriq.** Qaysi bog‘lovchilar yakka holda, qaysilari takror holda qo‘llanilishini ayting.

Bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra yakka va takror bog'lovchilarga bo'linadi.

*Va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo kabi bog'lovchilar yakka, yo... yo, dam... dam, goh... goh bog'-lovchilari esa takror bog'lovchilar sanaladi.*

205-mashq. Avval yakka, so'ngra takror bog'lovchili gaplarni ko'-chiring.

1. Bulutlar haydar shamol, Goh yog'ib o'tar yomg'ir. Barglar pokiza, zilol, Goh quyosh to'kadi nur, Goh yog'ib o'tar yomg'ir. (*Ramz Bobojon*) 2. Ko'rinardi na bir daraxt, Na biror kulba. Bo'sh kelmadik bo'ronlarga, Qilmadik tavba. (*Ramz Bobojon*) 3. Gulnor chiroyli va erka tabassum bilan «xo'p» deganday bo-shini qimirlatdi. (*Oybek*) 4. Yo'lchi kechgacha dam u ekinda, dam bu ekinda ishlaydi. (*Oybek*) 5. Men buyuk yurt o'g'lidurman, Men bashar farzandiman, Lekin avval senga bo'lsam Sodiq o'g'lon, o'zbegin. (*E. Vohidov*) 6. Odamlar goh koyib, goh tutdi yoqa, O'g'lim yo'q deb yana o'kinma, ona. (*S. Zunnunova*)

✓ 206-mashq. Bog'lovchilarni toping. Ularning ma'nosiga ko'ra turini aniqlang. Birinchi gapdag'i fikrga qo'shilasizmi?

1. Mevani gullata bilishgina emas, balki undan mo'l va shirin hosil yetkaza bilish san'atdir. («*Hayot – ustoz, xalq – muallim*» *kitobidan*) 2. Bilim – boylik, ammo uning boshqa boyliklardan farqi bor. (*B. To'xliyev*) 3. Na kunduz, na kecha beradi tinchlik, — Yoz, — deydi, — azizim, ma, qalam, daftar! (*Ramz Bobojon*) 4. Kampir ba'zan mudrar, ba'zan o'g'li bilan nimalarnidir gaplashar edi. (*S. Zunnunova*) 5. Nogahonda xayolga botsam Yo uylasam, uyg'oting darrov. (*A. Oripov*) 6. Hayratga tushdim men kuy tinglab yakka Yoki o'zgalarning she'riga boqib. (*A. Oripov*) 7. Buyuklar baxtiga havas qil, ammo Insonliging uchun shukr aytgil zinhor. (*A. Oripov*)

◆ 207-mashq. Adabiyot kitobingizdan yakka va takror bog'lovchili 6 ta gap yozing. Ularning ma'no turini aytинг.

## *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Yakka bog'lovchilar ishtirokida gaplar tuzing.
  2. Qanday bog'lovchilar takror holda qo'llanadi? Ular nimani anglatadi?
  3. Takror holda qo'llanuvchi bog'lovchilar yakka qo'llanilishi ham mumkinmi? Misol keltiring.

◆ 208-mashq. *Uyga vazifa.* Bog'lovchilar qatnashgan gaplarni yozing. Bog'lovchilarning ma'nosiga va qo'llanilishiga ko'ra turini aytинг.

1. Ishqilib yo ilmli, yo hunarli bo'lish payida bo'linglar. (*X. To'xtaboyev*) 2. Kim nima desa deyaversin. Lekin sarta-roshlikdan yaxshi kasb yo'q. (*X. To'xtaboyev*) 3. Jomiy va Navoiy o'rtasidagi yakdillik va do'stlik o'zbek hamda tojik xalqlarining birodarligi va do'stligining yorqin timsolidir. (*A. Qayumov*) 4. Qo'chqor akam bilan amakim ancha orqada qolib ketibdi. (*N. Fozilov*)

## **ERGASHTIRUVCHI BOG'LOVCHILAR**

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning vazifasi va ma'nosini tushuntiring.

1. Agarda uning yonida usta Olim bo'limganda edi, ehtimol, u qay vaqtlargacha serrayib qolar edi. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir. (*Nizomiy*)

**O'zaro tobe munosabatida bo'lgan gap bo'laklari va gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilar ergashtiruvchi bog'lovchi sanaladi.**

**Chunki, ya'ni, agar, garchi singari so'zlar ergash-tiruvchi bog'lovchilardir.**

◆ 209-mashq. Jadval asosida ergashtiruvchi bog'lovchilarning turlari haqida so'zlang.

Ergashtiruvchi bog'lovchilarning turlari	Vazifasi	Misollar
Aniqlov bog'lovchisi	Gap bo'laklarini va gaplarni tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi aniqlashtirish ma'nosini ifodalaydi	<i>Ya'ni</i>
Sabab bog'lovchilari	Gaplarni o'zaro tobelantirib bog'-laydi, ular o'rtasidagi sabab ma'nosini ifodalaydi	<i>Chunki, negaki</i>
Shart bog'lovchilari	Gap bo'laklari va gaplarni tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi shart ma'nosini ifodalaydi	<i>Agar, basharti, garchi</i>

**210-mashq.** Bog'lovchilarni ajrating. Ularning turini ayting va gaplar tuzing.

Faqat, ammo, uchun, juda, asta, chunki, hozir, sal, ya'ni, so'ng, lekin, hamda.

**211-mashq.** Ko'chiring, ergashtiruvchi bog'lovchilarni topib, izohlang. L. Tolstoyning fikriga qo'shilasizmi?

1. Qo'rroq do'st dushmanidan xavflidir, chunki dushmanidan ehtiyoj bo'lasan, ammo do'stga ishonasan. (*L. Tolstoy*) 2. Taraqqiyot tasodif emas, balki zaruriyatdir. (*V. Gyugo*) 3. Abdumalik ota nevaralarini yeyishar deb, har bahorda ko'chat ekadi. (*A. Shukurov*) 4. Vatanimiz poytaxtida, ya'ni Toshkentda diq-qatga sazovor joylar ko'p. («*Gulxan»dan») 5. Badantarbiya bilan mashg'ul bo'lmay qo'ygan kishi tez-tez kasalga chalinadi, chunki harakatsizlik natijasida kishining a'zolari zaiflashadi. (*Ibn Sino*)*

✓ **212-mashq.** Nuqtalar o'rniga mos bog'lovchilarni qo'yib, gaplarni yozing. Bog'lovchilarning tagiga chizib, turini ayting.

1. Tarixing bitmakka, xalqim, Mingta Firdavsiy kerak, ... bir bor chekkan ohing Mingta doston, o'zbegim. (*E. Vohidov*)

2. ... shuncha mag‘rur tursa ham, Piyolaga egilar choynuk.  
(*E.Vohidov*) 3. ... o‘z aytganingda qattiq turib, meni so‘yib  
yeganingda, ichimda kaptar tuxumiday bir marvarid chiqardi,  
— debdi chumchuq cholga. (*Sa’diy*)

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Bog‘lovchi deb nimaga aytildi? Uning qanday turlari bor?
  2. Qanday bog‘lovchilar ergashtiruvchi bog‘lovchilar deyiladi? Misollari keltiring.
  3. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarning qanday turlari mavjud? Misollari bilan tushuntiring.

**213-mashq.** *Uyga vazifa.* «Tilga e’tibor — elga e’tibor» mavzusida matn tuzing. Unda ergashtiruvchi bog‘lovchilardan foydalaning. Bog‘lovchilarning tagiga chizing.

## **SABAB BOG‘LOVCHILARI**

**1-topshiriq.** Gaplardagi nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi bog‘lovchilardan mosini qo‘ying.

1. Xalq bunday yolborishlarga qulq solmadi, . . . (ammo, chunki, va) g‘isht qolipdan ko‘chgan edi. (*A. Qodiriy*) 2. Qiz elektr-payvandchilik kasbini qunt bilan o‘rgandi, . . . (chunki, ammo, va, negaki) zavodda bu kasbga ehtiyoj katta edi. (*Sh. Rashidov*)

**2-topshiriq.** Bu bog‘lovchilarning qo‘yilish sababini tushuntiring.

**Chunki, negaki bog‘lovchilari sabab bog‘lovchilari hisoblanadi.**

**Yozuvda bu bog‘lovchilardan oldin vergul qo‘yiladi.**

**214-mashq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi bog‘lovchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Otangiz va onangiz bilan maslahatlashib ish ko‘rasizmi? Shu haqda o‘ylab ko‘rganmisiz?

1. Biroq Zavqiy Mo‘minboy bilan uzoq muddat ishlay olmadi, ... (agar, chunki) boy va uning ukalarini hajv qilganligi

babli u vazifasidan ozod etiladi. («*O'zbek adabiyoti*») 2. Lekin kum isishini kutish haqida gap bo'lishi ham mumkin emas, ... (purchi, ya'ni, chunki) havoga ishonish qiyin, eng muhimi, qor ustiga qor yog'ib, dashtda qolib ketishlari ehtimoldan xoli emas. (*O. Yoqubov*) 3. Biroq vaqt ketsa ham, otaning maslahati bilan ish tutganlari yaxshi bo'ldi, ... (ya'ni, chunki) Yomontosh darasi ular kutganday mudhish edi! (*O. Yoqubov*) 4. Kishining iste'dodi barcha sohada bir xil bo'lavermaydi, ... (chunki, ya'ni) yoshlari o'zi sevgan, qobiliyatiga mos bo'lgan ishni tanlay bilishi kerak. (*Y. Shukurov*)

215-mashq. *Chunki, negaki bog'lovchilari ishtirokida «Hunar ado bo'lmas boylikdir» mavzusida matn tuzing.*

216-mashq. *Sabab bog'lovchilari qatnashgan gaplarni yozing.*

1. Hamon shamol o'kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong'oq shoxlari shubhali g'iyqillar, amma endi bular uni qo'rqitolmas edi. (*O'. Hoshimov*). 2. Bu xabar unda hech qanday norozilik tug'dirmadi, chunki ertaroq qaytishga juda ham orzumand emas edi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Nega u siznikida yuradi? — Negaki boradigan joyi yo'q. (*S. Zunnunova*)

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Qanday bog'lovchilar ergashtiruvchi bog'lovchilar deb ataladi?  
2. Sabab bog'lovchilarini aytинг. Ular ishtirokida gaplar tuzing.  
3. Nima uchun bu bog'lovchilar sabab bog'lovchilari deyiladi?

217-mashq. *Uyga vazifa. O'zingiz sevgan badiiy asardan sabab bog'lovchilari ishtirok etgan 6 ta gap yozing.*

## ANIQLOV BOG'LOVCHISI

**1-topshiriq.** Gapdag'i ajratib ko'rsatilgan so'zning vazifasi va ma'nosini aniqlang.

Julqunboy, ya'ni Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligining asoschisidir.

**2-topshiriq.** Ya'ni bog'lovchisining qaysi o'rinda qo'llanilishi va tinish belgilarini tushuntiring.

**! Ya'ni bog'lovchisi aniqlov bog'lovchisi sanaladi.  
Yozuvda ya'ni bog'lovchisidan oldin doimo vergul  
qo'yiladi.**

**218-mashq.** Aniqlov bog'lovchisini qatnashtirib, to'rtta gap yozing. Bog'lovchining tagiga chizing. Shirinso'zlik deganda nimani tushunasiz? Shu haqda fikr bildiring.

**219-mashq.** Aniqlov bog'lovchisining tagiga chizing.

1. U ilonni aldagani uchun, ya'ni unga dunyodagi eng tansiq taom insonniki emas, qurbaqaning go'shti ekanini aytgani uchun ta'qibga uchragan emish. («*Turfa rang tabiat*» kitobidan) 2. Bu holda mazkur so'zlar adabiy ilmlarni, ya'ni til va adabiyot bilan bog'liq ilmlarni anglatadi. 3. Tilning bilish borasidagi ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oliv martabasini ham o'z ichiga oladi. (Alibek Rustamiy) 4. O'sha davrlarda adabiyot tarixi darsi xronologik va tematik xarakterga ega emas edi, ya'ni adabiyot tarixi dars sifatida o'tilmasdi. (S. Dolimov) 5. Til o'z vazifasini bajarmasa, qo'l ishga tushadi, ya'ni insoniy munosabat o'rnini hayvoniy xatti-harakat oladi. (Omon Muxtor)

### Savol va topshiriqlar

1. Aniqlov bog'lovchisi ishtirokida gaplar tuzing.
2. Nima uchun ya'ni bog'lovchisi aniqlov bog'lovchisi hisoblanadi? Misollar bilan tushuntiring.

**220-mashq.** Uyga vazifa. «Non qadri» mavzusida hikoya yozing. Unda bog'lovchilardan foydalaning. Aniqlov bog'lovchisining tagiga chizing.

## SHART BOG'LOVCHILARI

**1-topshiriq.** Quyidagi gaplarda nuqtalar o'rniga qavs ichidagi bog'lovchilardan mosini qo'yib, ko'chiring.

1. .... (chunki, agar) ko'klam qo'lidan berilsa, oqibati nima bo'lishini aytди. (Abdulla Qahhor) 2. Shundaylar bo'lmasa ... (garchi, ugar) dunyoda, Bu qadar muhtaram bo'lmasdi ayol. (A. Oripov)

**2-topshiriq.** Bu bog'lovchilarning qo'yilish sababini tushuntiring.

**! Agar, agarda, basharti, garchi singari bog'lovchilar shart bog'lovchilari hisoblanadi.**

**221-mashq.** Gaplarni o'qing. Bog'lovchilarni topib, jadvalga joylashtiring. Kibr nima? Kibrli insonlarni qanday tasavvur qиласиз? Sinfingizda shunday o'quvchilar bormi?

1. Bunday mehnatkashni ko'rmagan dunyo, Chunki u asrimiz farzandi erur. (A. Oripov) 2. Agar do'stlikni ham bilmasa, asli, Kimga kerak, axir, inson degan nom! (A. Oripov) 3. Agar yo'lidan ozib, bir xato qilsam, Kibr paydo qilsam, topilur davo. (Shukrullo) 4. «Shu'lafizo» — shu'la orttiruvchi, ya'ni kuchli shu'la hosil qiluvchi degani. (Alibek Rustamiy) 5. Agar havoda chang va tutun bo'lmasa edi, odam ming yil yashagan bo'lardi. (Ibn Sino)

Sabab bog'lovchilari	Aniqlov bog'lovchisi	Shart bog'lovchilari

**222-mashq.** Nuqtalar o'rniga bog'lovchilarning mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. .... ularning oldida sukut saqlab o'tirsang, go'yo bu gullar uyqudan uyg'onib allanimalar haqida shivirlayotgandek tuyuladi. (Ch. Aytmatov) 2. Men bu ishga ... ko'nganimda ham, qizingizdan yashirmayman. (Abdulla Qodiriy) 3. ... birovga

kulib qarasa, o'sha zahoti marhamat ko'rgan kishining oldi borib, dum urib qiy panglarkan. (*N. Aminov*) 4. Lek hozirchi borman, omonman, Men yashayman, ... yomonman. (*E. Vohidov*) 5. ... halolsen, Tilingni tiyma! Bitsin, yo'qolsin «Sen men ga tegma!» (*E. Vohidov*) 6. Oltin qafas ichra ... qizil gul butsa Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish. (*Alisher Navoiy*)

### 223-mashq. Bog'lovchilar ni turlarga ajrating. Shart bog'lovchilar qatnashgan gaplar tuzing.

Hamda, biroq, va, yo ... yo, garchi, chunki, ammo, hamdam ... dam, lekin, basharti, yoki, agar, goh ... goh, ya'ni.

#### *Savol va topshiriqlar*



1. Shart bog'lovchilarini aytинг va ular ishtirokida gaplar tuzing.
2. Shart bog'lovchilar qanday vazifa bajaradi?
3. Bog'lovchilar ishtirok etgan gaplarda tinish belgilaringning ishlatalishi haqida gapiring.

224-mashq. *Uyga vazifa.* «Agar men sehrgar bo'lsam» mavzusida hikoya yozing. Bog'lovchilardan foydalaning. Shart bog'lovchilarining tagiga chizing.

## MUSTAHKAMLASH

#### *Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar*



1. Bog'lovchilar deb nimaga aytildi?
2. Biriktiruv bog'lovchilari qaysilar?
3. Zidlov bog'lovchilari ishtirokida gaplar tuzing.
4. Sabab bog'lovchilarini qatnashtirib gaplar hosil qiling.
5. Aniqlov bog'lovchisi deb nimaga aytildi?
6. Shart bog'lovchilar qaysilar?

**1-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga quyida berilgan bog'lovchilardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Bog'lovchilarga izoh bering.

1. Tog'ga chiqishda Boburning o'smirligi juda ish berdi. U hammadan oldin toshdan toshga yengil ko'tarilib borar, ... onasiga, ... opasiga yuqoridan qo'l cho'zib yordamlashib qo'yardi. (*P. Qodirov*)

Kecha... kunduz aqliy mehnat bilan mashg'ul bo'lgan alloma qutning qanday tez o'tayotganini sezmas edi. (*Mirkarim Osim*) Nobirjonning yoshi oltida, ... yoshiga nisbatan bo'yi past. (*S. Mardiev*) 4. Ular qushchalarни, rang-barang baliqchalarни, oq ... kulrang quyonchalarни tomosha qilishadi. (*A. Azimova*)

Bog'lovchilar: *va, ammo, -u, -yu, goh... goh.*

**2-topshiriq.** Matnni ko'chiring. Bog'lovchilarni topib, ularni izohlang. Matndagi g'oya haqida bahslashing.

Shavkat qushdagi o'zgarishdan tashvishga tushdi. Otasidan buning lababini so'radi.

— Yorug' dunyodagi har bir maxluqot, avvalo, ozod va erkin vashash uchun yaratilgan, — dedi Abduqodir aka.

— Unda odamlar nega hayvonlarni hamda qushlarni qo'lga o'rgatishadi, qafasga solishadi?

— Bir vaqtlar odamzod ona tabiat bilan bir tan-u bir jon bo'lgan, endi esa tabiat ustidan zo'ravonlikka o'tdik, buning oqibati yaxshi bo'lmaydi.

Shavkat uchun bu gap yangilik edi. (*Sh. Otaboyev*)

**3-topshiriq.** *Uyga vazifa.* Gaplarni ko'chiring. Bog'lovchilarga izoh bering.

1. Mol va boylikning umri qisqa, tezda zavol topadi, ammo yaxshi nom uzoq asrlar davomida o'lmaydi. 2. Mirza Muhiddin goh jiddiy gapirib, goh suyuqlik qilib, uni yuqoriroq o'tirishga undardi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Razzoq so'fining so'zları va Qurvonbibining ishontirishlari ila Zebining ko'ngli bir qadar tinchlandi. (*Cho'pon*) 4. Ko'pchilikning yo akasi, yo o'g'li urushda. (*Said Ahmad*)

## YUKLAMA HAQIDA MA'LUMOT

**1-topshiriq.** Berilgan gaplarning bir-biridan nimasi bilan farq qilayotganini izohlang.

Dalalarda boshlanadi ish. (*Hamid Olimjon*) — Dalalarda ish boshlandimi? — Dalalarda ish boshlandi-ku. — Axir, dalalarda ish boshlandi. — Dalalarda ish boshlandi-da. — Dalalarda ish boshlangandir.

**2-topshiriq.** Ajratib ko'rsatilgan so'z va qo'shimchalarning gap mazmuniga qanday ma'no yuklayotgani haqida fikr yuriting.

So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegeralash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalarga yuklamalar deyiladi.

Yuklamalarga: 1) *axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na ... na* so'zlari;

2) *-mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u, -yu, -da, -a* singari qo'shimchalar kiradi.

Ularning birinchi guruhi so'z-yuklamalar, ikkinchi guruhi esa qo'shimcha-yuklamalar sanaladi.

**225-mashq.** Jadval asosida yuklamalarning ma'no turlari haqidagi apiring.

Yuklamalarning ma'no turlari	Yuklamalar
So'roq-taajjub yuklamalari	<i>-mi, -chi, -a (-ya)</i>
Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari	<i>hatto, -ku, ham, nahotki, -u (-yu), -da, -oq (-yoq), axir, g'irt</i>
Ayiruv-chegegaralov yuklamalari	<i>faqat, -gina (-kina, -qina), atigi</i>
O'xshatish-qiyoslash yuklamalari	<i>go'yo, go'yoki, xuddi, naq</i>
Gumon yuklamasi	<i>-dir</i>
Inkor yuklamalari	<i>hech, sira, na... na</i>

**226-mashq.** Berilgan gaplarda *-u (-yu), -da, na... na* yordamchilarining qaysi o'rinda bog'lovchi, qaysi o'rinda yuklama vazifasida kelganini aniqlang.

1. Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurullab ketdi. (*O. Yoqubov*) 2. Biladilar-da bu kishi. Yovlar bilan olishgan-a! (*O. Yoqubov*) 3. Mana endi daradan chiqar-chiqmas, uning isitmasi ko'tarilib, ko'z oldini g'alati tuman

qoplab oldi-yu, hamma narsa tushday tuyula boshladi. (*O. Yoqubov*) 4. Men-ku yolg'iz edim, Na otam, Na onam, na oilam bor... (*E. Vohidov*) 5. Na so'ngiga yetoldi ishning, Na dunyoni anglab ulgurdi. (*E. Vohidov*) 6. Dunyoga to'z-g'iding bamisoli par, Na saljuq, na Chingiz qilmadi shafqat. (*A. Oripov*) 7. Hozir kelaman dedim-u, loy kechib uyg'a yugurdim. (*Said Ahmad*) 8. Charchadim. Nahotki, siz ham meni o'yamasangiz. (*Omon Muxtor*)

✓ 227-mashq. Yuklamalarni topib, ma'nosiga ko'ra turlarini aniqlang. Inson va tabiatning birligi bo'yicha fikr bildiring.

1. Ayt-chi, go'zal Sanobar, Qayer sening makoning? (*Qo'shiq*) 2. Faqat ojiz qalamim manim, O'zbekiston — Vatanim manim. (*A. Oripov*) 3. Ona zaminda o'sadigan mevali, manzarali dov-daraxtlar, o'simliklar hayot uchun, inson salomatligi uchun naqadar zarur. Ularning shifobaxshligi-chi? (*I. To'xtasinov*) 4. Qarshiligi ko'rinish turibdi-ku! Bu qarshilik emasmi? (*Abdulla Qahhor*) 5. Nahotki, sezmasangiz? Axir, bir oydirki, yurakbag'rim yonadi. (*Said Ahmad*)

#### *Savol va topshiriqlar*

1. Qanday so'zlar turkumi yuklama deyiladi?
2. Yuklamalar qanday ma'no turlariga ega?
3. Ularni qatnashtirib gaplar yozing.

228-mashq. Uyg'a vazifa. «Mustaqillik va Navro'z» mavzusida matn tuzing. Matningizda yuklamalardan ham foydalaning.

## SOF VA VAZIFADOSH YUKLAMALAR

**1-topshiriq.** Berilgan gaplarda *-u* (*-yu*), *-da* yordamchilarining qaysi o'rinda bog'lovchi, qaysi o'rinda yuklama vazifasida kelayotganini aniqlang.

1. Qiz erta-yu kech soatga qaraydi, daqiqalar sanaydi. (*Hamid G'ulom*). 2. Majlis ertaga qoldirilmaydi-yu. 3. Nosir oxun eski bo'lsada, ozoda libosda edi. (*Sobir Abdullo*). 4. Choy qaynatib ichishni-da unutdi. (*Oybek*) 5. Birrov kirdi-da, chiqib ketdi. (*Oybek*)

**2-topshiriq.** Gaplardagi na... na yordamchisining bog'lovchilik va yuklamalik xususiyatlarini aniqlashga harakat qiling.

1. Bu yerda na ofat, na kulfat, na g'am. (*G'afur G'ulom*) 2. Na uyda topolmayman, na ishda. (*Said Ahmad*)

**-u (-yu), -da** yordamchilari o'rniga va bog'lovchisini qo'yish mumkin bo'lsa, bog'lovchi vazifasida, boshqa holatlarda yuklama vazifasida keladi.

**-da** yordamchisi yuklama vazifasida kelganda, ko'pincha uning o'rniga **ham** yuklamasini qo'yish mumkin bo'ladi.

✓ **229-mashq. Yuklamali gaplarni yozing.**

1. U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. (*O'. Hoshimov*)
2. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko'ngilga yaqin-da, qadrdon! (*Sh. Xolmirzayev*)
3. Yoshgina bir qiz keng atlas ko'ylagini hilpiratib, sahnaning o'rtafiga keldi-da, nima-nidir e'lon qildi. (*O'. Umarbekov*)
4. Na martaba, na boyligi bor edi uning. (*E. Vohidov*)
5. Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitilmadi. (*Ibrohim Rahim*)
6. Jarang bersin gulyor tag'in, Childirma-yu chiltor tag'in. (*Mirtemir*)

◆ **230-mashq. Vazifadosh yuklamalar ishtirokida 6 ta gap yozing.**

**231-mashq. Yuklamalarni toping va ma'no turlarini aniqlang.**

-mi, faqat, bilan, va, -ku, hatto, ya'ni, -a(-ya), hamda, ham, nahot, -chi, -da, uchun, tomon, -yu, barcha, ammo, goh, lekin, yoki, biroq.

*Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Na... na yordamchisi qanday vazifa bajaradi? Misollar bilan tu-shuntiring.
  2. **-u (-yu), -da** yuklamalari qachon bog'lovchi vazifasini bajaradi? Misollar keltiring.

**232-mashq.** *Uyga vazifa.* Rasmga qarab, «Yosh bog‘bonlar» mavzusida matn tuzing. Unda -u (-yu), -da, na... na yordamchilari ham yuklama, ham bog‘lovchi vazifasida kelsin.



## SO‘ROQ VA TAAJJUB YUKLAMALARI

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi yuklamalarni qo‘yib, so‘roq gaplar hosil qiling.

Shu mактабда о‘qисиз... (-mi, -chi, -a (-ya)? Ha. Siz... (-mi, -chi, -a (-ya)?

**2-topshiriq.** -mi, -chi, -a (-ya) yuklamalarining qaysilari qo‘shib, qaysilari chiziqcha bilan yozilishiga diqqat qiling.

**Gapning mazmuniga so‘roq-taajjub ma’nosini yuklovchi yordamchi so‘zlarga so‘roq yuklamalari deyiladi.**

Yozuvda -mi yuklamasi so‘zga qo‘shib, qolgan yuklamalar esa chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

**233-mashq.** So‘roq yuklamalarini qatnashtirib matn tuzing. Unga sarlavha qo‘ying.

**234-mashq.** Yozing. Yuklamalarning tagiga chizing. So‘roq yuklamalarni ajrating. O‘z nutqingizda yuklamalardan foydalanasizmi? Shunga e’tibor bergansizmi?

1. Men bor-ku! — deb qichqirdi Akbarali kulib. (*Asqad Muxtor*)
2. Bola-chaqa omon ekanmi? (*Asqad Muxtor*)
3. Nega yo‘q bo‘larkan? Muattar Zokirovna-chi? Lobarxon-chi? (*X. Sultonov*)
4. — Ba’zan ko‘cha-ko‘yda ham bir narsalarni topib oladi-ya. — Bekor yurmay deydi-da! (*Sh. Bo‘tayev*)
5. Xatini ham ololdingizmi? — dedi va sabrsizlanib Sodiqning og‘ziga tikildi. (*Abdulla Qodiriy*)

### **Savol va topshiriqlar**

- ?  
1. So‘roq yuklamalari haqida gapiring.  
2. Nima uchun ular so‘roq yuklamalari deyiladi?  
3. Ular gap mazmuniga so‘roq ma’nosi bilan birga yana qanday ma’no yuklaydi?

**235-mashq.** Uyga vazifa. *-mi*, *-chi*, *ham*, *nahotki* yuklamalarini qatnashtirib, gaplar tuzing. Yuklamalar tuzgan gaplaringizga qanday ma’no yuklayotganiga e’tibor bering.

## **AYIRUV-CHEGARALOV YUKLAMALARI**

**1-topshiriq.** Berilgan gapdagisi ajratib ko‘rsatilgan so‘z va qo‘shimchaning vazifasini ayting.

Faqat daraxtlar, ariqlar, ko‘priklargina tanish. (*Asqad Muxtor*)

**2-topshiriq.** Faqat va *-gina* (*-kina*, *-qina*) yuklamalarining ma’nolarini tushuntiring.

**3-topshiriq.** Faqat yoki *-gina* yuklamasini qatnashtirib, gaplar tuzing.

O‘zl qo‘shilayotgan so‘zning ma’nosini ayirib-che-garalab keluvchi *faqat* va *-gina* (*-kina*, *-qina*) yuklamalari ayiruv-chegaralov yuklamalari hisoblanadi.

Bulardan *faqat* sof yuklama, *-gina* (*-kina*, *-qina*) vazifadosh yuklamadir.

236-mashq. Matnni o‘qing. Ayiruv-chegegaralov yuklamalari qatnashgan gaplarni yozing. Yuklamalarning tagiga chizing.

1. Toki odamlar meni ko‘rmasin, faqat mehnatimni ko‘rishsin. (*Asqad Muxtor*) 2. Bizni porloq kelajakka Mustaqillik yo‘ligina eltadi. 3. Mehmon esa «buning o‘zi nima-yu, muomalasi nima bo‘lardi» degan ma’noda kulib qo‘ydi, xolos. (*Cho‘pon*) 4. Vaholanki, til davlat miqyosida qo‘llanilsagina milliy til bo‘lib qoladi va ravnaq topadi. («*Vatan tuyg‘usi* kito-bidan) 5. Xotin, bu gaplar kitobdagina bor, xolos, hayot boshqa. (*S. Zunnunova*)

237-mashq. Gaplarni yozing. Yuklamalarni topib, ma’nosini izohlang.

1. U chaqqon harakat qilarkan, a’zoyi badani terlab ketgan, faqat buni o‘zi payqamas, hatto bir so‘zni takrorlardi: «Menga desa, otib yubormaydimi?» (*O‘. Hoshimov*) 2. «Haqiqatni, faqat haqiqatni aytaman» deb ont iching! (*X. To‘xtaboyev*) 3. Ulardan faqat birga oldirilgan suratgina yodgor qoladi, xolos. (*Said Ahmad*) 4. Keksa donishmandning soch-soqoligina emas, qosh-kipriklari, egnidagi chakmoni – hammasi qorday oppoq edi. (*O. Yoqubov*) 5. Suvchilarning yuzin silab o‘t, Faqat yaxshi tilak tilab o‘t. (*Mirtemir*)

◆ 238-mashq. *Faqat, -gina, -kina, xolos* yuklamalarini qatnashdirib gaplar tuzing. Ularning yozilishiga diqqat qiling.

239-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos yuklamani qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Dunyoda nima mangu qoladi? Shu haqda o‘ylab ko‘rganmisiz?

1. ... jimplik tilaydi yurak, Sizdan bugun birligina o‘tinch: Yolq‘iz qo‘ying meni, do‘stilarim, Charchaganman, orom olayin. (*E. Vohidov*) 2. U ... shoir... emas, balki adabiy tanqidchi ham edi. 3. Yo‘q, bekam, men ... biz diqqat bilan hamma yoqni qidiryapmiz, dedim. (*Mirmuhsin*) 4. Bahor ham, umr ham o‘tar, ehtimol, ... sen dunyoda mangu qolursan. (*A. Oripov*) 5. Kuyning ... nasiba, rizqi bo‘lurmi? Kuyni ... avjida qirqsa bo‘lurmi? (*Sirojiddin Sayyid*)

## Savol va topshiriqlar

- ? 1. Qanday yuklamalar ayiruv-cheagaralov yuklamalari deyiladi?  
2. -gina, (-kina, -qina) qo'shimchasi yana qanday xususiyatga ega?  
Misollar bilan tushuntiring.

240-mashq. Uyga vazifa. -gina yuklamasi va -gina erkash qo'shimchasini bir-biridan farqlovchi so'zlar qatnashgan gaplar yozib, ularning farqini tushuntiring.

## KUCHAYTIRUV-TA'KID YUKLAMALARI

**I-topshiriq.** Berilgan gaplardagi yuklamalarni tushirib qoldiring.

1. O'shanda dadam ham frontda edilar. (*O'. Umarbekov*) 2. Necha marta uchrashay dedim-ku. (*Oybek*) 3. Yurtimiz yaqin kunlarda bundan-da go'zalroq, bundan-da farovonroq bo'lishiga ishonaman. (*I. To'lakov*)

Gapning ma'lum bir bo'lagi yoki butun gap ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab keluvchi yuklamalar kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari hisoblanadi.

*Hatto, nahotki, ham, g'irt singari so'zlar, -ku, -u (-yu), -da, -oq (-yoq)* qo'shimchalari kuchaytiruv-ta'kid yuklamalaridir.

Yozuvda -ku, -u (-yu), -da yuklamalari chiziqcha bilan, -oq (-yoq) yuklamasi esa qo'shib yoziladi.

241-mashq. Yuklamalarni turlarga ajratib, gaplarni ko'chiring. Nut-qingizda qaysi yuklamalarni ko'proq ishlatasiz?

1. Mol o'tlaydigan, bolalar chillak o'ynaydigan yer-da! (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Shundoq deydi-yu, egasi ming poylasin, o'g'ri – bir. (*O'. Hoshimov*) 3. – Bu nima gap, taqsir, – deb so'rashibdi, – mehmonga izzat-hurmat shumi? (*N. Aminov*) 4. – Ikkinchiga o't, hisobni bilmaysan. – U pakana kishiga qaradi: Shunday qilsin-a? (*O'. Hoshimov*) 5. Nahot, axir, so'nggi dam ham Farzandingni o'ylasang. (*A. Oripov*) 6. Ajralishar, ular, hattoki, Ismlarin so'rashmaslar ham. (*A. Oripov*)

**242-mashq.** Gaplarni ko'chiring, kuchaytiruv-ta'kid yuklamalarining tagiga chizing va ularni izohlang. Bechinchi gapda aytilgan fikrga o'z munosabatingizni bildiring.

1. To'g'ri-da, u tengi bolalar papka ko'tarib mактабга borishadi, uni esa «kichkina» deb xafa qilishadi. (*S. Mardihev*)
2. Xullas, hammasi ko'ngildagidek borayotgan edi-yu, to'satdan ikkovlari ham shaharga, o'z uylariga qaytish fikriga tushib qolishdi. (*X. To'xtaboyev*)
3. Nahotki, u meni rostdan ham kutayotgan bo'lsa! (*Yo'ldosh Sulaymon*)
4. Lekin ellik yil yo'lda hamroh bo'lган, birga o'y surib, birga qog'oz qoralagan do'stning ham aytadigan gaplari bordir, axir! (*Said Ahmad*)
5. Jahling chiqqan taqdirda ham birovga qattiq gapirma. (*Ibn Sino*)
6. U shunday ehtiyyotkorlik bilan emakladiki, hatto qamishlar ham shitirlamadi. (*Said Ahmad*)
7. Har yil bahor kelganda, hatto toshga kirar jon. (*Mirtemir*)
8. Sergaklikda tiriklarning siz-ku eng tiriklari. (*Mirtemir*)
9. Bular ona yurtning erkalari-da, Bular ertagi kun egalari-da! (*Mirtemir*)

**243-mashq.** She'rni o'qing. Yuklamalarni ajratib, turini ayting va yozilishiga e'tibor bering. She'r mazmunini so'zlab bering.

Hatto it urishsa zirqirar qalbim,  
Odam odam payin qirqmoq bo'lsa-chi?  
So'zsiz qichqiraman, nega tug'ildim,  
Quloqlarim batang bo'lib qolsa-chi!  
O'rtada bo'lsin deb qadr ham izzat,  
Ayriliq va o'lim yaralganmi yo?  
Shunda ham tantilik qilib tabiat,  
Buyuk bir aqlni bergen-ku, ammo  
Shu aql tantana qilar, azizim,  
Tantana qiladi shafqat va vijdon.

(*S. Zunnunova*)

### *Savol va topshiriqlar*

1. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari gap mazmuniga qanday ma'no yuklaydi? Misollar bilan tushuntiring.
2. Bu yuklamalarning imlosini tushuntiring.

244-mashiq. *Uyga vazifa.* «Mustaqillik va milliy urf-odatlar» mavzusida matn tuzing. Unda kuchaytiruv-ta'kid yuklamalaridan ham foydalaning. Ularning imlosiga e'tibor bering.

## O'XSHATISH-QIYOSLASH YUKLAMALARI

**1-topshiriq.** Berilgan gapdag'i ajratilgan so'zni gapdan tushirib qoldiring. Ma'noda qanday o'zgarish bo'lganini aniqlashga harakat qiling.

1. Otasining **xuddi** o'zi. (*Oybek*) 2. **Go'yo** sharpa o'tganday bo'ldi. (*Hamid G'ulom*)

**2-topshiriq.** Ikki guruhga bo'lining. *Xuddi, go'yo(ki)* so'zlar ishtirokida kim ko'p gap tuzish musobaqasini o'tkazing.

So'z yoki gapga o'xshatish-qiyoslash ma'nosini yuklovchi *xuddi, go'yo(ki)* kabi yordamchi so'zlar o'xshatish-qiyoslash yuklamalari hisoblanadi. Shuningdek, ular ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasida ham kelishi mumkin.

✓ 245-mashiq. Gaplarni yozing, yuklamalarning tagiga chizib, vazifasini tushuntiring va turini ayting. So'zlash odobi haqida bahslashing.

1. U so'zlar, tirilib kelarlar go'yo Birga qonli jangga kirgan o'rtoqlar. (*E. Vohidov*) 2. Baland cho'qqilarni, adirlarni, daraxtlarni bosib qolgan qor bu yerda shunday iliq va mayin ko'rinadiki, go'yo tog'ga qor tushgan emas, mayin oq kigiz yopilgan. (*O. Yoqubov*) 3. Tog'laring tegrangda go'yo Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu, Ikki daryo – ikki chashming, Chashmi giryon, o'zbegim. (*E. Vohidov*) 4. Dardga darmon bo'ladigan ham shu so'z, turmushga og'u soladigan ham xuddi shu so'z. («*Vatan tuyg'usi*») 5. Hatto, zeb-ziynatni yulqib ziyoda, Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol... (*A. Oripov*) 6. Otasining shu gaplari hozir Humoyunga xuddi o'z dilidan eshitilayotganday bo'ldi. (*P. Qodirov*) 7. Qo'y-qo'zilar ma'rashib, Go'yo tomchi talashib, Chopishar qir chetidan. (*Mirtemir*) 8. Nuqtaday bir qush uchar, Go'yoki behush uchar. (*Mirtemir*) 9. Chaqnasa ham xuddi yulduz, O'zi juda epsiz qo'ng'iz. (*Mirtemir*)

**246-mashq.** Nuqtalar o‘rniga mos yuklamalarni qo‘yib, gaplarni yozing.  
Yuklamalarning turini ayting va vazifasini tushuntiring.

1. Ota fig‘on chekdi Ka’ba qoshida, ... unut bo‘lgay alamlar bari. (*A. Oripov*)
2. Terak ... mungli qo‘sishiqni kuyga solgan sozandadek bir maromda tebranib shivirlar ekan. («*El desa Navoiyni*» *kitobidan*)
3. ... o‘zimizga Ayon sirimiz. (*E. Vohidov*)
4. ..., o‘sha, bundan olti-yetti yil ilgari o‘zi operatsiya qilgan yigit shu bo‘lsa?! (*O‘. Umarbekov*)

Y u k l a m a l a r : Nahot(ki), xuddi, faqat, go‘yo.

**247-mashq.** *Xuddi, go‘yo(ki)* yuklamalarini qatnashtirib gaplar yozing.  
Ularning ma’nosini va yozilishini tushuntiring.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. O‘xhatish-qiyoslash yuklamalari deb nimaga aytildi?
2. *Xuddi, go‘yoki* so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing.

**248-mashq.** *Uyga vazifa.* O‘zingiz o‘qiyotgan badiiy asardan *xuddi, go‘yo(ki)* yuklamalari qatnashgan gaplarni topib yozing. Yuklamalarning qanday ma’no anglatayotganini tushuntiring.

## GUMON VA INKOR YUKLAMALAR!

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi *-dir* qo‘sishmchasining vazifasi va ma’nosiga ko‘ra farqli jihatlarini aniqlang.

1. U musobaqa g‘olibidir.
2. Sizni yo‘qlab kelgandir? (*S. Zunnunova*)

**2-topshiriq.** *-dir* qo‘sishmchasini qatnashtirib, gaplar tuzing. Gaplariningizdagi *-dir* qo‘sishmchasining ma’nolarini tushuntiring.

Gap mazmuniga guman ma’nosini yuklovchi *-dir* qo‘sishmchasi guman yuklamasi hisoblanadi.

Bu yuklama *-man, -san* qo‘sishmchalari qatorida turuvchi uchinchi shaxs qo‘sishmchasi *-dir* bilan shakldoshdir. *-dir* yuklamasi urg‘u olmaydi.

Gap mazmunitagi inkor ma’nosini uqtiruvchi *hech, sira, na...na* kabi so‘zlar inkor yuklamalari sanaladi. Bunday yuklamalar qo‘llanganda, gapning kesimi, asosan, inkor shaklida bo‘ladi.

**249-mashq.** Guman va inkor yuklamalı gaplarni yozing. Mirtemirning fikriga qo'shilasizmi?

1. Suv hayot manbayidir. 2. «O'lsa o'lгandir, bunga nima janjal!» — deb qo'ydi tag'in birov. (*Abdulla Qodiriy*) 3. Yurmasman hech behishtni izlab, Topolmasam, chekmasman alam. (*A. Oripov*) 4. Hayratga tushmasman bu holdan sira, Dunyo, bu quvg'indi ohuday yelar. (*A. Oripov*) 5. Hayosizda or bo'lmas, aslo vafodor bo'lmas. (*Qo'shiqdan*) 6. To'rt mucham sog', do'stlarim bor havas qilgulik, Nolimayman na kelajak, na o'tmishimdan. (*A. Oripov*) 7. G'afur aka bugun va'da qilgan she'rini yozayotgandir. (*Said Ahmad*) 8. Ayting-chi, mard odam aslo o'lurmi? Nomi qolar yurt qo'shig'ida. (*Mirtemir*)

◆ **250-mashq.** Nuqtalar o'rнига zarur yuklamalarni qo'yib, gaplarni yozing. Unda berilgan insonlarning ruhiy holatini tushuntiring.

1. So'finikiga o't ketibdi...? — hovlida Xolmo'minning shang'illagan ovozi eshitildi. (*Sh. Bo'tayev*) 2. U ba'zan yonida men o'tirganimni... unutib, uzoq-uzoq xayol surib qolardi. (*S. Zunnunova*) 3. Qarshiliги ko'rinib turibdi-...! (*Abdulla Qahhor*) 4. Ikromjon yuragi shuv etib ketdi. Uni kimdir... elektr toki bilan urgandek bo'ldi. (*Said Ahmad*) 5. Yurtim, senga she'r bitdim bu kun, Qiyosingni topmadim... (*A. Oripov*)

**Yuklamalar:** -mi, -ku, go'yo, aslo, ham.

**-dir yuklamasi va -dir kesimlik qo'shimchasi qatnashgan gaplar** topping. Ularning vazifasini tushuntiring.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Guman yuklamasining vazifasi haqida so'zlab bering.
2. Bu yuylama qaysi qo'shimchaga o'xshaydi va qanday farqlanadi? Misollar yordamida tushuntiring.
3. Inkor yuklamalari qo'llangan gaplarning kesimi qanday shaklda bo'ladi? Misollar bilan tushuntiring.

**252-mashq.** *Uyga vazifa.* O'qing. Yordamchi so'zlarni aniqlang. Gapirayotgan gapingizni o'ylaysizmi? Uning tuzilishi haqida fikrlab ko'rganmisiz?

So'z yoki so'zlar orqali ifoda etiladigan fikr gapdir. Boshqacha aytganda, uni mantiq ipiga tizilgan so'zlar marjoni deyish ham mumkin. Bu marjon mazmun yuzakiligi yoki teranligiga qarab, ko'zmunchoqlar tizimi yoki bir shoda marvarid ham bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish ham lozimki, eng qadimgi turkiy so'zlar qisqa, lo'nda — bir bo'g'inli bo'lgan: *bosh, qosh, ko'z, qo'l, kul, bor, yot, o't* va hokazo. Boshqacha aytganda, ajdodlarimiz bir so'z ila fikrni to'la ifodalay olganlar va bu xislat biz, avlodlarga to hanuz meros bo'lib kelayotir. Masalan, «*kel*» degani buyruqdan tashqari, o'zi tomonga chorlash ma'nosini ifodalasa, «*ket*» deganda o'zidan uzoqlashtirish ma'nosi bildirilgan.

Xuddi so'z kabi gapning ham turi va xili, matndagi o'rniga qarab ma'nolari ko'p. («*Vatan tuyg'usi*»)

## UNDOV SO'ZLAR

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

1. **O'h-ho'**, muncha muzdek? (*O'. Umarbekov*) 2. **Iya**, bularni nima qilasan? (*Said Ahmad*) 3. Qo'y, yig'lama, ey baxshi. (*M. Toirov*) 4. — Shoshma, Qorako'z, shoshma... **Drr!** Ana bo'ldi, ketdik. — **Chu**, birodar. (*O'. Hoshimov*)

**2-topshiriq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ma'nosiga qarab guruh-lashtiring. Shunday so'zlar qatorini davom ettiring.

His-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirishni ifodalovchi so'zlar undov so'zlar sanaladi.

Undovlar ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

**1) his-hayajon undovlari; 2) buyruq-xitob undovlari.**

Yozuvda undov so'zlardan keyin vergul qo'yiladi.

Undalmalardan oldin kelganda esa undan keyin vergul qo'yilmaydi.

**253-mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini tushuntiring. Ulardan nutqingizda foydalanasizmi?

1. Dastlab ular Umidjonni ko'rganda pisandsiz: «E, bu mishiqi bola-ku», — deyishar, biroq uning ertaklarini eshitgach, «Yo'q, bu bola emas, dunyo ko'r gan chol ekan», — deya tan berib ketisharkan. (*N. Aminov*) 2. Abduqodir «tss» deb barmog'ini labiga qo'ydi. (*O'. Umarbekov*) 3. — Xo'sh, ishlar yaxshimi, Hotamjon? — so'radi Mirsidiq aravacha yonida bitta-bitta odim bosib borishar ekan. (*O'. Umarbekov*) 4. Faryodim, fig'onim butun bir jahon, Ey muhtaram shoir, izladim, keldim. (*S. Dolimov*) 5. Voy, shoshmang, diydorginasiga bir to'yvolay. (*Said Ahmad*)

**254-mashq.** Chu, o'h-ho', labbay, ey undovlarini qatnashtirib, gaplar yozing. Undov so'zlarning turini aytинг.

✓ **255-mashq.** Gaplarni o'qing. Undov so'zlarni ajratib, ma'nosini tushuntiring. Ulardan nutqingizda foydalaniб ko'ring.

1. — Hay, shoshma, — dedi Zebi. (*Cho'lpox*) 2. Hoy, nima balo bo'ldi? — deb alanglatdi Inoyat oqsoqol. (*Said Ahmad*) 3. Voy, nimalarni o'layapman men? (*Asqad Muxtor*) 4. Oho, jiyaningiz vazir bo'pti-ya! — deya xursandchiligidni izhor qildim. (*Sh. Bo'tayev*) 5. O! Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomonidan teshilgan. (*Abdulla Qahhor*) 6. O'h! — deb yubordi bir yigitcha. (*Said Ahmad*)

#### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Qanday so'zlar undov so'zlar deyiladi?  
2. Undovlar ma'nosiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? Misollar bilan tushuntiring.

**256-mashq.** Uyga vazifa. «O'zbek xalq ertaklari» kitobidan undov so'zlar qatnashgan gaplardan yozing. Undovlarning ma'no turlarini ajrating.

**1-topshiriq.** Ajratib ko'rsatilgan undovlarning qanday hayajonni (qo'rquv, rohatlanish, hayron qolish kabi) ifodalashini aniqlang.

1. Oh, qanday go'zal bu olam!
2. Oh zolim falak, yiqil boshimga!
- (*Uyg'un, Izzat Sulton*)
3. Uf!.. — dedi Xatira xola. (*Abbos Muhiddin*)
4. Iye, butun boshli bir odam tirilib keladi-yu, ovoragarchiligi bermi?
- (*Uyg'un*)
5. Voyey, bolam boyaqish-ey. (*Parda Tursun*)

**His-hayajon undovlari kishilarning quvonchi, er-kalash-erkalanish, rohatlanish, hayron qolish, norozilik, g'azab-nafrat, og'riq singari hissiyotlarini ifodelaydi.**

His-hayajon undovlarining o'zi undov gap bo'lib kelishi yoki gap tarkibida kelib, uni undov gapga aylan-tirishi mumkin. Bunday gaplar oxiriga doimo undov belgisi qo'yiladi.

**Gaplar tarkibidagi undov so'zlarni ajrating.** Ular qanday hissiyotlarni ifoda etayotganini aniqlang.

1. E-e, yeb bo'pti, Ko'kyol deydilar uni! — dedi Isoy bobo kuyib-pishib. (*N. Fozilov*)
2. Voybo', — deb yubordi u. — Yerimiz muncha chiroyl! Globusning o'zginasi-ya!
- (*A. Bo'riboyev*)
3. O, muazzam Enasoy daryosi!
- (*Ch. Aytmatov*)
4. Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar ...
- (*S. Zunnunova*)
5. Uf, chanqadim-ey, munchayam kun isib ketdi. (*Oybek*)
6. Oho, gapda sizga hech kim yetolmaydi... Hay, menga qarang! — dedi jiddiyat bilan Zumrad. (*Oybek*)
7. Oh, shu chog'da uning qoramtil yuziga boqsangiz... (*Mirtemir*)
8. Voy, men yanglishtirganim yo'q!
- (*Abdulla Qahhor*)
9. Voy, g'alati gapni gapirasiz-a, domlasi, ona o'z bolasiga yomonlikni ravo ko'-radimi!..
- (*Abdulla Qahhor*)
10. O'ho!.. Polvon qiz bo'ladiganga o'xshaydi-ku!
- (*Abdulla Qahhor*)

**258-mashq.** Gaplarni ko‘chiring, his-hayajon undovlarining tagiga chizib, ularni izohlang.

1. Ur-re-e-e! — u boychechakni qo‘lida hilpiratib, toychoq-dek shataloq otib chopar edi. (*A. Ko‘chimov*) 2. O‘hho‘, — dedi Hayitvoy qo‘rqqanidan ko‘zлari ola-kula bo‘lib. (*X. To‘xtaboyev*) 3. E, juda ajoyib ekan-ku, — dedi Elmurod ajablanib. (*Parda Tursun*) 4. Eh-ha, nima uchun o‘rmonda bunaqa g‘ala-g‘ovur, tartibsizlik desam, sababi bu ekan-da, — deb o‘yladi Ko‘r-qush. (*B. Norboyev*) 5. Och qoldingmi, a? Voy, sen-ey, — deya Chuchuk uloqchaning shal pangquloqlaridan tortqilab qo‘ydi. (*S. Mingnorov*)

**259-mashq.** Undovlar ishtirok etgan gaplarni yozib, undov so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

1. Boshqoq tortmasdan bug‘doy Yeb qo‘yibdi qo‘y, — Ey-voy. (*O. To‘xtaliyev*) 2. «Voy to‘ymagur, berib yubording-a, o‘z ko‘nglingda sen ham uloqchisan-da!» ... deb har xil tovushda baqirishadilar. (*Abdulla Qodiriy*) 3. — O‘, ma’lumotli ekansiz-ku! (*X. To‘xtaboyev*) 4. Men yetim o‘sganman, oh u yetimlik. Voy bechora jonim, desam arziydi. (*G‘afur G‘ulom*)

#### *Savol va topshiriqlar*

1. His-hayajon undovlarini aiting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.
2. Nima uchun bu undovlar his-hayajon undovlari deb ataladi?

**260-mashq.** *Uyga vazifa. Uf, oh, voy, iye, o‘hho‘; bay-bay* undovlarini qatnashtirib gaplar yozing. Bular qanday undovlar ekanini aiting.

### **BUYRUQ-XITOB UNDOVLARI**

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi undovlarni aniqlang.

1. Hey, menga qara, Gulchehra, — dedi u. (*O. Yoqubov*) 2. Tss, — dedi Sayyora barmog‘ini labiga qo‘yib. (*O‘. Umarbekov*) 3. Chu, jonivor! (*Hamid G‘ulom*) 4. Hammasi o‘tkinchi, xo‘sh, nima o‘tmas? (*M. Toirov*)

**2-topshiriq.** Undovlarning kishilarga yoki jonivorlarga qaratilganini aniqlang.

**3-topshiriq.** Hayvon va parrandalarni haydash-chaqirish uchun ishlataliladigan undovlar qatorini davom ettiring: *chu, beh-beh, pish-pish...*

**Kishilar diqqatini tortish, jonivorlarni haydash, chaqirish va to'xtatish uchun qo'llaniladigan undovlar buyruq-xitob undovlari hisoblanadi.**

261-mashq. Gaplarni ko'chiring. Undovlarning tagiga chizing. Ularning ma'nosini tushuntiring.

1. Ey qotil, nega shunday katta azim terakni nobud qilding? («*El desa Navoiyni*» *kitobidan*) 2. — Hoy, aylanay, o'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi? (*G'afur G'ulom*) 3. Ey Luqmoni Hakim, sening Dong'ing tutdi olamni. (*Mirmuhsin*) 4. Hay usta, — dedi Ma'suma beka, — shu payt bu chiziqlaringiz kimning qulog iga kiradi! (*Mirmuhsin*)

♦ 262-mashq. Buyruq-xitob undovlari qatnashgan 6 ta gap yozing. Undovlarning qanday ma'no anglatayotganini ayting.

263-mashq. Hey, *tss, oh, uh, e, chu, chip-chip, o'h-ho', voy, iya, xo'sh, kisht, hoy, roh, pish-pish* undovlarini ma'no guruhlariga ajratib jadvalga joylashtiring.

His-hayajon undovlari	Buyruq-xitob undovlari

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Buyruq-xitob undovlari qatnashgan gaplar tuzib, ularning qanday ma'no anglatayotganini tushuntiring.  
2. Qanday undovlar buyruq-xitob undovlari deyiladi? Misollar keltiring.

264-mashq. *Uyga vazifa.* Rasmga qarab, «Hayvonot bog'ida» mavzusida undovlar ishtirokida bog'li matn tuzing. Undovlarni izohlang.



## TAQLID SO'ZLAR

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi taqlid so'zlarni aniqlang.

- 1) Dupur-dupur ot keldi, Ko'chaga qarang, kim keldi? (*Qo'shiq*)
- 2) Tashqaridan gurs-gurs qadam tovushi eshitildi.

**2-topshiriq.** Aniqlangan so'zlarning nimaga taqlidni ifodalashini ayting.

**Narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildirgan so'zlar taqlid so'zlar hisoblanadi.**

**Taqlid so'zlar nimaga taqlidni bildirishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:**

**1) tovushga taqlid so'zlar; 2) holatga taqlid so'zlar.**

**Narsalarning ovoziga taqlidni bildiruvchi so'zlar tovushga taqlid so'zlar sanaiadi. Masalan, *g'a-g'a* (o'rdak ovoziga taqlid), *di-dit* (mashina signaliga taqlid).**

**Narsalarning holatiga taqlidni bildiruvchi so'zlar holatga taqlid so'zlar hisoblanadi. Masalan, *lip-lip* (chiroq holati), *jimir-jimir* (suv holati).**

**265-mashq.** Taqlid so‘zlarning tagiga chizing va ularning ma’no turini aniqlang. Taqlid so‘zlarning ishlatalishiga o‘z hayotingizdan misollar keltiring.

1. Namoz g‘azabi oshib, dag‘-dag‘ qaltiray boshladi. (*X. To‘xtaboyev*)
2. Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurullab ketdi. (*O. Yoqubov*)
3. Endi, ehtimol, dir-dir qaltiragan bolalar yuk ko‘tarishga yaramas edi, yaxshiyam Qo‘chqor bor ekan, kutilmaganda ajoyib bir ish qildi. (*O. Yoqubov*)
4. Boshidagi toj yal-yal yonarmish. (*N. Aminov*)
5. Shu payt gurs-gurs oyoq tovushlari eshitilib, ovlarda kabobpazlik qiladigan baqaloq bakovul ko‘rindi. (*O. Yoqubov*)
6. Torgina xonani xotin-xalajning qiy-chuvi tutdi. (*O. Yoqubov*)
7. Tongda ari gulga so‘zlar g‘uv-g‘uv-g‘uv, Guljonim, asaling ber, sog‘indim-ku. (*Quddus Muhammadiy*)
8. Zum o‘tmay hovlida ship-ship ovoz eshitildi. (*O. Yoqubov*)

**266-mashq.** Avval holatga taqlid so‘zlar, so‘ng tovushga taqlid so‘zlar qatnashgan gaplarni ko‘chiring.

1. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. (*O’. Hoshimov*)
2. Birovning oldiga borib «vov-vov» qilib hursa, podshoh gunohkorni yetmisht ikki darra urdirar ekan. (*N. Aminov*)
3. Albatta, yo‘l yaxshi bo‘lib, jadalroq yurishsa, sovuq uncha bilinmas, qulqoq-burunlarni «jaz-jaz» chaqmas edi, lekin iz tushmagan yo‘ldan yurish mushkul. (*O.Yoqubov*)
4. To‘rtta savag‘ich bilan tap-tap urib, par singari qilib titibdi. (*Oydin*)

**267-mashq.** *Qars-qurs, lip-lip, tars, yilt-yilt, ship, yarq, g‘a-g‘a, g‘lyq* so‘zlarini ma’no guruqlariga ajrating va ular ishtirokilda gaplar tuzing.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Qanday so‘zlar taqlid so‘zlar deyiladi?
2. Tovushga taqlid so‘zlarni aytинг va gaplar tuzing. Ular nima uchun shunday nomlanadi?
3. Qanday so‘zlar holatga taqlid so‘zlar deyiladi? Misollar keltiring.

**268-mashq.** *Uyga vazifa.* «Bolalar bog‘lda» sarlavhani hikoya tuzing. Hikoyangizda taqlid so‘zlardan foydalaning. Ularning tagiga chizib, ma’no turini aytинг.

## TAQLID SO‘ZLARNING TUZILISHI VA IMLOS

**1-topshiriq.** Berilgan taqlid so‘zlarni sodda, takroriy so‘zlar sarlavhasi bilan ikki guruhga bo‘lib yozing.

Gumbur-gumbur, chars-churs, shitir-shitir, taq-tuq, ship, tars, qirs, yarq-yurq, yilt-yilt, qiy-chuv, duk-duk.

**2-topshiriq.** Takroriy taqlid so‘zlarning qanday yozilishini tu-shuntiring.

**Asos qismning aynan takrorlanishidan yoki ayrim tovush o‘zgarishi bilan takrorlanishidan hosil bo‘lgan taqlid so‘zlar takroriy taqlid so‘zlar sanaladi.** Masalan: **gumbur-gumbur, gurs-gurs, chars-churs, taq-tuq, yarq-yurq.**

Takroriy taqlid so‘zlar qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

✓ 269-mashq. Berilgan sodda taqlid so‘zlar bilan takroriy taqlid so‘zlar o‘rtasidagi ma’no farqlanishini izohlang.

### Sodda taqlid so‘zlar

Ship  
Yarq  
Yilt  
Tars

### Takroriy taqlid so‘zlar

ship-ship  
yarq-yurq  
yilt-yilt  
tars-turs

270-mashq. Taqlid so‘zlarni toping va ma’nosini izohlang.

1. Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovozdan uyg‘onib ketdim. (*G‘afur G‘ulom*) 2. Jigarim otashga tegardi jiz-jiz. Sochlarim oqargan shunda, ehtimol. (*S. Zunnunova*) 3. Shunday bo‘lsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib hazilomuz qichqirdi. (*O. Yoqubov*) 4. Allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo‘ldi. (*O‘. Hoshimov*) 5. Osmonda yombi oltinday yaraqlagan to‘lin oy ...xiralashib borar, milt-milt qilgan yakkam-dukkam yulduzlarga uyg‘oq edi. (*Muhammad Ali*) 6. Qamchin bilan

taqa-tuq, Darvozani qoqdi chol. (*A. Oripov*) 7. Ali Qushchi hovliga chiqishi bilan o'ng qo'ldagi binodan kimdir lip etib chiqib, yo'lini to'sdi. (*O. Yoqubov*) 8. Tun sukutini ot tuyoqlarining dupuri buzdi. (*O. Yoqubov*) 9. Men-ku ishonaman, sahrolar gullab, Sizning qiy-chuv bilan to'lgay dalalar. (*A. Oripov*)

271-mashq. *G'iyq, shildir-shildir, miyov, qah-qah, mo', piq-piq, lip* so'zlarini ma'no va tuzilish jihatdan turlarga ajrating. Ularning yozilishiga e'tibor bering. Shu so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Takroriy taqlid so'zlar qanday hosil qilinadi?  
2. Takroriy taqlid so'zlarning yozilishini tushuntiring.  
3. Takroriy taqlid so'zlar qanday ma'nolarni anglatadi? Misollar bilan tushuntiring.

272-mashq. *Uyga vazifa*. Gaplarni ko'chiring. Taqlid so'zlarni aniqlang. Ularning ma'no va tuzilishiga ko'ra turini ayting.

1. Qo'qqisdan o'rmon kaptarlari g'uv-g'uvlab qolishibdi: g'uv, g'uv, g'uv. (*H. Andersen*) 2. Yum-yumaloq qasqonim Baka-baka-bum. Bo'ynimda mis marjonim, Baka-baka-bum. (*Anvar Obidjon*) 3. Dildorning yuragi duk-duk urardi. (*Said Ahmad*) 4. Apil-tapil chaynadi u, Loy ekan, vuy, tfu, tfu. (*Hikmat Rahmat*) 5. Sayroqilik qaytadan boshlandi: Va-vaq, va-vaq, bit-bil-diq, bit-bil-diq. (*Miraziz A'zam*) 6. Paq-puq, otdim, yiqil, — deb, Dushman tan olmas: — O'qing Qiyshiq ketdi, — deb nuqul. (*H. Imonberdiyev*)

## MODAL SO'ZLAR

**1-topshiriq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning gapda ifodalananayotgan fikrga so'zlovchining qanday munosabatini bildirayotganini aniqlang.

1. **Darhaqiqat**, siz to'g'ri ish qildingiz. (*Omon Muxtor*) 2. **Afsuski**, rejadagi ishlar ko'ngildagidek bajarilmadi. 3. Kanizak, **aftidan**, shuni aytmoqchi emas edi, **shekilli**, noiloj «ha» dedi. (*Abdulla Qahhor*)

**2-topshiriq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning gapdagagi joylashgan o'rni va qanday tinish belgilari bilan yozilganini izohlang.

! Ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatini (ishonch, guman, achinish kabi) bildirgan so‘zlarga modal so‘zlar deyiladi.

Modal so‘zlar gap tarkibida boshqa so‘zlardan vergul bilan ajratiladi.

✓ 273-mashq. Gaplarni yozing. Modal so‘zlarning tagiga chizing. Ma’nosini tushuntiring. Siz ham ulardan foydalanasizmi?

1. Xayriyat, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin asov soy sayozlashib, muz tobora yupqalashib bordi-yu, nihoyat, qoyatoshlar chekinib, yaylov ko‘rindi. (*O. Yoqubov*) 2. Xullas, Umidjon deyarli har kuni bitta yangi, ibratli ertak o‘ylab topib, buvisiga so‘zlab beradigan bo‘libdi. (*N. Aminov*) 3. Kattasi ham uyg‘onib ketdi, shekilli, qo‘shilishib yig‘lashga tushdi. (*O‘. Hoshimov*) 4. Ehtimol, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir. (*O‘. Hoshimov*) 5. To‘g‘ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim. Lekin, chamasi, kursdoshlar orasida yolg‘izlanib qolish, ming bir ta’nalarni eshitishdan ham qo‘rqdim, shekilli. (*Sh. Xolmirzayev*)

274-mashq. *Afsuski, demak, binobarin, haqiqatan, chamsi* modal so‘zлari ishtirokida «Kelajak tarixni bilishdan boshlanadi» mavzusida matn tuzing. Modal so‘zlarning gapdagи vazifasini aniqlang.

◆ 275-mashq. Berilgan so‘zlar ichidan modal so‘zlarni ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Attang, faqat, birdan, aftidan, qo‘qqisdan, haqiqatan, essiz, nahotki, nihoyat, xayriyat, xullas, hatto, masalan, biroq, ehtimol, umuman.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Qanday so‘zlar modal so‘zlar deyiladi?  
2. Modal so‘zlar qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?

276-mashq. *Uyga vazifa.* Modal so‘zlar qatnashgan o‘nta gap yozing.

## MODAL SO‘ZLARNING MA’NO TURLARI

**1-topshiriq.** *Albatta, afsuski, darhaqiqat, ehtimol, shekilli* so‘zlari ishtirotida gaplar tuzing.

**2-topshiriq.** Bu so‘zlar bayon qilingan fikrga so‘zlovchining qanday munosabatini ifodalashini aytинг.

**Modal so‘zlar ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish fikrning tartibi, xulosasi kabi ma’nolarni bildiradi.**

**277-mashq.** Jadvaldagи misollar bo‘limini tegishli ma’no guruhiga mos modal so‘zlar ishtirot etgan gaplar bilan to‘ldiring.

Modal so‘zlarning ma’nolari	Modal so‘zlar	Misollar
Ishonch	Albatta, shaksiz	
Gumon	Ehtimol, chamasi, shekilli	
Tasdiq	Darhaqiqat, haqiqatan	
Fikrni xulosalash	Xullas, demak, umuman	
Fikrning tartibi	Avvalo, avvalambor	
Fikrning dalillanishi	Masalan, jumladan	
Achinish	Attang, afsus	
Quvonch	Xayriyat	

**278-mashq.** Gaplarni ko‘chiring, modal so‘zlarning ma’no turlarini aniqlang. Ularning ishlatalishiga o‘z hayotingizdan misollar keltiring.

1. Avvalo, insonning qalbi go‘zal bo‘lmog‘i kerak. 2. Afsuski, besh qo‘l barobar emas. Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi. 3. Ularga qarshi kurashish hammamizning burchimiz, albatta. 4. Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda. 5. Xullas, biz ulug‘ odamlarning farzand-

larimiz. (*A. Oripov*) 6. Qizlar jim edilar. Aravakash zerikdi, shekilli, astagina ashula boshladi. (*Cho'lpov*) 7. Darhaqiqat, Zulfiya she'riyati mardona she'riyat. (*E. Vohidov*) 8. Balki, ustozi Oybekdek to'lib, Yozajaksan yangi bir doston. Balki, Habib Abdulla bo'lib, Sahrolarda ochajaksan kon. (*A. Oripov*) 9. Menning beshigimga otilgan ul o'q Sizning umringizni uzgan, ehtimol. (*A. Oripov*)

✓ 279-mashq. Gaplarni yozing. Modal so'zlarni topib, ularning qanday ma'no anglatayotganini tushuntiring.

1. Xullas, ana shu ajriqzordan sal o'tgandan keyin qishloqcha boshlanadi. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Abduqodirning ham tomog'iga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirolmadi. (*O'. Umarbekov*) 3. Karimberdi otasiga bir qaradi-yu, nimadandir xijolat bo'ldi, shekilli, darrov ko'zini olib qochdi. (*X. To'xtaboyev*) 4. Lekin Me'morning, avvalo, raiyat, qolaversa, saltanat oldidagi mavqeyi, Xuroson-u Movarounnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l qo'ymas edi. (*Mirmuhsin*) 5. Shuning uchun uyga kirayotganda, albatta, yuz-ko'lini tozalab, kiyimlarini qoqib kirdi. (*O'. Umarbekov*)

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Modal so'zlar deb qanday so'zlarga aytildi?  
? 2. Modal so'zlarning ma'no turlarini ayting va misollar keltiring.

280-mashq. Uyga vazifa. «Mustaqillik – millat ravnaqi» mavzusida matn tuzing. Modal so'zlardan ham foydalaning.

## SOF VA VAZIFADOSH MODAL SO'ZLAR

**1-topshiriq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday ma'no ifodalayotganini aniqlang.

1. Shubhasiz, biz g'olib chiqamiz – Bizning g'olib chiqishimiz shubhasiz. 2. Aftidan, u yolg'on gapiryapti – Uning yolg'on gapirayotgani aftidan bilinib turibdi. 3. Balki, siz haqdirsiz – Siz emas, balki u haqdir.

Modal so‘zlar ham sof modal so‘zlar va vazifadosh modal so‘zlarga bo‘linadi.

Faqat modal ma’no uchun xoslangan so‘zlar sof modal so‘zlar sanaladi: *haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, xullas, koshki, masalan* kabi.

Modal ma’noda ham qo‘llangan *aftidan, chamasi, umuman, ehtimol, taxminan, shubhasiz* singari so‘zlar vazifadosh modal so‘zlar hisoblanadi.

281-mashq. Juftliklarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qanday ma’-nolarda qo‘llanganini tushuntiring.

1. Bo‘ron bo‘lishi **ehtimol**, qizim. (*Mirmuhsin*) **Ehtimol**, bu onasidan yagona esdalik. 2. **Chamasi**, hammasining og‘zi tekkan ekan o‘sha go‘shtga. Gulchehraning **chamasi** to‘g‘ri chiqdi. 3. **Aftidan**, G‘ulomjon bu g‘alvalarni ataylab boshlagan. Uning «ko‘cha bolasi» ekanini **aftidan** bilib olish qiyin emas edi.

282-mashq. Avval sof, keyin vazifadosh modal so‘zlar qatnashgan gaplarni ko‘chiring. Ulardan qachon va qaysi o‘rinlarda foydalanish mumkinligini ayting.

1. Haqiqatan ham, ko‘rshapalaklar qushlar bilan hayvonlar orasidagi jonivorlardir. («*Gulxan*»dan) 2. Xullas, shunday edi olam va ishlar Seni tanimagan paytlar. (*Asqad Muxtor*) 3. Darhaqiqat, chang-to‘zon ancha narilab, Karki tomonga ketardi. (*Mirmuhsin*) 4. Me’morning xayol surib giyohvandlardek qotib qolganini ko‘rgan Xorunbek ... bu, ehtimol, achchiq alamning oqibatidir deb o‘ylardi. (*Mirmuhsin*) 5. Uning oldida bakni qaynatishyapti, shekilli, bak karnayidan qizil alanga chiqib qolardi. (*Sh. Xolmirzayev*) 6. Amakimning farzandi bo‘limgani uchun otam meni amakimga o‘g‘il qilib bergen. Bu, taxminan, 3–4 yoshlarimda bo‘lsa kerak. (*S. Dolimov*)

◆ 283-mashq. So‘zlar ichidan modal so‘zlarni ajrating. Ularni sof yoki vazifadoshligini tushuntirib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ammo, hamisha, avvalo, so‘ng, afsus, shubhasiz, noiloj, albatta, taxminan, balki, ehtimol, biroq, birdan, aftidan, masalan, darhaqiqat.

### Savol va topshiriqlar

- ? 1. Qanday modal so‘zlar sof modal so‘z hisoblanadi?  
2. Vazifadosh modal so‘zlarni ayting.

284-mashq. Uyga vazifa. *Aftidan, chamasi, ehtimol, shubhasiz, balki* so‘zlarini avval modal ma’noda, so‘ng o‘z ma’nosida qo‘llab gaplar tuzing. Ularning farqini tushuntiring.

## TASDIQ VA INKOR SO‘ZLAR

**1-topshiriq.** Matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosи va vazifasi haqida fikr yuriting.

- Siz shu mакtabda o‘qiyiszmi?
- Ha.
- Sakkizinchи sinfdами?
- Yo‘q, yettinchi sinfda.
- Men ham yettinchi sinfdaman. 50-mакtabda o‘qiymан.
- Muzqaymoq yemaymizmi?
- Mayli.
- Yuring, salqinga o‘tamiz.
- Xo‘p.

*Ha, xo‘p, mayli singari so‘zlar tasdiq so‘zlar; yo‘q, mutlaqo singari so‘zlar inkor so‘zlar sanaladi. Bunday so‘zlar dialogik nutqda -mi so‘roq yuklamasi orqali ifodalangan so‘roq gaplarning javobi bo‘lib keladi.*

◆ 285-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Bu so‘zlar qanday ma’noni anglatyapti? Mazkur so‘zlardan sizlar ham foydalanasizmi? Misollar keltiring.

1. Sizlarga uy topib bersam, qiroatxona ochmaysizlarmi? — ..., ochamiz. Lekin kitoblarni qayerdan olamiz? (*Habibulla Qo-*

*diriy)* 2. Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o‘g‘rigina bolam. — ..., ...-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. — Xayr, o‘g‘rigina bolam, kelib tur. — ..., ona, .... (*G‘afur G‘ulom*)  
3. — Suv beraymi, ota? Chol o‘ziga keldi. — ..., suv ichmayman! — dedi Me’mor, — buni qara, qizim, meni xayol olibdi, mana shu tomonda bir katta qasr solingan emish. (*Mirmuhsin*)  
4. ..., otaxon, olmayman. Sizga bu juda zarur buyum. (*Said Ahmad*) 5. ..., kechasi allamahalgacha kitob o‘qib, kam uxlagan. Biz chiqquncha damini olib turar. (*Yo‘ldosh Sulaymon*)

So‘zlar: Yo‘q, yo‘q-yo‘q, xo‘p-xo‘p, mayli.

✓ 286-mashq. Gaplarni yozing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring va turini ayting. Ularni qatnashdirib, «Keksalar ibrati» mavzusida dialog tuzing.

1. Men haq gapni aytyapman. — **Ha**, mayli, buni hozircha ochiq qoldiramiz. (*X. To‘xtaboyev*) 2. Ayting-chi, siz bu gaplarga ishonasizmi? — **Mutlaqo**. 3. **Yo‘q**, men buni hozirgi kayfiyattinga qarab aytayotganim yo‘q. (*Abdulla Qahhor*) 4. **Xo‘p**, shu so‘riga joy qilgin. (*S. Zunnunova*) 5. **Ha**, piri badavlat deganlari shu, Yuz bir shohdan ortiq piri badavlat. (*Mirtemir*) 6. **Mayli**, yurtim, kezsang ham dunyo... O‘zligingni unutma aslo. (*A. Oripov*) 7. **Yo‘q**, yashay bilmasman asrimdan nari, Da’vo ham qilmasman mangulik izga. (*A. Oripov*)

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Tasdiq so‘zlar haqida gapiring.  
2. Inkor so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

287-mashq. *Uyga vazifa*. «Otam bilan suhbat» mavzusida dialog tuzing. Unda tasdiq va inkor so‘zlardan foydalaning, ularning tagiga chizing va ma’nosini tushuntiring.

## MUSTAHKAMLASH

### *Takrorlash uchun savol va topshiriqlar*

- ? 1. Yuklama deb nimaga aytildi?
- 2. Yuklamalarning turlari haqida aytib bering.
- 3. Undov so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.
- 4. Taqlid so‘zlarning tuzilishi va imlosi to‘g‘risida gapirib bering.
- 5. Modal so‘zlarga misollar keltiring.
- 6. Tasdiq va inkor so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

**1-topshiriq.** Gaplarni imlo qoidalariga rioya qilgan holda ko‘chingring. Yuklamalarning yozilishiga diqqat qiling.

1. Kimsan akam birpas qarab turdi (-da), indamay chiqib ketdi. (*O‘. Hoshimov*) 2. Tolibjon kula-kula, xo‘p dedim (-ku), — dedi. 3. — Samovar senga yoqdi (-mi), axir? (*Abdulla Qahhor*) 4. Biz uni changalzor botqoqlikdan chiqolmaydi, deb o‘ylagan edik. Chiqibdi (-mi, -a)? 5. Muzaffar eshikni sharaqlatib ochib, pastga tushdi.

— Toshkentdagi Rasul degan og‘aynimning uyini bilasan (-a)?  
— Qaysi Rasul? Anovi kamgap professor (-mi)?  
— O‘sha! Mana bu xatni ertalab o‘shanga yetkazasan.  
— Siz (-chi)?  
— Men bilan ishing bo‘lmasin! Bu yog‘i yaqin, o‘zim piyoda ketaman. (*O. Yoqubov*)

**2-topshiriq.** Berilgan so‘zlarning turkumini aniqlang va ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

Oh, nahotki, ey, kisht, obbo, iye, eh-he, hatto, milt-milt, sharaqshuruq, voy, tiq, dag‘-dag‘, ham, hattoki, beh-beh.

**3-topshiriq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga izoh bering, ularning nutqdagi ahamiyati haqida so‘zlang.

1. **Qur-ey! Qur-ey!** Jimgina qulq soldi. «**Ba-a**» degan javob yo‘q. (*S. Anorboyev*) 2. Rustamga dadasi o‘yinchoq samolyot olib berdi. U samolyotni ko‘tarib «**g‘uv-v-v-v**» deb hovlining u boshidan bu boshiga yugura berdi. (*X. Ahrorova*)

3. — G'ozlar, bir so'z deysizmi?
  - G'a-g'a-g'a!
  - Totli suli yeysizmi?
  - Ha-ha-ha!
  - Nega patni silaysiz?
  - G'oq-g'oq-g'oq.
  - Mendar nima tilaysiz?
  - Boq, boq, boq.

(Anvar Obidjon)

4. Hoy chopag'on bulutlar,  
Yog'sangiz-chi **duv-duv**.  
Gul bog'imga, dalamga  
Juda kerak suv-suv.

(B. Yusupov)

*4-topshiriq. Uyga vazifa. Lapang-lapang, hoy, aftidan, xullas, qiy-chuv so'zlari ishtirokida gaplar tuzing va ularni izohlang.*

## OLMOSH, EGALIK VA KELISHIK SHAKLLARI YUZASIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH

### *Takrorlash uchun savol va topshiriqlar*

1. Olmosh qaysi so'z turkumlari o'rnila almashib kelishi mumkin?
2. Olmoshlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Olmoshlar gapda qanday vazifalarni bajarib keladi?
4. Egalik shakllari va ularning imlosi haqida so'zlab bering.
5. Sifatdosh va harakat nomlariga egalik qo'shimchalarini qo'shing.
6. Kelishik deb nimaga aytildi?
7. Qaratqich va tushum kelishigining belgili va belgisiz ishlatalishiga misollar keltiring.
8. Jo'naliш, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchasining imlosi to'g'risida so'zlab bering.

**288-mashq.** Gaplarni o‘qing. Olmoshlarni toping, ularga egalik va kelishik qo‘srimchalaring qo‘shilishiga diqqat qiling.

1. Ularning ba’zilari akamning o‘rtoqlari edilar, men bilan so‘rashdilar. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Biz, yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketamiz. (*G‘afur G‘ulom*) 3. Hotamjon jilmaydi: — Biz tomonlarda deyarli dim. (*O‘. Umarbekov*) 4. Yuringlar, — dedi kampir o‘rnidan turib. Keyin mening yelkamga qoqdi: — Sen ham yur, shirin bola. (*O‘. Umarbekov*) 5. Rostini aytsam, o‘zim ham unchalik yomon bola emasman. (*X. To‘xtaboyev*)

◆ **289-mashq.** Olmoshlarni aniqlang. Ularning gapdagisi vazifalarini belgilang.

1. Belingni bog‘la, g‘ayrat bir-la mehnatga muhabbat qil, O‘zingni, mehnatingni o‘zga yalqovlarga ibrat qil. (*Habibiy*) 2. O‘zgalar g‘amini chekmasa odam, unga noloyiqdir inson degan nom. (*Sa’diy*) 3. Xudbinlik o‘z-o‘zini qatl qilishdir. U yakka, mevasiz daraxtga o‘xshab qurib ketadi. (*I. Turgenev*) 4. Agar sen havoni to‘yib-to‘yib shimiray desang, tongda dera-zangni kengroq och! (*Otalar o‘gitidan*) 5. Har kim o‘z qilmishiga yarasha jazosini oladi. (*Maqol*)

✓ **290-mashq.** Matnni o‘qing. Egalik va kelishik qo‘srimchalarini va ularning imlosini tushuntiring. O‘zingizning o‘quvchilik yillaringiz haqida gapirib bering. O‘qish va yozishni qanday o‘rgangansiz?

Ona tiliga doir hamma yozuvlarni chirolyi yozadigan, bu darsdan hamisha a’lo baho oladigan bo‘ldim. Keyinchalik shuni payqadimki, qaysi darsni chirolyi yozmasam, o‘sha darsdan pastroq baho olar ekanman. Men avvallari «Bu darsni xushlamaganim uchun chirolyi yozishga hafsala qilmasam kerak» deb o‘ylagan edim, yo‘q, chirolyi yozishga urinib qayta-qayta ko‘chirish darsni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam berar ekan.

Shundan keyin boshqa darslarni ham chirolyi yozishga, darsda shoshib yozgan yozuvlarimni chirolyi qilib ko‘chirishga harakat qiladigan bo‘ldim. Bora-bora shunga odatlanib qoldim: hamma darsdan a’lochi bo‘ldim. (*Abdulla Qahhor*)

**291-mashq.** *Beshik, bog‘, men, sen, u, bu, o’sha, pishloq, eshik, bug‘, tig‘, pichoq, oshqovoq, timsoh, choh, o’rik, bayroq* kabi so‘zlarga kelishik qo‘srimchalarini qo‘shib ko‘ring. Ulardan qaysilarida tovush o‘zgarishlari bo‘layotganiga e’tibor bering.

◆ **292-mashq.** Quyida berilgan so‘zlar ichidan egalik qo‘srimchasi qo‘shilganda, asosda tovush o‘zgarishi ro‘y beradiganlarini aniqlang. Ular ishtirotkida gaplar tuzing.

Yurak, uy, qishloq, nok, bog‘, singil, shahar, yurt, o‘g‘il, qiz, istak.

**293-mashq.** *Uyga vazifa. «Ajdodlarimiz ruhi hamisha bizga yor» mavzusida matn tuzing. Unda ishlataligan egalik qo‘srimchalarini izohlang.*

## **YORDAMCHI SO‘ZLAR, UNDOV, TAQLID VA MODAL SO‘ZLAR YUZASIDAN O‘TILGANLARNI TAKRORLASH**

### ***Takrorlash uchun savol va topshiriqlar***

1. Ko‘makchi deb nimaga aytildi?
2. Sof va vazifadosh ko‘makchilarga misollar aytинг.
3. Bog‘lovchi deb nimaga aytildi?
4. Teng bog‘lovchilar qaysilar?
5. Yakka va takror bog‘lovchilarga misollar keltiring.
6. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar ishtirotkida gaplar tuzing.
7. Yuklama deb nimaga aytildi?
8. Yuklamalarning turlari haqida so‘zlab bering.
9. His-hayajon va buyruq-xitob undovlariga misollar keltiring.
10. Modal so‘zlar deb nimaga aytildi?
11. Tasdiq va inkor so‘zlarga misollar aytинг.
12. Sof va vazifadosh modal so‘zlar deganda nimani tushunasiz?

**294-mashq.** Qavs ichida berilgan yordamchi so‘zlardan mosini qo‘yib, matnni ko‘chiring. Yordamchi so‘zlarga izoh bering. «Ozod va obod Vatan» deganda nimani tushunasiz?

Millatning kelajagi bugundan boshlanadi. O‘zligini anglamagan, manqurtlik (beri, tomon, ko‘ra) ketayotgan odamlar bilan yangi jamiyatni qurib bo‘lmaydi. Ma’naviyati yuksak insonlar (nahotki, nafaqat, agar) o‘z davri rivojiga, (-ki, balki,

shuning uchun) millat kelajagi (hamda, yoki, yoxud) ravnaqiga ham munosib hissa qo'shadi.

Ma'nan boy, ruhan komil insonlargina ozod (bilan, ham, va) obod Vatanni qurishga qodirdirlar. (*Y. Do'stmatova*)

✓ 295-mashq. **Gaplarni ko'chiring.** Ular tarkibida kelayotgan yordamchi so'zlarni topib, ma'nolarini tushuntiring. Tohir Malikning gapiga qo'shilasizmi?

1. Tabiatga qo'pol ravishda aralashish natijasida paydo bo'lgan kasalliklarni farmatsevtika zavodlarida ishlangan dorilar bilan tuzatib bo'lmaydi. (*Tohir Malik*) 2. Maktabga borayotib papkamni ochdim-da, konvertni qo'limga oldim. Xuddi xat tashiydigan samolyotga o'xshab, qo'llarimni yoyib, maktabga qarab chopdim. (*P. Qodirov*) 3. Komil bosh irg'adi: — Havo ochilyapti-ku! — Ochilishga ochilgan-u, ammo-lekin ayoz... (*O. Yoqubov*) 4. Ba'zi kunlar bo'ladiki, qovog'idan qor yog'ib turadi, buning ustiga yana o'n besh-yigirma daraja sovuq ham bo'ladi-yu, biroq odamga xush yoqadi. (*N. Fozilov*)

✓ 296-mashq. **Gaplarni ko'chiring, undov so'zlarni topib, ularni izohlang.**

1. Obbo! Kech tushib qolibdi-ku! Axir, uydan chiqqanimizda peshindan o'tgan edi. (*Sh. Xolmirzayev*) 2. Oh qadrdon qalpoqcham, jonimning huzuri, maslahatgo'yim! Sen borsan, g'am-tashvishim yo'q, qornim to'q, ustim but. (*X. To'xtaboyev*) 3. Voy-bo'y! — deydi bir nechalari bir og'izdan. — Tosh akani, Hoji akani bilamiz... (*Oybek*) 4. Chol ko'zları yumuq, boshini quyi solib o'tiradi. — Bay-bay-bay! Fuzuliy ajoyib shoir-da! — deydi. (*G'afur G'ulom*)

297-mashq. **Uyga vazifa.** **Gaplarni o'qing. Taqlid so'zlarni topib, ularning ma'nolarini izohlang.**

1. Akram qafasni sekin ochdi. Kaklik o'zicha «qiyq» deb qo'ysi. (*P. Qodirov*) 2. Qo'chqor chinakam cho'ponlarday hushtak chalib: — Qurr, hayt! — deya hayqirdi... (*S. Anorboyev*) 3. Lampochkalar milt-milt yonib-o'char edi. (*A. Muqimov*) 4. Duv-duv uchib keldi qushchalar, Darak berib go'zal ba-hordan. (*N. Toshpo'latov*)

## MATNDAGI ASOSIY FIKRNI ANIQLASH. MATNNI O'QISH VA QAYTA HIKOYA QILISH

**1-topshiriq.** Abdulla Qahhorning «Siz so‘zni grammab olib, tonnalab ishlatasiz. Aslida, so‘zni tonnalab olib, grammab sotish kerak» degan hikmatida qanday fikr yashirinib yotibdi? Shu haqda fikrlashing.

**2-topshiriq.** «Ulug‘ g‘oyalar ulug‘ insonlarni yetishtiradi». Bu haqda qanday fikrdasiz?

 Matnning mazmuniy yaxlitligini ta’minlashda ayrim so‘zlar yoki gaplar asosiy o‘rinni egallaydi. Matnning mohiyatini belgilashda ular tayanch birliklar hisoblanadi. Matn mazmunini qayta bayon qilishda shu birliklar asos bo‘ladi.

**298-mashq.** Matnni o‘qing, undagi asosiy so‘z va gaplarni aniqlang. Sizning hayotingizda ham shunga o‘xhash voqealar bo‘lganmi? Shu haqda fikrlashing.

Maktabda a’loga o‘qirdim. «To‘rt» olsam, tuni bilan yig‘lab chiqardim. Bir kuni nimayam bo‘lib, darsga kech qoldim. Yig‘lagudek bo‘lib yugurib ketayotsam, yana bir a’lochi qiz shoshib borayotganiga ko‘zim tushib qoldi. U nihoyatda odobli, hamma fanlardan «a’lo»ga o‘qiydigan sinfdoshim edi. O‘qish bobida bir-birimizni pinhona raqib bilib yurardik. Uning ham darsga kech qolish odati yo‘q edi. Uni ko‘rib butun vujudimga allaqanday xotirjamlik, osoyishtalik yugurdi, boyagi xijolatpazlik, uyalish, gunohkorlik hissi qayoqqadir uchib ketdi. «Ana, qiz bola bo‘la turib, Gulsara kech qolyapti-yu...» degan o‘y o‘tdi xayolimdan. Ikkalamiz deyarli baravariga sinfga kirdik. Gulsara yig‘layapti, biz bez bo‘lib turibmwiz. Muallim ikkalamizga ham o‘tirishga ruxsat berdi. Gulsara o‘tirgandan keyin ham yig‘lardi...

Men o‘ylanib qoldim: birovning kulfati sening kulfatingni yengillashtira olmaydi degan xulosaga keldim va butun umr shu hikmatga amal qilib kelyapman. Maktab, haqiqatan ham, maktab bo‘lgan. (*Sh. Boshbekov*)

**299-mashq.** Matnni o‘qing, undagi asosiy fikrni topishga harakat qiling.

Qo‘lida kitob ko‘targan, diqqat bilan kitob varaqlayotgan bolani ko‘rsam, beixtiyor quvonib ketaman. Bu menga nurga, ziyoga intilib bo‘y cho‘zayotgan niholni eslatadi. «Kitob – oftob» degan hikmat bejiz aytilmagan. Ma’rifat va ziyoning manbayi barcha zamonlarda kitob bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘ladi. (*T. Adashboev*)

**300-mashq.** She’rni yodlashga harakat qiling. Undagi mazmunni qayta hikoya qilishga urinib ko‘ring.

Men nur istab asrlardan asrlarga talpindim,  
Bo‘ronlarda tulporlarning yollarini yopindim.  
Ne bo‘lsa ham eng avval or-nomusimga topindim,  
Mening birlan uyg‘oq o‘tgan intizor yulduzlarim,  
O‘zbekiston tonglarini bedor kutgan ko‘zlarim.

Jonajonim deymu seni, O‘zbekiston, jonga jon,  
Jonga jonio deymu seni, O‘zbekiston, jonajon,  
O‘zbekiston – onajonim, O‘zbekiston – onajon,  
Yorug‘ kunlar quyoshiday porlab ketgan yuzlarim,  
O‘zbekiston tonglarini bedor kutgan ko‘zlarim.

(*Sirojiddin Sayyid*)

**301-mashq.** Matnni o‘qing, undagi asosiy fikrni toping. Uni qayta hikoya qilib bering.

Inson uyni faqatgina bir boshpana yoki bir qo‘nalg‘a sifatidagina qurmaydi. Balki uy farzandlar baxtini, kelajagini o‘ylab, yurak-yurakdan tiklanadigan bir oliv koshonadirki, uni avlodlarga bir xotira sifatida qoldirgisi keladi. «Shu uyda chirog‘im abadiy yonib tursin, to‘y-tomoshalar gurullasin!» degan buyuk bir orzu bilan tiklaydi. Men ham shu ishga o‘zligimni baxsh etdim. Bu uy, aslini olganda, onangizning va mening sizlarga qoldirajak bisot-u merosimizdirki... buni xuddi shunday tushunishlaringizni istayman. (*J. Jabborov*)

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Matndagi asosiy fikrni belgilashda nimaga e'tibor berish kerak?  
 2. Qayta hikoyalash deganda nimani tushunasiz?

**302-mashq.** *Uyga vazifa.* Otangiz yoki onangizdan eshitgan biron bir voqeani qayta hikoya qilib bera olasizmi? Shu haqda sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

## TASVIRIY MATNNI QAYTA HIKOYA QILISH

**1-topshiriq.** Yoningizda birga o'tirgan sinfdoshingizning tashqi ko'rinishini tasvirlab bering. Uning boshqa sinfdoshlaringizdan farqli tomonlarini aytung.

**2-topshiriq.** Matnni o'qing. Gap nima haqida ketayotganini toping va o'zaro muhokama qiling.

Dunyoviy bilimlar, adabiyot, umuman, har qanday san'at eshigiga yo'l mana shu milliy boylikni anglashdan, o'zingga, ruhiyattinga singdirishdan boshlanadi. (*Jabbor Eshonqul*)



**Tasviriy matn ko'proq badiiy adabiyotga xos bo'lgani uchun unda turli tasviriy vositalar qo'llaniladi. Tasviriy matnni qayta hikoya qilishda ham ulardan foydalanish lozim.**

**303-mashq.** Matnni o'qing. O'rik domlaning tasviriga e'tibor bering. Uning xatti-harakatlarini oqlaysizmi? Shu haqda bahslashing.

O'rik domлага qiziqib qoldim. Bu odam haqida unchamunchani bilib olmoqchi bo'lib, chaylada ikkovimiz qolganimizda Burgutdan surishtirdim.

— Ajoyib odam. O'zi o'lguidek ezma. Tajanglikda tengi yo'q, o'rikdan boshqa gapni bilmaydi. To'y-po'yga borib qolsa, ashula eshitayotganlarning ensasini qotirib, o'rikdan gap boshlaydi. Asli otini haligacha hech kim aniq bilmaydi. Ammo O'rik domla desang, bo'ldi, kattadan-kichik taniydi! Joni-dili — o'rik.

Odamlar Kavkazga dam olgani borishsa, O'rik domla danak yig'gani boradi. Bog'ida dunyodagi o'rik navining hammasidan ko'chat bor, deyishadi. (*Said Ahmad*)

**304-mashq. «Yoshlik – umrning gullagan fasli» mavzusida matn tuzing.  
Matnda qanday tasviriy vositalardan foydalandingiz?**

**305-mashq. Matnga mavzu qo‘ying, unda ilgari surilgan g‘oyani  
muhokama qiling.**

Vatan, aylanayin tuproqlaringdan,  
Soya-salqin bergan yaproqlaringdan.  
«Men daryo ko‘ksida Vatan ko‘rdim», – deb,  
Cho‘qqidan otilgan irmoqlaringdan.  
Olloh nazar qilgan sehrli diyor,  
Dunyoni titratgan daholaring bor.  
Tuprog‘ing zarrasi – jonimga tumor,  
Yuz chaygum iymondek qirg‘oqlaringda.

*(Sh. Salimova)*

**306-mashq. Atoqli tilshunos A. Abduazizovning ona tili haqidagi fikrlari  
berilgan matnni o‘qing va ona tilining inson hayotidagi o‘rni haqida  
muhokama yuriting.**

Ona tilini bilish, unga hurmat ko‘rsatishning o‘zi yetarli emas. Ulug‘ alloma bobomiz Mahmud Koshg‘ariy: «Devon-u lug‘otit-turk» asarida «Odobning boshi tildir» deb yozadi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonida «til ardam» («til odobi») ga oid hikmatlar talaygina: «Aql ko‘rki so‘zdir va til ko‘rki – so‘z. Kishi ko‘rki yuzdir, bu yuz ko‘rki – ko‘z». Biz ona tilimizga hurmat-ehtiromimizni amalda ko‘rsatishimiz zarur. Har birimiz: kim xizmatchi, kim olim, talaba yoki o‘qtuvchi bo‘lmaylik, avvalo, ona tilimizda toza, ravon va tiniq gapirishga odatlanishimiz kerak. Nutq odobi va til madaniyatiga rioya qilish nafaqat ziyyolilarning, balki har qanday kasb-u kor egasining burchidir.

**307-mashq. Usmon Azimov qalamiga mansub matnni o‘qing. «Vatan...  
Nima o‘zi? Qanday qiyin savol?» satrlarini muhokama qiling. Vatan haqida  
o‘z fikringizni bildiring.**

Vatan nima o‘zi? Qanday qiyin savol?

Daraxtni tasavvur qiling. Uning ildizi — Vatan! Osmonga intilayotgan shoxi ham — Vatan. Xazonlarda uchayotgan barglari, qurigan shoxlari ham — Vatan. Hali shakllanmagan kurtaklari xayolidagi mevalari ham — Vatan.

Ildizsiz Vatan yo‘q! Mevasiz, urug‘siz ham. Biz o‘z Vatanimiz — O‘zbekistonni mukammal ko‘rgimiz keladi. Uning mukammalligi esa bizga — shu yurt farzandlariga bog‘liq.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Tasvirlash mazmunidagi matnlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi gapiring.  
2. Muhokama mazmunidagi matnlar qanday xususiyatlarga ega bo‘laqdır?

**308-mashq.** *Uyga vazifa.* «Vatanni sevmoq iymondandir» mavzusida matn tuzib keling va uni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qilishga tayyorlaning.

## TAKRORLASH

**309-mashq.** Matnni o‘qing, unda ishlataligancha so‘zlarni izohlang. O‘zingiz tug‘ilib o‘sgan shahar yoki qishloq haqida hikoya qilib bering.

Bakir o‘zi tug‘ilib-o‘sgan bu shaharni, uning har burchagi, har ko‘chasini, har bir daraxt, har toshini dil-dilidan yaxshi ko‘radi. Ko‘kcha, O‘rda, Beshyog‘och, Shayxontohur... To‘g‘ri, shu shaharda tug‘ilib, shu shaharda o‘sib, hali uning ko‘p ko‘chalarini ko‘rmagan, ko‘p mavzelariga bormagan, ko‘p joylarini bilmaydi. Lekin shuni biladiki, ko‘rsa, ularni-da yaxshi ko‘rib qoladi, u joylar ham aziz, u joylar ham qadrli, u joylar ham yuragiga yaqin, o‘ziniki. (*Erkin A’zam*)

**310-mashq.** Oybekning Alisher Navoiy haqidagi fikrlarini o‘qing. Sizing o‘zingiz Navoiyni qanday tasavvur qilasiz? Shu haqda yozing.

Men yursam ham, tursam ham hamisha Navoiyni o‘ylardim. Uning ma’nodor, aqli ko‘zları, xushfe'l, rahmdil, oliyjanob qiyofasi, asl, pok, ulug‘ qalbini his etardim, ko‘z o‘ngimda ko‘rardim. (*Oybek*)

**311-mashq.** Matnda ishlatilgan mustaqil so‘zlarni aniqlang. Undagi g‘oya haqida siz nima deya olasiz?

Biz Vatanning farzandlari va egalarimiz. Uning zafar-u quvonchlari bizning ham zafar-u quvonchimizdir, uning mushkullari bizning ham mushkulimizdir. Shu yurt sevinchlari bizning ham ko‘zimizda, qayg‘ulari bizning ham kiprigimizda.

Biz – yoshlarmiz. Biz farovon shu kunlarning qadriga yeta oluvchi, yanada yorqin kun uchun kurasha olguvchilarmiz. (E. Vohidov)

**312-mashq.** Matnda ishlatilgan so‘zlarning ma’nolariga e’tibor bering. Matndan olgan xulosangiz haqida gapiring.

Dengizchilar sayohat qilib yurib, xilvat bir orolga borib qolishdi. Ulardan biri mahalliy xalq vakillaridan o‘ziga kerakli narsalarni sotib olmoqchi bo‘ldi va unga tilla tanga berdi. Utangani qo‘lida tutib, aylantirib, hidlab, tishlab ko‘rdi. Bundan hech qanday naf ko‘rmadi va uni egasiga qaytarib berdi. Dengizchiga esa: «Foydali narsaning o‘rniga foydasiz narsani berish yaramaydi», – dedi.

Demak, hamma narsa o‘z o‘rnida aziz.

**313-mashq.** Uyga vazifa. Matnda ishlatilgan so‘zlarga e’tibor qiling. Muallifning gapiga qo‘silasizmi?

Bir inson menga: «Bu dunyo bir imorat, undan g‘isht olib emas, bitta bo‘lsa ham g‘isht qo‘yib ketgin», – degan edi. Men hayotdan babra olib, uning ne’matlaridan shunchaki rohat qilib yashamoqchi emasman. Bunga haqqim ham yo‘q. Hayotimda kim uchundir foydali inson bo‘lsam, kimdir mendan zulm emas, mehr topa olsa, bu mening eng katta yutug‘imdir. (G. Ergasheva)

## ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH

Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi  
32-umumta’lim maktabi direktori  
X. Rahmonovaga 7-sinf o‘quvchisi  
Odiljon Karimovdan

### ARIZA

Ota-onam bilan birga Xonqa tumani Yangiobod qish-log‘iga doimiy yashash uchun ko‘chib kelganimiz sababli meni mактабning 9-sinfiga qabul qilishingizni so‘rayman.

2017-yil 10-avgust

(imzo)

**O. Karimov**

Toshkent shahar Yunusobod tumani-dagi 17-ixtisoslashtirilgan maktabning 7-sinf o‘quvchisi, 2002-yilda tug‘ilgan, millati o‘zbek Sohibova Azizaga

### TAVSIF NOMA

Sohibova Aziza Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 17-ixtisoslashtirilgan maktabning 7-sinfida o‘qydi.

Maktabda o‘qish davomida u intizomli, ziyrak, zukko va tirishqoq o‘quvchi sifatida o‘zini ko‘rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o‘rganishga harakat qildi. Ingliz tili, ona tili va adabiyot, tarix fanlariga alohida qiziqdi. U 2016-yilning mart oyida «Bilimlar sinovi»ning respublika bosqichida qatnashib, faxrli o‘rinni egalladi.

A. Sohibova maktabning jamoat ishlarida faol qatnashadi, «Yosh tilshunos» devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi.

U kamtarinligi, to‘g‘riso‘zligi va do‘sstariga mehribonligi sababli sinfdoshlari hamda murabbiylari hurmatiga sazovor bo‘lgan.

Tavsifnama Yunusobod tuman hokimligiga taqdim qilish uchun berildi.

Maktab direktori: (imzo)  
Sinf rahbari (imzo)  
(sana) (muhr)

**G. Yorboboyeva**  
**U. Saidvaliyeva**

### MA’LUMOT NOMA

Sohiba Oripova Samarqand shahar Istiqlol ko‘chasi, 13-uy,  
37-xonadonda yashaydi.

Ma’lumotnama Samarqand davlat universitetiga taqdim etish  
uchun berildi.

«Istiqlol» mahalla fuqarolar  
yig‘ini raisi: (imzo)

**Y. Shokirov**

Kotibi: (imzo)

**A. Xolmatov**

O‘quvchilarga berilgan namunalar asosida ariza, tavsifnama,  
ishonchnoma, ma’lumotnama yozish topshiriladi.

*Uyga vazifa. Oila a’zolaridan biriga tavsifnama yozib kelish.*

## ASOSIY ATAMALAR USTIDA ISHLASH

**olmosh** — boshqa so‘zlar, shuningdek, so‘z birikmasi va gap o‘rnida almashtirib qo‘llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchi so‘zlar

**sodda olmoshlar** — faqat bir asosdan iborat bo‘lgan olmoshlar

**qo‘shma olmoshlar** — ikki asosdan tashkil topgan olmoshlar

**juft olmoshlar** — bir-biriga mazmunan yaqin bo‘lgan olmosh-larning birikuvidan hosil bo‘lgan olmoshlar

**takroriy olmoshlar** — bir olmoshning aynan yoki ayrim tovush o‘zgarishi bilan (masalan, *uncha-muncha*) takrorlanishidan hosil bo‘lgan olmoshlar

**ismlar** — egalik, kelishik qo‘s Shimchalari bilan o‘zgarish xusu-siyatiga ega bo‘lgan so‘zlar

**lug‘aviy shakl** — ismlarning ko‘plik, kichraytirish-erkalash, qiyos-lash ma’nolarini bildiruvchi qo‘s Shimchalarga ega bo‘lgan shakli

**munosabat shakli** — ismlarning egalik, kelishik, *-man*, *-miz*, *-san*, *-siz*, *-dir* qo‘s Shimchalariga ega bo‘lgan shakli.

**egalik qo‘s Shimchalari** — ismlarga qo‘s hilib, asos qismda ifoda-langan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning uch shaxsdan biriga qarashlilagini bildirgan qo‘s Shimchalar

**kelishik shakkari** — ismlarni boshqa so‘zlarga tobelantirib bog‘lash uchun xizmat qiluvchi shaklli

**turlanish** — ismlarning egalik qo‘s Shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo‘s Shimchalari bilan o‘zgarishi

**qaratqich** — qaratqich kelishigi shaklidagi so‘z

**qaralmish** — qaratqich bog‘lanib kelgan so‘z

**bog‘lamalar** – ot kesimlarni ega bilan moslashtiruvchi vositalar

**mustaqil so‘zlar** – atash ma’noli so‘zlar yoki ular o‘rnida qo‘llanilib, ma’lum so‘roqlarga javob bo‘luvchi va gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasida keluvchi so‘zlar

**yordamchi so‘zlar** – atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlar

**ko‘makchi** – ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiluvchi so‘zlar

**sof ko‘makchilar** – atash ma’nosini tamoman yo‘qotib, faqat o‘zi birikkan so‘zni boshqa so‘zga tobelantirib bog‘lash uchun xizmat qiladigan ko‘makchilar

**vazifadosh ko‘makchilar** – ayrim mustaqil so‘zlarning ko‘makchi vazifasida qo‘llanilishi

**bog‘lovchi** – gapning uyushiq bo‘laklarini va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlar

**teng bog‘lovchilar** – uyushiq bo‘laklar va gaplarni o‘zaro bog‘lab keluvchi bog‘lovchilar

**vazifadosh bog‘lovchilar** – bir o‘rinda bog‘lovchi, boshqa o‘rinda ko‘makchi, yuklama yoki modal so‘z vazifasida keluvchi yordamchilar

**biriktiruv bog‘lovchilari** – uyushiq bo‘laklarni va gaplarni o‘zaro biriktirib keluvchi bog‘lovchilar

**ayiruv bog‘lovchilar** – o‘zaro bog‘lanayotgan bo‘lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko‘rsatuvchi bog‘lovchilar

**zidlov bog‘lovchilar** – o‘zaro zidlik munosabatida bo‘lgan uyushiq bo‘laklar yoki gaplarni bir-biriga bog‘lab keluvchi bog‘lovchilar

**ergashtiruvchi bog‘lovchilar** – o‘zaro tobe munosabatda bo‘lgan gap bo‘lagi va gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladigan bog‘lovchilar

**yuklamalar** – so‘z yoki gaplarga so‘roq, ta’kid, ayirish-chevara-lash, gumon, o‘xshatish, inkor kabi ma’nolarni yuklovchi so‘z va qo‘sishchalar

**so‘roq va taajjub yuklamalari** — gapning mazmuniga so‘roq-taajjub ma’nosini yuklovchi yordamchi so‘zlar

**ayiruv-chegegaralov yuklamalari** — o‘zi qo‘shilayotgan so‘zning ma’nosini ayirib-chegegaralab keluvchi yuklamalar

**kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari** — gapning ma’lum bir bo‘lagi yoki butun gap ma’nosini kuchaytirib, ta’kidlab keluvchi yuklamalar

**o‘xshatish-qiyoslash yuklamalari** — so‘z yoki gapga o‘xshatish-qiyoslash ma’nosini yuklovchi yordamchi so‘zlar

**undov so‘zlar** — his-hayajon, buyruq-xitobni ifodalovchi so‘zlar

**taqlid so‘zlar** — narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildirgan so‘zlar

**modal so‘zlar** — bayon qilinayotgan fikrga so‘zlovlarning ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish kabi munosabatlarini bildirgan so‘zlar

## TESTLARDAN NAMUNALAR

**1. Menden rozi bo'linglar, men ham sizlardan roziman.** Ushbu gapda olmoshning qaysi turi ishtirok etgan?

- A) belgilash olmoshi      C) so'roq olmoshi  
B) kishilik olmoshi      D) gumon olmoshi

**2. Olmoshlar qaysi so'z turkumlarining o'rnida kela oladi?**

- A) ot, fe'l  
B) sifat, ravish  
C) ot, sifat, son, ravish  
D) barcha mustaqil so'z turkumlari o'rnida

**3. Husnbonuning oy desa, yuzi, kun desa, ko'zi bor ekan, bilimdon-u aqlii ekan.** Ushbu gapda qanday yordamchi so'z ishtirok etgan?

- A) yuklama      C) teng bog'lovchi  
B) ko'makchi      D) ergashtiruvchi bog'lovchi

**4. Buni eshitgan Sherzod: – Nima gap? – deb so'radi.** Ushbu gapda olmoshning qaysi turi ishtirok etgan?

- A) gumon olmoshi      C) belgilash olmoshi  
B) kishilik olmoshi      D) ko'rsatish va so'roq olmoshi

**5. E o'g'lim, nega sen mening maslahatimga quloq solmading?** Ushbu gapda qanday tovush o'zgarishi mavjud?

- A) tovush orttirilishi      C) tovush almashishi  
B) tovush tushishi      D) tovush tushishi va almashishi

**6. Yigit oddiy kiyangan, o'rtabo'y, kelishgan va chiroyli ekan.** Ushbu gapdagagi sifatlarni belgilang.

- A) oddiy, kiyangan, chiroyli      C) oddiy, o'rtabo'y, chiroyli  
B) oddiy, chiroyli, kelishgan      D) oddiy, o'rtal, chiroyli

**7. U goh kulib, goh jiddiyashib voqeani so'zlab berar edi. Ushbu gapda bog'lovchining qaysi turi qo'llangan?**

- A) ayiruv bog'lovchisi      C) ergashtiruvchi bog'lovchi  
B) shart bog'lovchisi      D) sabab bog'lovchisi

**8. Kimdir, allakim, allaqaysi, allanima so'zлari qaysi so'z turkumiga oid?**

- A) ot      C) ravish  
B) olmosh      D) sifatdosh

**9. Biz o'z Vatanimizni ko'z qorachig iday asrab-avaylaymiz. Ushbu gapdag'i o'z olmoshi qaysi kelishikda turibdi?**

- A) bosh kelishikda      C) o'rin-payt kelishigida  
B) qaratqich kelishigida      D) chiqish kelishigida

**10. Hamma, barcha, bari, butun olmoshlariga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A) gumon ma'nosini ifodalaydi  
B) shaxs, narsa, belgini jamlab keladi  
C) narsalarning so'rog'ini ifodalaydi  
D) narsalarni ko'rsatib keladi

**11. Har kim ekkанини о'radi. Ushbu gapda olmoshning qaysi turi qo'llangan?**

- A) so'roq olmoshi      C) belgilash olmoshi  
B) kishilik olmoshi      D) o'zlik olmoshi

**12. Qo'shma olmoshlar to'liq berilgan qatorni toping.**

- A) kimir, nimadir, qaysidir  
B) har qanday, mana shu, hech bir  
C) har nima, qayergadir, o'z  
D) biz, hamma, barcha

**13. Ismlarga qo'shilib, asos qismida ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatning uch shaxsdan hiriga qarashliliginini bil-dirgan qo'shimchaiarga qanday qo'shimchalar deyiladi?**

- A) egalik qo'shimchalari  
B) so'z yasovchi qo'shimchalar

- C) shaxs-son qo'shimchalari
- D) kelishik qo'shimchalari

**14. Ismlarning ko'plik, kichraytirish, erkalash, qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi shakllari qanday shakllar sanaladi?**

- A) egalik shakllari
- B) sintaktik shakllar
- C) lug'aviy shakllar
- D) so'z tarkibi

**15. Qaysi qatorda ismlarning munosabat shakllari to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) egalik qo'shimchalari
- B) kelishik qo'shimchalari
- C) bog'lamalar
- D) barcha javoblar to'g'ri

**16. Ismlarning egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishiga nima deyiladi?**

- A) so'z yasalishi
- B) tuslanish
- C) so'z o'zgarishi
- D) turlanish

**17. *-man, -san, -dir* qo'shimchalari hamda *bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq* so'zlariga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A) ismlarni kesimga xoslovchi shakllari
- B) shaxs-son qo'shimchalari
- C) to'liqsiz fe'llar
- D) turlovchi qo'shimchalar

**18. Sof ko'makchilar to'liq berilgan qatorni toping.**

- A) qarab, qaraganda, ko'ra
- B) ostida, yonida, qoshida
- C) sari, bilan, oldida
- D) qadar, haqida, uzra

**19. Yoshlarimiz bilimdon, negaki ularning bilim olishi uchun mamlakatimizda keng imkoniyatlar yaratilgan. Ushbu gapda bog'lovchining qaysi turi ishtiroy etgan?**

- A) teng bog'lovchi
- B) aniqlov bog'lovchisi
- C) shart bog'lovchisi
- D) sabab bog'lovchisi

**20. Men-ku bu haqda o'ylab ko'rdim. Siz-chi? Ushbu gapda yuklamaning qaysi turlari ishlataligan?**

- A) kuchaytiruv-ta'kid, so'roq yuklamalari
- B) so'roq, taajjub yuklamalari
- C) ayiruv-chegaralov yuklamalari
- D) so'roq yuklamalari

**21. Xayriyat, shukur modal so'zlari qanday ma'noni anglatadi?**

- A) gumon ma'nosini
  - B) achinish, pushaymonlik ma'nosini
  - C) tasdiq va ishonch ma'nosini
  - D) quvonch ma'nosini
- 

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq», 1997.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: «Universitet», 2006.
4. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1980.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: «Фан», 2010.

# M U N D A R I J A

## Kirish

Til va nutq .....	3
-------------------	---

## Takrorlash

Fonetika bo'yicha o'tilganlarni takrorlash .....	5
Imlo bo'yicha o'tilganlarni takrorlash .....	6
Qoshimchalar va ularning imlosi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash .....	8
Leksikologiya bo'yicha o'tilganlarni takrorlash .....	9
Fe'l so'z turkumi bo'yicha o'tilganlarni takrorlash .....	10
Ot, sifat so'z turkumlari bo'yicha o'tilganlarni takrorlash .....	11
Son va ravish so'z turkumlari bo'yicha o'tilganlarni takrorlash .....	13

## Matn

Matnda ko'p ma'noli, ma'nodosh so'zlardan foydalanish .....	14
Shakldosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlardan foydalanish .....	15

## Mustaqil so'z turkumlari haqida ma'lumot

Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi .....	17
Ko'rsatish olmoshlari .....	20
Ko'rsatish olmoshlarining talaffuzi va imlosi .....	22
Kishilik olmoshlari .....	23
O'zlik olmoshi .....	26
So'roq olmoshlari .....	28
Belgilash olmoshlari .....	30
Gumon olmoshlari .....	32
Bo'lishsizlik olmoshlari .....	34
Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari .....	35
Sodda va qo'shma olmoshlar. Ularning imlosi .....	37
Juft va takroriy olmoshlar. Ularning imlosi .....	39
Mustahkamlash .....	41

## So‘zlarning munosabat shakllari

Ismlarning munosabat shakllari .....	43
Ismlarning lug‘aviy va munosabat shakllari .....	45
Egalik shakllari va ularning imlosi .....	48
Sifatdosh va harakat nomlaridagi egalik qo‘sishchalar .....	50
Egalik qo‘sishchali so‘zlarning imlosi .....	52
Mustahkamlash .....	53
Kelishik shakllari .....	54
Bosh kelishik shakli .....	57
Qaratqich kelishigi shakli .....	59
Tushum kelishigi shakli .....	61
Jo‘nalish kelishigi shakli .....	64
O‘rin-payt kelishigi shakli .....	65
Chiqish kelishigi shakli .....	67
Ismlarni kesimga xoslovchi shakllar .....	69
Mustahkamlash .....	71

## Yordamchi so‘z turkumlari

Yordamchi so‘zlar .....	72
Ko‘makchilar .....	75
Sof ko‘makchilar .....	77
Vazifadosh ko‘makchilar .....	79
Ko‘makchilarining ma’no turlari .....	80
Ko‘makchilar va qo‘sishchalar ma’nodoshligi .....	82
Ko‘makchilar bilan birga kelgan so‘zlarning shakllari .....	83
Mustahkamlash .....	84
Bog‘lovchilar .....	85
Bog‘lovchilarning vazifasiga ko‘ra turlari .....	88
Teng bog‘lovchilar .....	89
Sof va vazifadosh bog‘lovchilar .....	91
Biriktiruv bog‘lovchilar .....	93
Ayiruv bog‘lovchilar .....	94
Zidlov bog‘lovchilar .....	97
Inkor bog‘lovchisi .....	99
Yakka va takror bog‘lovchilar .....	100
Ergashtiruvchi bog‘lovchilar .....	102

Sabab bog‘lovchilari .....	104
Aniqlov bog‘lovchisi .....	106
Shart bog‘lovchilari .....	107
Mustahkamlash .....	108
Yuklama haqida ma'lumot .....	109
Sof va vazifadosh yuklamalar .....	111
So‘roq va taajjub yuklamalari .....	113
Ayiruv-chegaralov yuklamalari .....	114
Kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari .....	116
O‘xshatish-qiyoslash yuklamalari .....	118
Gumon va inkor yuklamalari .....	119
Undov so‘zlar .....	121
His-hayajon undovlari .....	123
Buyruq-xitob undovlari .....	124
Taqlid so‘zlar .....	126
Taqlid so‘zlarning tuzilishi va imlosi .....	128
Modal so‘zlar .....	129
Modal so‘zlarning ma’no turlari .....	131
Sof va vazifadosh modal so‘zlar .....	132
Tasdiq va inkor so‘zlar .....	134
Mustahkamlash .....	136
Olmosh, egalik va kelishik shakllari yuzasidan o‘tilgan-larni takrorlash .....	137
Yordamchi so‘zlar, undov, taqlid va modal so‘zlar yuzasidan o‘tilganlarni takrorlash .....	139
Matndagi asosiy fikrni aniqlash. Matnni o‘qish va qayta hikoya qilish .....	141
Tasviriy matnni qayta hikoya qilish .....	143
Takrorlash .....	145
Ish qog‘ozlari ustida ishlash .....	147
Asosiy atamalar ustida ishlash .....	149
Testlardan namunalar .....	152
Foydalanilgan adabiyotlar .....	155

NIZOMIDDIN MAHMUDOV, ABDUHAMID NURMONOV,  
ABDULHAY SOBIROV, DILORA NABIYEVA,  
ABDURAHIM MIRZAAHMEDOV

## ONA TILI

**Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining 7-sinfi uchun darslik**

*To 'ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri*

*Toshkent «Ma'naviyat» 2017*

T a q r i z ch i l a r: **N. Ahmedova** — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti;  
**M. Zohidova** — Mirobod tumanidagi 218-maktab o'qituvchisi.

Muharrir *S. Toshqulova*  
Rassom *M. Aglyamov*  
Musahhih *D. Ismoilova*  
Komputerda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

© «Ma'naviyat» nashriyoti. Litsenziya AI №189, 10.05.2011 yilda berilgan.  
Bosishga 28.03.2017-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90<sup>16</sup>. Tayms garniturasi.  
Ofset bosma usulida bosildi. Sharthi bosma tabog'i 10,0. Nashri tabog'i 9,4  
441 433 nusxa. Buyurtma № 17-385.

Original maket «Ma'naviyat» nashriyotida tayyorlindi  
Toshkent, Taraqqiyot 2-berkko'cha, 2-uy. Sharhnoma № 06-17

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyoti matbuot  
ijodiy uyida chop etildi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy, 2017